

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
UL – XORAZMIY NOMI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

*Qo'lyozma huquqida*

UDK \_\_\_\_\_


**OTAMURO'TOVA ROVIYAJON OLIMBOYEVNA**

Buxoro amirligidagi harbiy mansab, unvon egalari va ularning vazifalari

5A120302-1 arix (yo'nalishlar va mamlakatlar)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA



Ilmiy rahbar:  
t.f.n. dots. M.M. Matyakubova

Urganch-2015

## **Mundarija:**

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. Buxoro amirligida siyosiy-ijtimoiy hayot. Davlat boshqaruvi, harbiy lavozim va harbiy taktika.....</b>	<b>12</b>
1.1. Buxoro amirligining siyosiy boshqaruvi, ijtimoiy muhiti va harbiy lavozim, harbiy ish tarixi tarixshunosligi va manbashunosligi.....	12
1.2. Buxoro amirligida siyosiy-iqtisodiy hayot.....	22
1.3. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakachilik sulxini imzolanishi. Harbiy harakatlar va harbiy ish tarixidan.....	32
<b>II BOB. Buxoro amirligida harbiy unvon va mansablar egalarining vazifalari. Harbiy ish va harbiy taktika.....</b>	<b>44</b>
2.1. Amirlikda harbiy unvon, mansab egalari va ularning vazifalari.....	44
2.2. Mang`itlar sulolasi davrida davlat tuzilishi, harbiy kuchlar boshqaruvi va harbiy ishlar.....	52
2.3. Mudofaa qurollari va inshootlari (Buxoro amirligi va Xiva, Qo`qon xonliklari bo`yicha qiyosiy tahlil).....	60
<b>III BOB. Buxoro amirligida harbiy ish: rivojlanishi va takomillashuvi.....</b>	<b>68</b>
3.1. Amirlikda harbiy ta`minot: qurol-yarog` va anjomlar, harbiy kiyim.....	68
3.2. Harbiy qurol yarog`lar ishlab chiqarish xom ashyosi va tayyorlash texnikasi.....	76
3.3. Harbiy ish takomillashuvi va taktika.....	83
<b>Xulosa.....</b>	<b>90</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>96</b>
<b>Ilovalar</b>	

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Tarixiy xotira mangudir. O`tmish tariximizni o`rganish, tarixiy haqiqatni ro`y rost ko`rsatib berish bizga pinhon, muarrixga ayon moziyni ochib berish tarix fani oldida turgan dolzarb mavzudir. Uzoq tarixni har tomonlama o`rganish orqali, Vatanga, asrlar davomida osha o`z qadr qimmatini yo`qotmagan qadriyatlar, urf odatlarimizga, ajdodlar merosiga umuman olganda o`tmish tariximizga hurmat, mehr oqibat va ayni paytda ertangi kunimizga ishonch paydo bo`ladi. Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek "Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson takror aytaman, irodali insondir. Kim bo`lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o`z o`tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo`ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o`rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Inson uchun tarixdan judo bo`lish - hayotdan judo bo`lish demakdir". Bu so`zlar bizni tariximizni yanada chuqurroq va mukammalroq o`rganishga undaydi. Prezidentimiz I.A.Karimovning bir guruh tarixchilar bilan uchrashuvida Vatan tarixini har tomonlama chuqur ilmiy asos va manbalarga tayangan holda yaratish vazifasi qo'yildi. Bu uchrashuv va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zRFA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 1998 yil 27 iyul qarorida tarix fani oldiga o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixini hamda davlatchilikning barcha bosqichlarida O'zbekiston hududida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni o'rganish dolzarb vazifa etib belgilandi<sup>1</sup>. Bu jarayonlarni chuqur va asl manbalar ma'lumotlariga tayangan holda o'rganish tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida O'zbekiston hududida shakllangan davlatchilik an'analari, turli davlatlarning tarixiy qiyofasini to'la va xolis tiklash imkonini beradi.

Shu o`rinda biz tanlagan mavzu ham bugunning dolzarb mavzusi hisoblanib, uni ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etib, manbalar, arxiv hujjatlari orqali xolislik bilan yaqindan o`rganib, fanga yangiliklar kiritish, bugun va kelajak avlodni

---

<sup>1</sup> ЎзР Вазирлар Махкамасининг "ЎзРФА Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида"ги қарори. Ўзбекистон овози. 1998 йил 28 июл.

haqqoniy tarixdan boxabar etish mavzuning dolzarbligini tashkil qiladi. Ya'ni Buxoro amirligi tarixi, davlat boshqaruvi, mansab, unvonlar va ularning egalarini vazifalari, harbiy ta'minot, harbiy kuch boshqaruv tizimini yaratilish, harbiy kiyim, harbiy mashq va harbiy taktika hamda mudofaa qurollari va mudofaa tizimi harbiy va diniy unvonlar va ularning egalarining vazifalarini keng qamrovli tarzda o'rganish, o'z o'rnida Xiva va Qo`qon xonligi mansab va unvonlari bilan qiyosiy tahlil qilish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

XVI – XX asr boshlarida Buxoro (xonligi) amirligida 3 ta sulola – shayboniylar (XVI asr), ashtarxoniylar (XVII – XVIII asr o'rtalari) va mang'itlar (XVIII asr o'rtalari- XX asr boshlari) hukmronlik qilganlar. Bu sulolalar hukmronligi davrida xonlikning siyosiy nufuzi, kuch-qudrati yuqori darajaga ko'tarilib borganligi hamda uchta sulola vakillari idora qilganliklari sababli Buxoro xonligini Shayboniylar davlati, Ashtarxoniylar davlati va Buxoro amirligi deb alohida o'rganiladi.

Buxoro davlatida XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab mang'it sulolasining namoyandalari hukmronlik qilgan. Buxoro amirligi mang'itlar davri tarixi turli mahalliy manbalar va ilmiy adabiyotda yoritilgan. Ushbu sulola hukmronligi 1920 yilgacha davom etdi. Sulola hukmdorlari o'zlarini “amir” deb atadilar.

Mang'itlar hukmronligi davrida ham Buxoroning davlat tizimida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilmadi. Garchi oliy hukmdor endi “Amir” unvoni bilan mamlakatni boshqargan bo'lsa-da, Buxoro amirligi ham o'z tizimi, qonun – qoidalari, boshqaruv tartibi va butun mohiyati bilan Mavoraunnahrdagi o'rta asr musulmon davlatlari, xususan, shayboniylar va ashtarxoniylar davlat tizimidan deyarli farq qilmaydi. Davlat mutlaq qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga ega bo'lgan Amir tomonidan boshqarilar edi. Davlat hayotiga tegishli siyosiy, iqtisodiy, diniy va boshqa barcha masalarda Buxorodagi boshqa qarorgoh – Arkda hal etilardi.

O'rta Osiyoda jumladan, Buxoro amirligida XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asr boshlarida xonliklarning ichki va tashqi siyosatida, o'zaro munosabatlarda

harbiy qo`shin muhim ahamiyat kasb etgan. Buxoro amirligi qo`shini muntazam va nomuntazam qismlardan tashkil topgan harbiy kuchga aylangan. XIX asr boshlariga kelib, hukmdorlar o`z qo`shinlarini yaxshilash, uning tarkibida muntazam qismlarni tarkib toptirish borasida ko`p say-harakatlarni amalga oshirdilar. Bunday hukmdorlardan Amir Haydarni (1800-1826 yy.) kiritish mumkin. U mamlakat harbiy kuchlarini ikki qismga – muntazam qo`shin – “navkariya” va nomuntazam qo`shin – “qora cherik”ka bo`ldi. Amir Nasrullo davrida Buxoroning harbiy qudrati ancha oshdi. Amir Nasrullo (1826-1860 yy.) davrida amirlikdagi muntazam qo`shin-sarbozlar qo`shini tashkil etilgan. Eng yuqori harbiy unvonlar sarkarda, amiri lashkar, dodxoh (qo`shin boshlig`i) kabilar bo`lib, quronbegi, to`qsabo, mingboshi kabi oliy toifali harbiy amaldorlar ham faoliyat yuritgan. Bekliklar hududidagi qo`shinga beklarning o`zlari rahbarlik qilganlar. Bekning eng yaqin yordamchilari yasovulboshi boshchiligidagi yasovullar bo`lgan. Qo`shinda ponsadboshi, yuzboshi, ellikboshi, o`nboshi, miroxur kabi bo`linma boshliqlari ham bo`lgan. Mingboshi bayroq (tug`) ko`tarib yurish huquqiga ega edi.<sup>2</sup>

Buxoro amirligida mansabiga muvofiq ravishda navkarlarga oziq-ovqat, pul va kiyim-bosh, otlari uchun yem-xashak berilgan. Ular boshqa xonliklarning muntazam qo`shinlari kabi turli soliq va majburiyatlardan ozod etilgan edi. O`z yeriga ega bo`lgan navkarlar amirning buyrug`i bilan bu yerlar va ularda yetishtiriladigan turli ekinlarga solinadigan soliqlardan ham ozod edilar.

Xonliklarda mamlakat chegaralarini qo`riqlashga katta e`tibor qaratilgan. Davlat chegaralarida ham ma`lum miqdordagi harbiylar saqlangan. Chegaralarda qo`shinnin saqlash uchun bir qancha qal`alar bunyod etilgan edi. Bu qal`alarda joylashgan qo`shining asosiy vazifasi turli savdo karvonlarining xavsizligini ta`minlash, mamlakatni tashqi kuchlar tajovuzidan asrashdan iborat edi. Tashqi kuchlar hujumiga birinchi bo`lib javob beradigan bunday qal`alar asosan yirik

---

<sup>2</sup> Баходир Э. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи». Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.- Б. 352. Яна қаранг: Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (Қадимги даврдан ҳозиргача). Д. Зиёва масъул муҳаррирлиги остида. Тошкент : Шарқ, 2012. – Б. 131. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент : Янги аср авлоди, 2006. – Б. 33. Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000.- Б. 47.

xalqaro karvon yo'llarida bunyod etilar edi. Yuqorida keltirib o'tganimizdek, Buxoro amirligi tarixining bir qismi hisoblangan harbiy qism boshqaruvi, harbiy unvon, mansab egalarining vazifalari, harbiy ta'minot, harbiy taktika tarixini yanada chuqurroq tadqiq etish orqali yangiliklarga ega bo'lish mavzuning dolzarbligini tashkil etdi.

**Tadqiqotning ob'ekti va predmeti.** Buxoro amirligi va undagi harbiy lavozim, unvon va ularning egalarining vazifalari ishning ob'ektini tashkil qilsa, uni ilmiy asosli ya'ni tarixiy manba va arxiv hujjatlari asosida o'rganish, ma'lum darajada, imkon qadar fanga yangi ma'lumotlarni yangilik sifatida kiritish, o'z o'rnida tahlil (qiyosiy) etish tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Tadqiqot ishining maqsadi Buxoro amirligining tarixini manbalar va arxiv hujjatlariga tayangan holda amirlikda mansab unvonlar, harbiy lavozim, ularning egalarining vazifalari, lavozim egalarining davlat boshqaruvidagi o'rnini, harbiy mashqlar, harbiy taktika, o'ziga xos mudofaa tizimini yaratilganini ko'rsatib o'tish (imkon bo'lsa ismi sharifi bilan keltirish) ishning maqsadini belgilaydi. Ishning maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

- birinchidan, Buxoro amirligining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotini mahalliy va horij tarixshunosligi asosida yoritish uchun manbalarni o'rganish.
- ikkinchidan, Buxoro amirligini Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar va undan keying davrlardagi harbiy ishi, lavozim va harbiy taqtikani o'rganish.
- uchinchidan, mang'itlar sulolasi davridagi davlat tuzilishi va boshqaruvi; unda harbiy mansab, unvon egalarining o'rne va boshqaruvdagi ahamiyatini talil qilish.
- to'rtinchidan, amirlikdagi boshqa mansab va unvon egalari bilan harbiy lavozim egalarining o'ziga xos nufuzini o'rganish.
- beshinchidan, amirlikning harbiy ta'minoti, harbiy qo'shini, qo'shni Xiva, Qo'qon xonliklari bilan qiyoslash.

- oltinchidan, Buxoro amirligidagi harbiy ish takomillashuvini (bosqichma-bosqich) tahlil qilish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Ilmiy tadqiqot ishida Buxoro amirligidagi harbiy mansab, unvonlar va ularning egalarining vazifalari bo'yicha manba va adabiyotlar jamlandi. Mahalliy, xorijiy va davriy adabiyotlarga tayanib mavzu o'z asosini topdi. Mavzu yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan holda ochib berildi. Amirlikdagi harbiy kuch boshqaruvi va uning o'ziga xosligi tahlillar natijasida yangi fikrlar bilan ko'rsatib o'tildi. Mansab egalarining ayrimlarining ismi shariflari manbashunos professor Sh.Vohidovning so'nggi tadqiqotlariga asoslanib, manbaga tayanilgan holda kiritildi. XIX asr boshlarida amirlikda qo'shin muntazam va nomuntazam qismlardan tashkil topgan harbiy kuchga aylanganligi, XIX asr boshlariga kelib, hukmdorlar tomonidan o'z qo'shinlarini yaxshilash, uning tarkibida muntazam qismlarni tarkib toptirish borasida ko'p say-harakatlarni amalga oshirilganligi va uning davlatning ichki, tashqi xavfni bartaraf etishdagi o'rni va ahamiyati asosli tarzda ko'rsatildi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va ilmiy farazlari.** Buxoro amirligidagi harbiy mansab, unvonlar va ularning egalarining vazifalari va shu orqali Buxoro amirligidagi harbiy ta'minot, harbiy ish, harbiy taktikaning takomillashuvi o'z o'rnida harbiy mansab va unvon egalarining amirlik tarixida tutgan o'rnini alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganish masalasini yanada ko'proq o'rganish foydadan holi emas deb hisoblaymiz. Chunki amirlik tarixi bo'yicha hali hanuz ochilmagan, o'rganilmagan manbalar va adabiyotlar ko'p, ularning o'rganish orqali amirlik tarixi bo'yicha yangicha qarash yoki qo'shimcha ma'lumotlar kiritish imkonini beradi. Shundan kelib chiqqan holda ishning farazi quyidagilarda o'z aksini topgan.

- Birinchidan, Buxoro amirligida davlat boshqaruvi alohida mahalliy tarixchilari asarlari orqali o'rganilsa;
- Ikkinchidan, Rus sharqshunoslari va xorijiy elchi sayyoh va boshqa vazifalar bilan kelgan kishilarning asarlari estaliklari orqali o'rganilsa;

- Uchinchidan, mahalliy va xorij tarixnavisligi orqali mavzu qiyosiy o`rganilsa;
- To`rtinchidan, Buxoro amirligi harbiy taktikasi, jang uslubi o`tgan tarixiy voqeiliklar asosida ko`rsatib berilsa;
- Beshinchidan, harbiy lavozim, unvon egalarining oliy hokimiyat oldidagi vazifasi, ma`suliyati, majburiyati, vakolati tadqiq etilsa;
- Oltinchidan, Amirlik harbiy-siyosiy tarixi va yuqoridagi jihatlar orqali o`rganilsa Buxoro amirligining hali-hanuz ochilmagan jihatlari yangilik sifatida umumta`lim maktablari, o`rta maxsus ta`lim va oliy o`quv yurti fanlari darsliklariga kiritilsa maqsadga muvofiq bo`lar edi.

**Tadqiqot mavzusi bo`yicha adabiyotlar tahlili.** Buxoro xonligi (amirligi) tarixini o`rganishda dastlabki manbalar qatorida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari<sup>3</sup>, «XIX asr Xiva davlat hujjatlari» II tom<sup>4</sup>, Хафиз- и Таниш ибн Мир Мухаммад Бухари «Шараф-наме-йи шахи (книга шахской славы)», Мир Мухаммад Амин – и Бухари «Убайдулланаме», Ahmad Donish «Risolai yo muxtasari az tarixi saltanati xonadoni mangitiya»<sup>5</sup>, Mulla Maxdum Xoji «Tarixi Turkiston»<sup>6</sup>, Mirza Abdalazim Somi «Tarixi salatini Mangitiya (история Мангитских государств.)»<sup>7</sup>, Said Xomid Tura Komyob «Tavorix ul - xavonin»<sup>8</sup>, Muhammad Yusuf Bayoniy «Shajarai Xorazmshohiy»<sup>9</sup>, Muhammad Ali ibn Muxammad Sayid Baljuvoni «Tarix – i nofei»<sup>10</sup>, Amir Sayid Olimxon «Buxoro xalkining xasrati tarixi»<sup>11</sup>, Ziyoyev X. «O`zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixi (Miloddan avvalgi asrlardan to 1991 yil 31 avgustgacha)»<sup>12</sup>, Ziyoyev X.

<sup>3</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент, 1989.

<sup>4</sup> XIX asr Xiva davlat hujjatlari II tom. – Тошкент, 1960.

<sup>5</sup> Ахмад Дониш. Рисолаи ё мухтасари аз тарихи салтанати хонадони мангития. Душанбе, 1960.

<sup>6</sup> Мулла Махдум Хожи. Тарихи Туркистон. – Қарши, 1992.

<sup>7</sup> Мирза Абдалазим Салимий. Тарихи салатини Мангитийа (история Мангитских государств.). М. 1962.

<sup>8</sup> Саид Хомид Тура Комёб. Таворих ул - хавонин. Тошкент: Академия, 2002.

<sup>9</sup> Мухаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшохий. Тошкент, 1994.

<sup>10</sup> Мухаммад Али ибн Мухаммад Сайид Балжувони. Тарих - и нофеи. Душанбе, 1992.

<sup>11</sup> Амир Сайид Олимхон. Бухоро халкининг хасрати тарихи. Тошкент: Фан, 1991.

<sup>12</sup> Зиеёв Х. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашлар тарихи (Милоддан аввалги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). Тошкент, 2000.



«Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash»<sup>13</sup>, Ozodayev F. «Toshkent tarixidan ocherklar»<sup>14</sup>, A'zamxujayev S. «Turkiston muxtoriyati»<sup>15</sup>, Mingnorov A. «Turkistonda 1917-1918 yillardagi milliy siyosiy tashkilotlar»<sup>16</sup>, Rajabov K. «Buxoro va Xorazm Xalk Respublikalari: davlatchilikning demokratik shakli»<sup>17</sup>, Baxodir E. «Uzbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi»<sup>18</sup>, Azamat Ziyoyev «O'zbek davlatchiligi tarixi»<sup>19</sup>, Sagdullayev A., Mavlonov U. «O'zbekistonda davlat va boshqaruv tarixi»<sup>20</sup>, Vohidov SH., Xolikova R. «Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan»<sup>21</sup>, Xoliqova R. «Rossiya-Buxoro tarix chorrahasida»<sup>22</sup>, Voxidov SH., Choriyev Z. «Tarixi Nofei» (tojik tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi)<sup>23</sup>, Abduraxmonov A., Zohidiy A. «Tugon Zakiy Validiyning Turkistonga qilgan safari»<sup>24</sup>, «O'zbekistonda harbiy ish tarixidan» D.Ziyoyeva muharrirligi ostida<sup>25</sup>, Badriddinov S. «Buxoro moddiy va ma'naviy madaniyati saxifalari»<sup>26</sup>, «Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari»<sup>27</sup>, Muxammadjonov A. «Buxoro shahri 2500 yoshda»<sup>28</sup>, Naimov N. «Amirning xazinasi»<sup>29</sup>, Naimov N. «So'nggi hukmdor»<sup>30</sup>, Xolboyev S. «Buxoro amirligining oltin xazinasi»<sup>31</sup>, Rashidov U. «Buxoro Xalq Respublikasi»<sup>32</sup>, Xujayev F. «Buxoro inqilobi tarixiga

<sup>13</sup> Зиёев Х. Туркистонда Россия тајовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Тошкент, 1998.

<sup>14</sup> Озодаев Ф. Тошкент тарихидан очерклар. Тошкент, 1960.

<sup>15</sup> Аъзамхужаев С. Туркистон мухторияти. Тошкент: Маънавият, 2000.

<sup>16</sup> Мингноров А. Туркистонда 1917-1918 йиллардаги миллий сиёсий ташкилотлар. Тошкент: Маънавият, 2002.

<sup>17</sup> Ражабов К. Бухоро ва Хоразм Халқ Республикалари: давлатчиликнинг демократик шакли. Тошкент: Шарқ, 2000.

<sup>18</sup> Баҳодир Э. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.

<sup>19</sup> Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000.

<sup>20</sup> Сагдуллаев А., Мавлонов У. Ўзбекистонда давлат ва бошқарув тарихи. Тошкент, 2006.

<sup>21</sup> Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.

<sup>22</sup> Холиқова Р. Россия-Бухоро тарих чорраҳасида. Тошкент: Ўқитувчи, 2005.

<sup>23</sup> Воҳидов Ш., Чориёв З. Тарихи Нофеи (тожик тилидан таржима, сузбоши ва изохлар муаллифи). Тошкент: Академия, 2001.

<sup>24</sup> Абдурахмонов А., Зоҳидий А. Тугон Закий Валидийнинг Туркистонга қилган сафари. Тошкент: Фан, 1997.

<sup>25</sup> Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. Тошкент: Шарқ, 2012.

<sup>26</sup> Бадриддинов С. Бухоро моддий ва маънавий маданияти саҳифалари. – Бухоро, 2013.

<sup>27</sup> «Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоқлари». Д.Алимова / Тошкент: Шарқ, 2000.

<sup>28</sup> Мухаммаджонов А. Бухоро шаҳри 2500 ёшда. Тошкент: Фан, 1998.

<sup>29</sup> Наимова Н. Амирнинг хазинаси. – Бухоро, 1995.

<sup>30</sup> Наимов Н. Сўнги ҳукмдор. – Бухоро, 2008.

<sup>31</sup> Холбоев С. Бухоро амирлигининг оltин хазинаси. Тошкент: Фан, 2008.

<sup>32</sup> Рашидов У. Бухоро Халқ Республикаси. – Бухоро, 2003.

materiallar»<sup>33</sup> kabilar hamda rus sharqshunoslaridan Демезона П.И., Виткевича (отчетй) «Записки о Бухарском ханстве», Троицкая А.Л. «Военное дело в Бухаре в первой половине XIX в.», Троицкая А.Л. «Каталог архива Кокандских ханов XIX века», Меендорф Е.К. «Путешествие из Оренбурга в Бухару», Семенов А.А. «Бухарский трактат о чинах и званиях и обязанностях носителей их в средневековой Бухаре», Бартольд В.В. «Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии»<sup>34</sup>, Хотирахои Amir Olimxon (amir Olimxon хотиралари)<sup>35</sup>, Вилданова А.Б. «Подлинник Бухарского трактата о чинах и званиях»<sup>36</sup>, Mirza Badi Divan «Majma ul – arkom» (Факсимиле рукопис. Введение, перевод и примечание)lar mavzuning asosiy adabiyotini tashkil kiladi.

Shu davrga tegishli ba'zi mahalliy manbalar ham o'rganib chiqilib, tadqiq etilayotgan mavzuning ayrim jihatlarini ochib berishga harakat qilindi. Ularda Buxoro amirligi davlat boshqaruvi, ma'muriy va harbiy amaldorlarning vazifalari, harbiy masalaga oid ma'lumotlar mahalliy tarixnavislik maktabi namoyandalari asarlariga izoh, hamda tushuntirishlar bilan tadqiqot ishiga kiritildi.

Mahalliy tarixnavislik maktabining namoyandalari asarlari uzoq yillar mobaynida tazyiq ostida qolib, e'lon qilinmagan yoki ular ahamiyati kamsitilib tarjima qilish, nashr ettirish ishlari paysalga solingan. Shunday bo'lsa ham bir qator olimlar tomonidan mahalliy manbalar asosida ilmiy ishlar olib borilgan. Jumladan, professor Sh.Voxidov amirlik davlat boshqaruvi mansab va unvonlar hamda harbiy ish tarixi bo'yicha ko'pgina tadqiqotlar olib bordi va ilmiy nashrlarni amalga oshirdi. Muallif o'z tadqiqot va tarjimalarida Buxoro kozikaloni Muxammad Sharifxon – Sadri Ziyo asarlarini (“Zikri Saltanati podshoxoni mangitdir”. Mavorounnahr // Ko'lyozma, Uz RFA SHI № 2241. rakami ostida saklanadi) hamda Muhammad Ali Baljuvoniyning “Tarixi nofei” asarini tojik tilidan tarjima qilib, so'zboshi va izohlar keltirib o'tgan. Ushbu manabalar amirlik

---

<sup>33</sup> Хужаев Ф. Бухоро инқилоби тарихига материаллари. Тошкент: Фан, 1997.

<sup>34</sup> Бартольд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. Т.5. Москва, 1968.

<sup>35</sup> Хотирахои Амир Олимхон (амир Олимхон хотиралари). Душанбе, Адиб. 1992.

<sup>36</sup> Вильданова А.Б. Подлинник бухарского трактата о чинах и званиях. М., 1970.

boshqaruv tarixi va harbiy ish tarixini o'rganishda muhim manba bo'la oladi. Quyida bu haqda batafsil to'xtalamiz.

Shu davrga tegishli ba'zi mahalliy manbalar o'rganib chiqilib, tadqiq etilayotgan mavzuning ayrim jihatlarini ochib berishga harakat qilingan. Ularda Buxoro amirligi davlat boshqaruvi, ma'muriy va harbiy amaldorlarning vazifalari, harbiy masalaga oid ma'lumotlar mahalliy tarixnavislik maktabi namoyandalari asarlari bilan bir qatorda ularga izoh, hamda tushuntirishlar bilan olimlar tomonidan ham keng miqyosda o'rganilmoqda.

**Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning qisqacha tavsifi.** Mavzuga oid bo'lgan manba va arxiv hujjatlari o'rganildi adabiyotlar tahlil qilindi. Tarixiy reallik xolislik asosida ish olib borildi, analiz, sintez va ilmiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Ishning ilmiy-amaliy ahamiyati.** Mavzu bo'yicha to'plangan ma'lumotlardan ilmiy tadqiqot olib boruvchi, oliy o'quv yurtida o'tiladigan tanlov fanlar qamrovida hamda ijtimoiy gumanitar fan o'qituvchilari va talabalari, magistrantlar, bakalavriyat talabalari, akademik litsey va kasb-hunar kollej o'qituvchilari va o'quvchilari, hamda umumta'lim maktabi o'qituvchilari va yuqori sinf o'quvchilari, foydalanishi mumkin. Tadqiqot bo'yicha olib borilgan ishlar, tadqiqot natijasi sifatida davriy nashrlarda ilmiy maqolalar orqali keng omma e'tiboriga havola etildi.

**Ish tuzilmasining tavsifi.** kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Tadqiqotning asosiy mazmuni 102 betda yoritib berilgan.

## **I BOB. Buxoro amirligida siyosiy-ijtimoiy hayot. Davlat boshqaruvi, harbiy lavozim va harbiy taktika**

### **1.1. Buxoro amirligining siyosiy boshqaruvi, ijtimoiy muhiti va harbiy lavozim, harbiy ish tarixi tarixshunosligi va manbashunosligi**

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ya'ni mang'itlilar sulolasi hukmronligi o'rnatilgach, Buxoro amirligi yana asta-sekin mustahkamlana boshlaydi. Shu asrning 70-80 yillariga kelib Buxoro amirligining markaziy hududini Samarqand va Buxoro shaharlarini o'z ichiga olgan Zarafshon vohasi tashkil qilgan. XIX asrning boshlariga kelib Buxoro amirligi hududidiga Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalaridan tashqari Surhon vohasi, Hisor, Xo'jand, O'ratepa, Panjikent kabi aholi zich joylashgan tumanlar, Janubiy Turkmanistonning katta qismi, jumladan Chorjo'ydan to Murg'ob daryosigacha bo'lgan hududlar kirgan. Bu davrda Buxoro amirligi hududlarining kengayishiga asosiy sabab – mang'itlar sulolasining markazlashgan davlat barpo etishga intilishi bo'ldi.

XIX asrning boshlarida Buxoro amirligi bir tomondan Eron va Afg'oniston, ikkinchi tomondan Xiva xonligi, uchinchi tomondan qozoq juzlari va to'rtinchi tomondan Qo'qon xonligi hududlari bilan chegardosh edi<sup>37</sup>.

Buxoro amirligi boshqaruv ishlarida yirik sarkardalar, qo'shin boshliqlari, qo'mondonlar va amirlarning harbiy mahorati katta ahamiyatga ega. Amirlikda ichki va tashqi xavfni bartaraf etish, davlat sarhadlarini kengaytirish hamda qilinadigan yurishlarda qo'shinlarning soni, harbiy tayyorgarligi, jang usullari, qurol-yarog'lar, qo'shin boshliqlarining harbiy mahorati kabilarga katta e'tibor qaratganlar. Davlatda qo'shin to'plash, qo'shinning ta'minoti, uning tarkibi, qo'shinni jangga tayyorlash, qurol-aslahalar, harbiy va qorovullik xizmatini o'tash, harbiy harakatlarni olib borish odat tusiga kirgan. Amirlikning siyosiy hayoti, boshqaruv tartibi, ma'muriy tuzilishi va harbiy siyosati to'g'risida tarixiy

---

<sup>37</sup> Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – B. 344.

manbalarda ma'lumotlar keltirib o'tilgan<sup>38</sup>. Quyida ana shunday manbalar va ularning mualliflariga to'xtalamiz.

Buxoro amirligining siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy hayoti tarixi tarixshunosligi va manbashunosligi doirasida amirlik tarixiga oid tadqiqotlar va manbalarda ko'pgina tarixiy voqealiklar yoritilgan. Rossiya imperiyasining harbiy yurishlari, bosib olish jarayoni va hukmronligi davrida yaratilgan asarlar ham mavzuning tarixshunosligi va manbashunosligini tashkil qiladi. O'rganilayotgan davrda Buxorodagi harbiy ish va Rossiya imperiyasi bosqini arafasidagi ijtimoiy – iqtisodiy hayot, Buxoro amirligi harbiy qo'shini, harbiy taktika va harbiy lavozim egalariining vazifalari to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rish mumkin.

Buxoro xonligi (amirligi) tarixini o'rganishda dastlabki manbalar qatorida Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari<sup>39</sup>, «XIX asr Xiva davlat xujjatlari» II tom<sup>40</sup>, Xafiz- i Taniш ibn Мир Мухаммад Бухари «Шарафнаме-йи шахи (книга шахской славы)»<sup>41</sup>, Мир Мухаммад Амин – и Бухари «Убайдуллонаме»<sup>42</sup>, Ahmad Donish «Risolai yo muxtasari az tarixi saltanati xonadoni mangitiya»<sup>43</sup>, Mulla Maxdum Hoji «Tarixi Turkiston»<sup>44</sup>, Mirza Abdulazim Somi «Tarixi salatini Mangitiya (история Мангитских государств.)»<sup>45</sup>, Said Xomid Tura Komyob «Tavorix ul - xavonin»<sup>46</sup>, Muhammad Yusuf Bayoniy «SHajarai Xorazmshohiy»<sup>47</sup>, Muhammad Ali ibn Muxammad Sayid Baljuvoni «Tarix – i nofei»<sup>48</sup>, Amir Sayid Olimxon «Buxoro xalkining xasrati tarixi»<sup>49</sup>, Ziyoyev X. «O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixi

---

<sup>38</sup>Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruv tarixidan. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2006. –Б. 26.

<sup>39</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент, 1989.

<sup>40</sup> XIX asr Xiva davlat xujjatlari II tom. – Тошкент, 1960.

<sup>41</sup> Хафиз- и Таниш ибн Мир Мухаммад Бухари. Шарафнаме-йи шахи (книга шахской славы). М.:Наука, 1989.

<sup>42</sup> Мир Мухаммад Амин-и Бухари. Убайдуллонаме. Тошкент: Фан, 1957.

<sup>43</sup> Ахмад Дониш. Рисолаи ё мухтасари аз тарихи салтанати хонадони мангития. Душанбе, 1960.

<sup>44</sup> Мулла Махдум Хожи. Тарихи Туркистон. – Қарши, 1992.

<sup>45</sup> Мирза Абдалазим Салимий. Тарихи салатини Мангитийа (история Мангитских государств.). М. 1962.

<sup>46</sup> Саид Хомид Тура Комёб. Таворих ул - хавонин. Тошкент: Академия, 2002.

<sup>47</sup> Мухаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшохий. Тошкент, 1994.

<sup>48</sup> Мухаммад Али ибн Мухаммад Сайид Балжувони. Тарих - и нофеи. Душанбе, 1992.

<sup>49</sup> Амир Сайид Олимхон. Бухоро халкининг хасрати тарихи. Тошкент: Фан, 1991.

(Miloddan avvalgi asrlardan to 1991 yil 31 avgustgacha)<sup>50</sup>, Ziyoyev X. «Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash»<sup>51</sup>, Ozodayev F. «Toshkent tarixidan очерklar»<sup>52</sup>, A'zamxujayev S. «Turkiston muxtoriyati»<sup>53</sup>, Mingnorov A. «Turkistonda 1917-1918 yillardagi milliy siyosiy tashkilotlar»<sup>54</sup>, Rajabov K. «Buxoro va Xorazm Xalk Respublikalari: davlatchilikning demokratik shakli»<sup>55</sup>, Baxodir E. «O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi»<sup>56</sup>, Azamat Ziyoyev «O'zbek davlatchiligi tarixi»<sup>57</sup>, Sagdullayev A., Mavlonov U. «O'zbekistonda davlat va boshqaruv tarixi»<sup>58</sup>, Vohidov SH., Xolikova R. «Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan»<sup>59</sup>, Xoliqova R. «Rossiya-Buxoro tarix chorrahasida»<sup>60</sup>, Voxidov Sh., Choriyev Z. «Tarixi Nofei» (tojik tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi)<sup>61</sup>, Abduraxmonov A., Zohidiy A. «Tugon Zakiy Validiyning Turkistonga qilgan safari»<sup>62</sup>, «O'zbekistonda harbiy ish tarixidan» D.Ziyoyeva muharrirligi ostida<sup>63</sup>, Badriddinov S. «Buxoro moddiy va ma'naviy madaniyati sahifalari»<sup>64</sup>, «Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari»<sup>65</sup>, Muxammadjonov A. «Buxoro shahri 2500 yoshda»<sup>66</sup>, Naimov N. «Amirning xazinasi»<sup>67</sup>, Naimov N. «So'nggi hukmdor»<sup>68</sup>, Xolboyev S. «Buxoro amirligining oltin xazinasi»<sup>69</sup>,

<sup>50</sup> Зиёев Х. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашлар тарихи (Милоддан аввалги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). Тошкент, 2000.

<sup>51</sup> Зиёев Х. Туркистонда Россия тајовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Тошкент, 1998.

<sup>52</sup> Озодаев Ф. Тошкент тарихидан очерқлар. Тошкент, 1960.

<sup>53</sup> Аъзамхужаев С. Туркистон мухторияти. Тошкент: Маънавият, 2000.

<sup>54</sup> Мингноров А. Туркистонда 1917-1918 йиллардаги миллий сиёсий ташкилотлар. Тошкент: Маънавият, 2002.

<sup>55</sup> Ражабов К. Бухоро ва Хоразм Халқ Республикалари: давлатчиликнинг демократик шакли. Тошкент: Шарқ, 2000.

<sup>56</sup> Баходир Э. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.

<sup>57</sup> Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000.

<sup>58</sup> Сагдуллаев А., Мавлонов У. Ўзбекистонда давлат ва бошқарув тарихи. Тошкент, 2006.

<sup>59</sup> Вохидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.

<sup>60</sup> Холиқова Р. Россия-Бухоро тарих чорраҳасида. Тошкент: Ўқитувчи, 2005.

<sup>61</sup> Вохидов Ш., Чориев З. Тарихи Нофеи (тожик тилидан таржима, сузбоши ва изохлар муаллифи). Тошкент: Академия, 2001.

<sup>62</sup> Абдурахмонов А., Зоҳидий А. Тугон Закий Валидийнинг Туркистонга қилган сафари. Тошкент: Фан, 1997.

<sup>63</sup> Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. Тошкент: Шарқ, 2012.

<sup>64</sup> Бадриддинов С. Бухоро моддий ва маънавий маданияти саҳифалари. –Бухоро, 2013.

<sup>65</sup> «Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойлиқларини талаш сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоқлари». Д.Алимова / Тошкент: Шарқ, 2000.

<sup>66</sup> Мухаммаджонов А. Бухоро шаҳри 2500 ёшда. Тошкент:Фан, 1998.

<sup>67</sup> Наимова Н. Амирнинг хазинаси. – Бухоро, 1995.

<sup>68</sup> Наимов Н. Сўнги ҳукмдор». – Бухоро, 2008.

<sup>69</sup> Холбоев С. Бухоро амирлигининг оltин хазинаси. Тошкент: Фан, 2008.

Rashidov U. «Buxoro Xalq Respublikasi»<sup>70</sup>, Xoʻjayev F. «Buxoro inqilobi tarixiga materiallar»<sup>71</sup> kabilar hamda rus sharqshunoslaridan Демезона П.И., Виткевича (отчеты) «Записки о Бухарском ханстве», Троицкая А.Л. «Военное дело в Бухаре в первой половине XIX в.», Троицкая А.Л. «Каталог архива кокандских ханов XIX века», Меендорф Е.К. «Путешествие из Оренбурга в Бухару», Семенов А.А. «Бухарский трактат о чинах и званиях и обязанностях носителей их в средневековой Бухаре», Бартолд В.В. «Двенадцат лексий по истории турецких народов Средней Азии», Хотирахони Amir Olimxon (amir Olimxon хотиралари)<sup>72</sup>, Вилданова А.Б. «Подлинник бухарского трактата о чинах и званиях», Mirza Badi Divan «Majma ul – arkom» (Факсимиле рукопис. Введение, перевод и примечание)lar mavzuning tarixshunosligini tashkil kiladi.

Shu davrga tegishli baʼzi mahalliy manbalar ham oʻrganib chiqilib, tadqiq etilayotgan mavzuning ayrim jihatlarini ochib berishga harakat qilindi. Ularda Buxoro amirligi davlat boshqaruvi, maʼmuriy va harbiy amaldorlarning vazifalari, harbiy masalaga oid maʼlumotlar mahalliy tarixnavislik maktabi namoyandalari asarlariga izoh, hamda tushuntirishlar bilan tadqiqot ishiga kiritildi.

Mahalliy tarixnavislik maktabining namoyandalari asarlari uzoq yillar mobaynida tazyiq ostida qolib, eʼlon qilinmagan yoki ular ahamiyati kamsitilib tarjima qilish, nashr ettirish ishlari paysalga solingan. SHunday boʻlsa ham bir qator olimlar tomonidan mahalliy manbalar asosida ilmiy ishlar olib borilgan. Jumladan, professor SH.Voxidov amirlik davlat boshqaruvi mansab va unvonlar hamda harbiy ish tarixi boʻyicha koʻpgina tadqiqotlar olib bordi va ilmiy nashrlarni amalga oshirdi. Muallif oʻz tadqiqot va tarjimalarida Buxoro kozikaloni Muxammad SHarifxon – Sadri Ziyo asarlarini (“Zikri Saltanati podshoxoni mangitdir”. Mavorounnahr // Koʻlyozma, Uz RFA SHI № 2241. rakami ostida saklanadi) hamda Muhammad Ali Baljuvoniyning “Tarixi nofei” asarini tojik tilidan tarjima qilib, soʻzboshi va izohlar keltirib oʻtgan. Ushbu manabalar amirlik

<sup>70</sup> Рашидов У. Бухоро Халқ Республикаси. – Бухоро, 2003.

<sup>71</sup> Хужаев Ф. Бухоро инқилоби тарихига материаллари. Тошкент: Фан, 1997.

<sup>72</sup> Хотирахон Амир Олимхон (амир Олимхон хотиралари). Душанбе, Адиб. 1992.

boshqaruv tarixi va harbiy ish tarixini o'rganishda muhim manba bo'la oladi. Quyida bu haqda batafsil to'xtalamiz.

Buxoro tarixchilarining asarlari, jumladan, Qozi Homid Baqoxo'ja o'g'li, Mir Muhammad Siddih ibni amir Muzaffar «Hashmat», Muhammad SHarif ibni qozi Abdushukur qozi kalon Sadri Ziyolarning muhim va tarixiy ma'lumotlarga boy bo'lgan asarlari, ayniqsa Buxoroning oxirgi qozikaloni Sadri Ziyoning (1867-1932) va Hashmatning ilmiy-adabiy meroslari bizni qiziqtirayotgan masalalarni yechishga yaqindan yordam beradi. Sadri Ziyo tomonidan yozilgan asarlardan «Zikri salatanati podshohoni mang'it dar Mavorounnahr» (Mavorounnahrda hukm surgan mang'it podsholarining zikri), «Ro'znoma» (Kundalik), Muhammad Ali ibni Muhammad Sayid Baljuvoni qalamiga mansub "Tarixi nofei" (Foydali tarix) nomli asari topilganini aytib o'tdik. "Tarixi nofei" Buxoro amirligi tarixiga oid muhim manba bo'lib, unda mang'itlar sulolasi davrida Buxoro mamlakatining boshqaruv tartibi, ma'muriy tizimi, ichki nizomi, amal va mansablarning joriy etilishi va boshqa masalalar keng yoritilgan.

Mavzuning manbashunosligiga e'tibor qaratsak, "Tarixi Abulfayzxon" asarini Ubaydallaxon va Abulfayzxon (1711-1747 yy.) saroyida xizmat qilgan munajjim, shoir va tarixchi olim Abdurahmon Davlat yozgan. Muallif ko'proq Abdurahmon Tole nomi bilan mashhur. Mazkur asar hajm jihatdan kichik, 161 varaq bo'lib, "Ubaydullanoma"ning davomi hisoblanadi va Buxoro xonligining 1711-1723 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, XVIII asrning birinchi choragida Buxoro xonligining iqtisodiy va siyosiy ahvoli zaiflashadi, ulus boshliqlarining, ya'ni mahalliy hukmdorlarning mustaqillik uchun olib borgan harakati kuchaydi, ularning ayrimlari, masalan, Balx va Samarqand markaziy hukumatga bo'ysunmay qo'ydilar, Farg'ona XVIII asr boshlarida, 1709 yili Ashtarxoniylar davlatidan ajralib chiqdi va o'lkada mustaqil Qo'qon xonligi tashkil topdi, 1722 yili Samarqand ham mustaqillik e'lon qildi va Rajabxon ismli kimsani xon qilib ko'tardilar (1722-1728 yy.), o'zaro urushlar boshlanib ketdi<sup>73</sup>.

---

<sup>73</sup> Ahmedov B. A. O'zbekiston tarixi manbalari.-Toshkent:O'qituvchi , 2001.



“Tarixi Abulfayzxon” asarida mana shu masalalar keng yoritib berildi. Bundan tashqari, asarda Buxoro xonligining ma’muriy tuzulishi, harbiy san’ati va taktikasi hamda o`zbek xalqining o`sha yillardagi etnik tarkibi haqida ham ayrim, diqqatga sazovor dalil va ma’lumotlar bor. “Tarixi Abulfayzxon”ning to`la ruscha tarjimasini, zarur izohlar bilan 1959 yili A.A.Semenov tarafidan Toshkentda nashr qilingan.

“Silsilat us-salotin” Xoji Mir Muhammad Salimning asaridir. Uning qo`lyozma nusxalari juda kamyob bo`lib, bir nusxasi Angliyaning Oksford shahridagi Bodli kutubxonasida (raqami № 269) saqlanmoqda. “Silsilat us-salotin” asarini Nosiruddin Muhammadshohning topshirig`i bilan yozgan. “Silsilat us-salotin” 1731 yilda yozilgan bo`lib, muqaddima va to`rt qismdan iborat. Muqaddimada asarning yozilishi haqida so`z boradi va muallifning 1711 yildan keyingi hayoti haqida ayrim, diqqatga sazovor ma’lumotlar keltiriladi.

“Silsilat us-salotin”ning III-IV qismlari favqulodda ahamiyatga ega bo`lib, O`rta Osiyo, xususan O`zbekistonning XVI-XVIII asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon qiladi. Asarda Buxoro xonligining Eron, Hindiston va Koshg`ar bilan bo`lgan aloqalari, Buxoro xonligida hokimiyatning SHayboniylardan Ashtarxoniylar qo`liga o`tishining aniq tafsiloti, XVIII asrda Balx va Badaxshon, shuningdek, O`zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, harbiy siyosati va madaniy hayoti, SHohjohonning Balx va Buxoro xonligi ichki ishlariga qurolli aralashuvi va Boburiylar qo`shinining Balx va unga tobe bo`lgan yerlarni bosib olishi davomida qo`llanilgan harbiy san’at turlari, Xorazmning XVI-XVII asrlardagi siyosiy ahvoli xususida boshqa manbalarda uchramaydigan qimmatli dalil va ma’lumotlar keltiriladi. Asarda ulus tizimi, O`zbekiston shaharlari, ularning aholisi va turmush tarzi haqida keltirilgan ma’lumotlar ham alohida qimmatga egadir.

Xoji Mir Muhammad Salim Buxoro xonlari, Abdullaxon II, Abdulmo`minxon, Dinmuhammadxon, Imomqulixon, Abdulazizxon, Subhonqulixonning Hindiston, Eron va Turkiya hukmdorlari bilan yozishmalarining 20 nafar maktubi nusxalarini ham keltirgan. Bu maktublar,

shubhasiz, Buxoro xonligi bilan mazkur mamlakatlar o`rtasidagi munosabatlar tarixini o`rganishda ahamiyatlidir.

“Tuhfat ul-xoniy” (“Xonning tuhfası”) yoki “Tarix Rahimxoniy” (“Muhammad Rahimxon tarixi”) nomli asar Buxoro xonligining 1722-1782 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o`z ichiga oladi. Uni tarixchi olim Muhammad Vafoyi Karminagiy (1685-1769 yy.) yaratgan. Tarixchining to`la nomi Mulla Muhammad Vafo ibn Muhammad Zohir Karminagiy bo`lib, Buxoroning o`qimishli va taniqli kishilaridan biridir. Karminagiy nisbasiga qaraganda, asli Buxoroning Karmana tumanidan bo`lgan. “Ubaydullanoma” kitobining muallifi Mir Muhammad Amin Buxoriyning guvohlik berishicha, Muhammad Vafoyi Karminagiy Ashtarxoniylardan Ubaydullaxon saroyida kitobdor bo`lib xizmat qilgan. Mulla Muhammad Vafo Karminagiy “qozi Vafo” nomi bilan ham mashhurdir. U qozilik lavozimiga yangi sulola-Mang`itlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahimxon (1753-1759 yy.) zamonida erishgan.

Muhammad Vafo Karminagiy 1769 yili “Tuhfat ul-xoniy” nomli asarida faqat 1722-1768 yil voqealarini o`z ichiga olgan qisminigina yozib ulgurgan, xalos. Uning davomini, ya`ni 1768-1782 yillar voqealarini bayon etuvchi qismini nasaflik domla Olimbek ibn Niyozqulibek yozgan. Asar mang`it hukmdorlarining uluslar va qabilalarni bo`ysundirish maqsadida olib borgan tinimsiz urushlari va uning asosiy sabablarini aniqlashga yordam beradi. Asarda yana o`zbek qavmlari, ulug`lari va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o`rni, Ashtarxoniylar va Mang`itlar hukmronligi davrida o`zbek qo`shini va mang`itlar davlatining tuzilishi, 1722-1782 yillarda Buxoro xonligining Eron, Afg`oniston, Qozoq va Qo`qon xonliklari hamda Koshg`ar bilan olib borgan siyosiy munosabatlari haqidagi ham e`tiborga molik ma`lumotlar ko`p uchraydi. “Tuhfat ul-xoniy” asarining qo`lyozma nusxalari ko`p. Masalan, faqat Sankt-Peterburg, O`zbekiston, Tojikiston kutubxonalarida undan 23 qo`lyozmasi mavjud. Asar biron tilga to`la tarjima qilinmagan. Asardan kichik bir parcha, ya`ni Muhammad

Rahimxonning 1747 yili Saraxs atrofida Eron qo`shinlari bilan to`qnashuvi va jang olib borish uslubi rus tilida 1938 yili e`lon qilingan.<sup>74</sup>

“Tarixi Amir Haydar” XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida o`tgan buxorolik olimlar asaridir. Kitobning noma`lum muharrir tomonidan qisqartirilgan nusxasi yetib kelgan bo`lib, qo`lyozma O`zRFA SHarqshunoslik institutida 1836 raqami ostida saqlanmoqda. “Tarixi Amir Haydar” kichik hajmdagi asar, jami 96 varaqdan iborat, muhim tarixiy manbalar asosida yozilgan, Buxoro xonligining Ashtarxoniylar, shuningdek, asosan, Mang`itlar sulolasidan bo`lgan amir Haydar hukmronligi (1800-1826 yy.) davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o`z ichiga oladi. Asar 81 bob yoki dostonidan iborat. 7-81- boblarida Buxoro amirligi amirzoda Haydarning tug`ilishidan to uning 1826 yil 6 oktyabridagi vafotigacha bo`lgan tarixi hikoya qilinadi. Kitob 50- yillarda A.A.Semenov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan.

“Fathnomayi sultoniyy” (“Sulton fathnomasi”) asari muallifi Mir Olim Buxoriy bo`lib, kitobini Amir Nasrullo davri (1826- 27 – 1869-79 yy.)da Huzor hokimi bo`lgan Muhammad Olimbekning xizmatida bo`lgan va uning topshirig`i bilan yozgan. “Fathnomayi sultoniyy” amir SHohmurod (1785-86-1800 yy.) davridan to Nasrullo hukmronligining dastlabki yillarigacha Buxoro amirligida bo`lib o`tgan voqealarni o`z ichiga oladi, lekin SHohmurod va amir Haydar davrlari qisqacha Nasrullo davri esa batafsil yoritilgan. Mazkur qo`lyozma asarning birinchi jildi bo`lib, ikkinchisi bizga ma`lum bo`lmagan sabablarga ko`ra yozilmay qolgan.<sup>75</sup> “Fathnomayi sultoniyy”ning birinchi qismi marhum O.D.CHexovich tarafidan rus tiliga tarjima qilingan. Tarjima qo`lyozmasi O`zRFA SHarqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanmoqda.<sup>76</sup>

”Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif az amir Doniyol to asri amir Abdulahad” (“Buxoroyi sharif amirlarining tarjimai ahvoli. Amir Doniyoldan to amir Abdulahadgacha”) asarining muallifi Ahmad Donish yoki Ahmad Kalla nomi bilan mashhur bo`lgan, XIX asrda ko`zga ko`ringan mutafkkir shoir, adib,

<sup>74</sup>Рукописная книга в культурах народов Востока. Книга первая.-Москва: Наука, 1987.-С. 330-406.

<sup>75</sup>ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, инв. № 1838, вв.76-556

<sup>76</sup>Мадраимов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. Тошкент. 2008.- Б. 125

olim va diplomatdir. Ahmad Donish sermahsul ijodkor bo`lib, ilohiyot, ilmi nujum, geografiya, adabiyot va tarixga oid 20 ga yaqin asar yozib qoldirdi. “Manozir ul-kavokib” (“Sayyoralarning manzaralari”), “Navodir ul-vaqoe” va “Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif” (1885 yildan keyin yozilgan) asarlari ana shular jumlasidandir. O`zbekistonning XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini o`rganishda olimning so`nggi asari katta ilmiy ahamiyatga ega. Kitobda katta so`z boshi, sayyoralarning inson tagdiridagi ahamiyati, din va uning jamiyatdagi o`rni to`g`risidagi fikrlardan keyin qisqa tarzda amir Doniyol (1758-1785 yy.), SHohmurod (1785-1800 yy.), Haydar va amir Nasrullo hukmronligi yillarida bo`lib o`tgan voqealar bayon etilgan. Asarning katta va so`nggi qismi amir Muzaffarga bag`ishlangan. “Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif” asarining qo`lyozma nusxalari Toshkent, Samarqand, Buxoro kutubxonalarida mavjud. Asarning matni A.Mirzoyev tomonidan chop etilgan. 1960 yili kitobning qisqartirilgan ruscha tarjimasi Dushanbeda nashr qilingan.<sup>77</sup>

“Tarixi salotini Mang`itiya” (“Mang`it sultonlarining tarixi”) asari buxorolik mashhur tarixchi olim va shoir Mirzo Abduazim Somiy Bo`stoniy (1838-39-1914 yildan keyin) qalamiga mansubdir. Somiyning “Tuhfayi shohiy” (“Podshohning tuhfa”), “Tarixi salotini Mang`itiya” asarlari tarix ilmi uchun ahamiyatlidir. 1900-1902 yillar orasida yozilgan “Tuhfayi shohiy” va 1907 yili yozib tamomlangan “Tarixi salotini Mang`itiya” bir davr, Buxoro xonligining amir Muzaffar davridagi tarixga bag`ishlangan. Biroq ular ma`lum darajada bir-biridan farq qiladi.

“Tarixi salotini Mang`itiya” esa nisbatan xolisona yozilgan. Asarning ilmiy ahamiyati shundaki, unda Buxoro amirligining iqtisodiy va siyosiy ahvoli, shuningdek, Buxoro-Rossiya munosabatlari birmuncha keng yoritilgan. Kitobning qo`lyozma nusxalari ko`p. Uning o`zbekistonlik olimi L.M.Epifanova tomonidan qilingan ruscha tarjimasi, so`zboshi va zarur izohlari bilan birga, 1962 yili, Moskvada chop etilgan.<sup>78</sup>

---

<sup>77</sup>Ахмедов Б. А. Ўзбекистон тарихи манбалари. - Тошкент: Ўқитувчи. 2001. - Б. 45

<sup>78</sup> Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии. XVI-XVIII вв. (Писменные памятники).-Ташкент: Фан, 1985. С.56.

“Tarixi Salimiy” (“Salimiyning tarixi”) asari muallifi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi choragida oʻtgan Mirza Salimbek boʻlib, uning toʻla ismi Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahimdir. Olim 1850-51 yillari Buxoroyi sharifda badavlat va nufuzli xonadonda tavallud topgan. Mirza Salimbek bir necha yirik tarixiy asar yozib qoldirgan. «Tarixi Salimiy» shular jumlasidandir.

Tarixchilar uchun eng muhimi uning soʻnggi asari «Tarixi Salimiy»dir. N.Norqulovning fikriga qaraganda, XX asrning 20- yillarida yozilgan. Uning bosh qismi, CHingizxondan to amir Muzaffar davrigacha boʻlgan tarix umumlashtiruvchi xarakterga ega. Asarning 1860-1920 yillar voqealarini oʻz ichiga olgan katta qismi butunlay yangi boʻlib, muallifning oʻzi bu voqealarning guvohi boʻlgan. Asarda amir Muzaffar davrida Hisor, Koʻlob, Baljuvan, Qorategin va Darvozda boʻlib oʻtgan voqealar, Buxoro-Qoʻqon va Buxoro-Rossiya munosabatlari, shuningdek, Buxoro amirligining XIX asrning ikkinchi yarmidagi umumiy ahvoli va maʼmuriy tuzilishi haqida qimmatli maʼlumotlar bor.

Yuqorida keltirilgan tarixiy asarlar Buxoro amirligining siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy hamda harbiy sanʼati toʻgʻrisida asosiy manba boʻlib xizmat qiladi. Jumladan, ushbu manbalarda XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida Buxoro amirligining ichki va tashqi siyosati, oʻzaro munosabatlarda harbiy qoʻshin muhim ahamiyat kasb etgan. Bu davrga kelib amirlikdagi qoʻshin asosan nomuntazam xarakterga ega boʻlgan, ular ichki va tashqi xavfni bartaraf etishi lozim edi. XIX asr boshlarida amirlik hukmdorlari oʻz qoʻshinlarini yaxshilash, uning tarkibida muntazam qismlarni tarkib topshirish borasida koʻpgina ishlarni amalga oshirganlar.

## 1.2. Buxoro amirligida siyosiy-iqtisodiy hayot

Buxoro xonligi XVI – XX asr boshlarida O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan yirik davlat bo'lib, unda 3 ta sulola – shayboniylar (XVI asr), ashtarxoniylar (XVII – XVIII asr o'rtalari) va mang'itlar hukmronlik qilganlar. Bu sulolalar hukmronligi davrida xonlikning siyosiy nufuzi, kuch-qudrati turlicha bo'lganligi sababli ham Buxoro xonligini Shayboniylar davlati, Ashtarxoniylar davlati va Buxoro amirligi deb alohida ajratib atash hollari uchraydi.<sup>79</sup>

“Xalifa ur-Rahmon” va “Imom az-Zamon” deb ulug'langan Shayboniyxon tiriklik vaqtidayoq Movarounnahr va Xurosonni o'zbek sultonlariga suyurg'ol sifatida taqsimlab bergan edi. Shayboniyxonning o'limidan so'ng taxtga Shayboniyxonning amakisi Ko'chkinchixon (1510-1529) ko'tarildi. Bu xon ona tomondan temuriylardan bo'lib, mashhur olim, davlat arbobi Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Begimning va ko'chmanchi o'zbeklar davlatining asoschisi Abulxayrxonning o'g'li edi.

Ko'chkinchixonning o'limidan so'ng Movarounnahr taxtiga uning o'g'li Abu Saidxon o'tqazildi (1529-1533). Lekin tez orada Shayboniy sultonlar katta mavqega ega bo'lgan Ubaydullaxon oliy hokimiyatni o'z qo'liga olishga erishdi. Buxoro viloyatining hukmdori bo'lgan bu tajribali siyosatchi va g'ayratli sarkarda hukmronligi davrida (1533-1539) Movarounnahr, ayniqsa, Buxoro viloyati har tomonlama rivojlandi. Xonlikning poytaxti Samarqanddan Buxoro shahriga ko'chirildi. Shundan so'ng shayboniylar davlati rasman Buxoro xonligi deb atala boshlandi. Lekin Ubaydullaxonning o'limidan keyin o'zbek sultonlari orasidagi kelishmovchiliklar yana kuchayib, mamlakat amalda bir necha qismlarga bo'linib ketdi. Buxoroda Abdulazizxon (1540-1550), Samarqandda Abdulatifxon (1540-1551), Toshkent va Turkistonda Navro'z Ahmadxon (1540-1556) hukmronlik qila boshladi. Bu hukmdorlarning bir-birlari bilan o'zaro kurashlari mamlakatni ancha

---

<sup>79</sup> Sagdullaev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. – T.: «Akademiya», 2006.-B.111. Яна қаранг: Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. –T.: «Sharq», 2000.- B. 47., Баҳодир Э. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.-Б.340.

zaiflashishiga olib keldi. Shayboniy sultonlarning o'zaro kurashlariga barham berib, ulari yagona hokimiyat ostiga birlashtira oladigan qattiqqo'l va tajribali davlat arbobiga hayotiy ehtiyoj paydo bo'ldi. Bu ehtiyoj tarix sahnasiga Abdulla ibn Iskandarxonni olib chiqdi. Bu siyosiy tarixiy jarayon Abdulloh ibn Nasrullohiyning "Zubdat ul-osor", Xo'ja Qulibek Balxiyning "Tarixi Qipchoqxoniy", Hofiz Tanish Buxoriy (1457-1604)ning "Sharafnomayi-shoxiy" ("Shohlarni sharaflovchi asar") asarlarida aks ettirilgan.

Shayboniylar sulolasi 1601 yilgacha hokimiyatni o'z qo'llarida saqlab turdilar. Keyingi Buxoro xonligining oliy taxti ashtarxoniylar sulolasi qo'lga o'tdi. Bu sulolaning dastlabki hukmdorlari shayboniylar bilan yaqin qarindosh bo'lganlar. Ashtarxoniylar Buxoro xonligida to XVIII asr o'rtalarigacha hukmronlik qildilar. XVIII asr boshlariga kelib ashtarxoniylar davlatidagi inqirozli vaziyat yanada kuchaydi. Bu davrda xonlar yirik saroy amaldorlari va o'zbek qabilalari boshliqlariga tamomila tobe bo'lib, ular xonlarni taxtga ko'tarishlar, taxtdan mahrum etishlar, mamlakatdan quvg'in qilishlar yoki o'ldirishar edi. Subhonqulixon (1680-1702 yillar)ning o'limidan keyin taxtga o'tirgan Ubaydullaxon (1702-1711 yillar) markaziy hokimiyatni mustahkamlashga intilgan so'nggi ashtarxoniy hukmdor edi. Uning Hisor, Termiz, Shahrisabz viloyatlarining isyonkor hokimlarini bo'sundirish uchun qilgan harakatlari natijasiz tugadi. Undan so'ng taxtga Abulfayzxon (1711-1747 yillar) mamlakatda qabila boshliqlari, viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga qarshi chiqishlari yanada kuchaydi. Amaldorlar fitnasi avj oldi. Natijada, Abulfayzxon ham Ubaydullaxondek o'z shaxsiy qo'riqchilarini rus va qalmaqullaridan tuzishga majbur bo'lganligi manbalarda ta'kidlanadi.

Abulfayzxon hukmronligi davrida mang'it qabilasi boshliqlarining davlat boshqaruviga ta'siri kuchaydi. Eronda yangi sulolaga asos solgan Nodirshoh qo'shinlari 1740 yilda Qarshi, Kesh, Hisor, Samarqandni egallagandan keyin Muhammad Hakim mang'it Nodirshoh xizmatiga kirdi va o'z avlodlariga keyinchalik Buxoro taxtini egallashlari uchun imkoniyat yaratdi. 1747 yilda Nodirshoh, Mavoraunnahrga yana hujum qildi va O'tror, Toshkent, Turkistonni

egallaydi, Abulfayzxon taxtdan agʻdariladi. Rasman soʻnggi ashtarxoniylardan Abdulmoʻmin (1747-1751 yillar), Ubaydullaxon II (1751-1754 yillar) va Shergʻozi (1754-1756 yillar) Buxoro taxtida oʻtirgan boʻlsa-da, amalda hokimiyat Muhammad Rahim mangʻit qoʻliga oʻtadi. Lekin u rasman 1756 yildagina taxtga oʻtirdi va mangʻitlar sulolasi hukmronligiga asos soldi.

Buxoro davlatida XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab mangʻit sulolasining namoyandalari hukmronlik qilgan. Buxoro amirligi mangʻitlar davri tarixi turli mahalliy manbalar va ilmiy adabiyotda yoritilgan. Jumladan, Mirzo Olim Mahdum Hoji oʻzining «Tarixi Turkiston» nomli asarida mangʻitlar sulolasining namoyandalarini taxtga kelishlarini shunday bayon qiladi: «Abu-l-Fayzxon din keyin salotini chingiziya nasli munaqqit boʻlub, mangʻit toifasidin Abu-l-muzaffar Rahimxon ibn Hakimbiy ibn Xudoyor ibn Xudoyquli podshoh boʻlub, SHahrisabz, Hisori SHodmon, Koʻlob, Xoʻjand va Toshkand tasarrufidin chiqdi. Vaziri eronlik Davlat qoʻshbegi boʻlub, mamlakat tamomi qalli uqdi aning yadi tasarrufida edi<sup>80</sup>.

XVIII asr oʻrtalaridagi siyosiy vaziyat Buxoro davlati taxtiga oʻzbeklarning mangʻit urugʻi vakillarini olib chiqdi. Mangʻitlar sulolasi hukmdorlari Buxoro davlatini amir unvoni bilan boshqardilar. Mangʻitlar sulolasi asoschisi Muhammad Rahim va uning vorisi Doniyolbiy (1759-1784 yillar) Buxoro davlati hududini ancha kengaytirishga erishdilar. Markaziy hokimiyatga qarshi Gʻuzor va Shahrisabzda koʻtarilgan kuchli qoʻzgʻolonlar Doniyolbiy tomonidan bostirildi.

SHohmurod (Doniyol biyni oʻn ikkita farzandi boʻlgan) 1785 yili Buxoroda «amir (ul-moʻminin)» unvoni bilan taxtga koʻtarildi. Sadri Ziyo va Ahmad Donishlar amir SHohmurodga nisbatan oʻz xayrxohliklarini asarlarida bildirganlar.

---

<sup>80</sup>Mirzo Olim MahdumXoji.TarixiTurkistan. Soʻzboshi va izohlar muallifi Sh. Vohidov. Arab yozuvidan tabdil Sh. Vohidov va R Xoliqova. Masʼul muharrir: Z. Choriyev. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. Муфассал қаранг: Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. Тошкент, 1998., Зиёев Х. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашлар тарихи (Милоддан аввалги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). Тошкент, 2000., Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000., Баҳодир Э. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент: Янги аср авлodi, 2012.



Ular amir Doniyol davridagi inqirozdan chiqishda amir SHohmurod xizmatini yuqori baholaydilar.

Tarixda “Amir Mas’um” deb nom qoldirgan bu hukmdor (1785-1800 yillar) markaziy hokimiyatni mustahkamlab, Buxoro amirligi sarhadlarini ancha kengaytirdi. Mamlakat iqtisodi yaxshilandi.<sup>81</sup>

Mang’itlar hukmronligi davrida ham Buxoroning davlat tizimida jiddiy o’zgarishlar amalga oshirilmadi. Garchi oliy hukmdor endi “Amir” unvoni bilan mamlakatni boshqargan bo’lsa-da, Buxoro amirligi ham o’z tizimi, qonun – qoidalari, boshqaruv tartibi va butun mohiyati bilan Mavoraunnahrdagi o’rta asr musulmon davlatlari, xususan, shayboniylar va ashtarxoniylar davlat tizimidan deyarli farq qilmaydi. Davlat mutlaq qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga ega bo’lgan Amir tomonidan boshqarilar edi. Davlat hayotiga tegishli siyosiy, iqtisodiy, diniy va boshqa barcha masalarda Buxorodagi boshqa qarorgoh – Arkda hal etilardi. Arkda amir va uning oilasidan tashqari qushbegi, shig’ovul, to’pchiboshi, mirzaboshi va boshqa saroy amaldorlari, ularning oilalari, xizmatkorlari yashaganlar.

Muhim masalalarni hal qilish uchun Davlat kengashi chaqirilib turilgan. Unda 5 nafardan 20 nafargacha eng yuqori lavozimlardagi amaldorlar a’zo bo’lgan. Bu kengashda davlat siyosatiga molik masalalar ko’rib chiqilgan.

Mang’itlar davrida ham davlat boshqaruvi ikki bo’g’inli, ya’ni markaziy va mahalliy boshqaruvdan iborat bo’lib, ularning har biri musulmon davlatlariga mos bo’lgan murakkab boshqaruv tarmoqlariga ega edi. Markaziy ijroiya hokimiyat

---

<sup>81</sup> Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент: Янги аср авлоди, 2012., Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000., Сағдуллаев А., Мавлонов У. Ўзбекистонда давлат ва бошқарув тарихи. Тошкент, 2006., Воҳидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент: Янги аср авлоди, 2006., Воҳидов Ш., Чориев З. Тарихи Нофеи (тожик тилидан таржима, сузбоши ва изоҳлар муаллифи). Тошкент : Академия, 2001., Мирза Бади Диван. Мажмаъ ул – арком (Факсимиле рукопис. Введение, перевод и примечание). А.Б. Вильдановой. Москва: Наука, 1981., Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida (O’zbekistonning yangi tarixi). 1 kitob. T., 2000. Abduraximova N.A., Ergashev F.R. Turkistonda chor mustamlaka tizimi. –T.:«Akademiy», 2002.

saroy a'yonlaridan tashkil topgan edi. Mang'itlar sulolasi davrida davlat boshqaruvida qushbegi mansabini egallagan kishining mavqei juda oshib ketdi. Bu mansab egasi amalda bosh vazir hisoblanardi. Davlat boshqaruvida devonbegi, parvonachi, otaliq, dodxoh, xudoychi, mirzaboshi va boshqa saroy a'yonlarining hamda Shayxulislom, Qozi kalon kabi diniy rahbarlarning ham ahamiyati yuqori edi.

Mahalliy boshqaruv viloyat beklari qo'lida edi. Ularning ham odatdagidek, o'z boshqaruv tizimi mavjud bo'lib, mirobboshi, soliq yig'uvchi amaldorlar (tanobchi, zakotchi), qozi, rais kabi diniy mansabdorlar, qishloq oqsoqollari yordamida beklilar idora qilindi. Viloyat beklari odatda amir tomonidan tayinlanar, ko'p hollarda bu lavozimga mang'it urug'idan bo'lgan kishilar loyiq ko'rildirdi.

Mang'itlar sulolasi davrida o'tkazilgan ma'muriy islohotlar tufayli davlatning asosiy ma'muriy birligi beklilar bo'lib qoldi. Amirlik hududi nihoyatda kengaygan davrida uning tarkibida 30 ta beklilik bor edi. Ular Qarshi, G'uzor, CHiroqchi, Kitob, SHahrisabz, yakkabog', Boysun, Denov, Sherobod, Hisor, qorategin, Darvoza, Baljuvon, Shug'non, Rushon, Ko'lob, Qo'rg'ontepa, Kobadiyon, Kalaf, Kerki, Burdalik, Qalaqli, Narazm, Chorjo'y, Karmana, Ziyovuddin, Nurota, Xatirchi, Urgut va Samarqand bekliliklaridir. Ulardan tashqari Jizzax, O'ratepa, Toshkent, Turkiston va boshqa qo'shni hududlar ham amirlik tarkibiga vaqtinchalik kirgan. Poytaxt shahar Buxoro va uning atrofidagi tumanlar amir tomonidan boshqarilgan. Bekliklar o'z navbatida kichik hududiy bo'linma – amaldorliklarga bo'lingan bo'lib, ularni boshlig'i amaldor deb atalardi. Davlat ma'muriy tuzilishidagi eng quyi bo'g'ini oqsoqol tomonidan boshqariladigan qishloq jamoalari hisoblanardi.

1800 yili Buxoro taxtiga Amir Haydar o'tiradi. Amir Haydar hukmronligi davri ham ichki va tashqi kurashlar bilan o'tadi. Unga qarshi mamlakat ichida qo'zg'olonlar avj oldi. Miyonqol, Marv, Kattaqo'rg'on, SHahrisabz, Hisor hududlarida qo'zg'olonlar kuchaydi. 1804 yil Amir Haydar O'ratepaga yurish qiladi. 1806 yili Xiva xoni Eltuzar qo'shinlari Buxoroga bostirib keladi. Ammo

amir Haydar ularning hujumini bartaraf etib, g'alabaga erishadi. Amir Haydar hukmronligi davri tarixi "Tarixi amir Haydar" va "Tarixiy Shohruhiy" asarlarida amirlik tarixi to'g'risida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Qo'qon hukmdorlari 1805 yili Xo'jandni, 1809 yili Toshkentni, 1816 yili esa Turkistonni ishg'ol etib, xonlik doirasiga kiritadilar. 1806-1813 yillari O'ratepaga, 1806 yili Jizzaxga, 1821 yili Samarqandga tahdid solganlar. Xullas, amir Haydar hukmronligi ancha tahlikali bo'lib markaziy hokimiyat qudrati susaygan edi".

Amir Haydar hokimiyatining oxirrog'ida uning huzuriga kelgan rus elchilari safida Y.K.Meyendorf ham bo'lgan. U o'zining keyinchalik yozgan "Orenburgdan Buxoroga sayohat" nomli asarida amir Haydar lashkarining qurollanish darajasi haqida fikr yuritadi. Elchilik tashrifining sanoqli kunlarida xonlik harbiy kuchlari haqida bu qadar to'liq ma'lumot jamlashga ulgurish kishini hayratga solmay qolmaydi. U, mana shunday yozadi: "Sipohiyalar pilta miltiq, juda uzun nayza va eroniylarniki kabi yoysimon qilichlar bilan qurollangan. Ulardan ayrimlari kalta jibalar kiyishadi, temir dubulg'a va ho'kiz terisidan qilingan qalqon taqishadi. Artilleriya esa yigirmata Eron zambaraklaridan iborat bo'lib, uchta yoki to'rttasi temir qoziqlari bo'lmagan lafetlar bilan jihozlangan, xolos. Lafetlar, garchi uchta g'ildirakka o'rnatilgan bo'lsada, shunga qaramay, ular katta qiyinchilik bilan harakatga keltiriladi"<sup>82</sup>.

1826-1860 yillarda amir Nasrullo Buxoroda xukmronlik qildi. Nasrulloxon davrida Buxoroning harbiy qudrati ancha oshdi. SHahrisabz va Hisor beklilari bo'ysundirildi, Qo'qon xonligiga tegishli katta hududlar bosib olindi. Tarixchi Ahmad Donish amir Nasrullo haqida shunday yozadi: "U vazmin, qo'rqmas, qattiqqo'l va zukko hukmdor edi. El va ulusda fitna chiqarishda nom chiqargan yo ilgarigi amirlarga nisbatan ko'rnamaklik qilganning barchasini jazoladi, o'z tarafdorlarini siyladi"<sup>83</sup>.

---

<sup>82</sup> Содиков Х., Жўраев Н. Ўзбекистон тарихи. Тошкент: Шарқ, 2011. –Б. 124. Яна муфассал қаринг: Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М., 1875, стр.140.,

<sup>83</sup> Аҳмад Дониш. Рисолаи ё мухтасари аз тарихи салтанати хонадони мангития. Душанбе, 1960. – Б. 67.

Buxoro mamlakatining siyosiy, ijtimoiy va xo`jalik hayotida murakkab jarayonlar bo`lib o`tdi. XIX asrning o`rtalariga kelib Buxoro amirligida markaziy hukumat kuchayib, uning hududlarida amirning hukumati joriy qilindi. Markaziy amir hukumatiga qarshi va bo`ysunmaydigan mulklar va ularning beku hukmdorlariga qattiq zarba berildi. Ikkinchidan, kuchayib borgan amirlik qo`shni davlatlar – Xiva va Qo`qon hududlariga bostirib kirib, ularning ichki ishlariga faol daxolat qila boshladi. Natijada, uch xonlik o`rtasidagi nizo va urushlar bu davlatlarning har birini zaiflashtirdi. Uchinchidan, bu tarixiy davrda Rossiyaning boshini boshlandi va bosib olingach talon-taroj ishlari amalga oshirildi.

O`zbek xonlari, jumladan, Buxoro hukumdorlari ham qo`shin va qurol-yarog` bobida tamomila xotirjamlikka berilgan edi deyish to`g`ri bo`lmaydi. Rossiya bosqini xavfi sezila boshlaganda, hatto Xiva xoni Olloqulixon amir Nasrulloğa bu yo`lda ittifoqlashish taklifini ham oraga solgan edi. Amir Nasrullo harbiy sohada ma`lum islohotlarga qo`l uradi-da, ora yo`lda qolib ketadi. Buning ma`nosi shulki, u o`zining 34 yillik saltanati davomida xonlikdagi ichki nizolardan qutila olmadi”.<sup>84</sup>

Amir Muzaffar hukmronligi davrida (1880-1885 yillar) amirlikning katta qismi, Zarafshon vohasi ruslar tomonidan zabt etildi va Buxoro Rossiyaga tobe davlatga aylandi. Muzaffar otasining davrida Karmanaga voliy bo`lgan. Uning Abdumalik ismli o`g`li Qarshiga noib bo`lgan, ammo u otasiga muxolifatda bo`lganligi uchun mamlakatdan badarg`a qilinadi.

Buxoro amiri Muzaffar (1860-1884) Rossiyaga Samarqand yerlarini topshirdi, rus savdogarlari xonlik yerlarida savdo qilib yurushlariga rozi bo`ldi, tashqi ishlarni mustaqil olib borish huquqidan voz kechdi. Birozdan keyin, XIX asr oxirida Buxoro xonligi Rossiyaning bojxona chegaralariga qo`shildi. Uning hududida podshoh askarlarining garnizonlari joylashtirildi. Buxoro Rossiya qaramligiga o`tgandan so`ng amirlikda feodal qarama-qarshiliklar to`xtatildi, rasmiy ravishda bo`lsa-da, qullar bilan savdo qilish man etildi. Kavkaz ortida temir yo`l qurilib, ishga tushgandan so`ng amirlikning turli mintaqalari orasida yo`l

---

<sup>84</sup> Арандаренко Г.Л. Досуги в Туркестане. 1874-1889, СПб, 1889, стр.543. Н.Ж.

aloqalari ancha yaxshiladi. Buxoroni asta-sekin umumrossiya bozoriga jalb qila borish amirlikda kapitalistik munosabatlarning kirib kelishiga olib keldi. Ruslar yashaydigan joylarda Kogon, Chorjoy, Karki va boshqa shaharlarda sanoat korxonalarining tashkil etilishi katta ahamiyatga ega edi.

SHunday qilib Buxoro amirligi 1868 yilga kelib Xo`jand, O`ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo`rg`on kabi o`zining yirik aholi manzilgohlaridan va Zarfshon vohasining yuqori va o`rta oqimidagi hududlardan to`la mahrum bo`ldi. Buxoro hukmdori amir Muzaffar o`z hududining katta qismidan ajralib qolishi bilan bir qatorda chor Rossiyasiga o`ta katta miqdorda tavon to`lashga ham majbur bo`ldi.

Mana shu holatda, Buxoro amirligi XIX asrning 70-yillaridan to 1920 yilga qadar rasman o`z davlatchiligini saqlab qolgan holda tarix sahnasida faoliyat ko`rsatib turdi. Ushbu davrda Buxoro amirligida amir Muzaffar (1860-1885), amir Abdulahad (1885-1910) va amir Olimxon (1910-1920) davlat boshlig`i sifatida ish olib borgan bo`lsalarda, amalda rus hukumatining itoatkor xizmatkorlariga aylanib bo`lgan edilar.

SHu o`rinda Rossiya bosqini va uning Buxoro amirligi moddiy va madaniy hayotiga ta`siri, XX asrning boshlarida ayniqsa amirlikning tugatilishi davrida bu xolat nixoyatda kuchayganligini quyidagilar orqali ko`rishimiz mumkin: Maxsus ta`sis etilgan "Buxoro xazinasining ro`yxatga olish kamissiyasi" tomonidan 1920 yil 22 dekabrda tuzilgan amir mol- mulkini saqlash uchun qabul qilinganligi haqidagi ma`lumotnoma 1193 banddan iborat. Unda o`nlab kumush choynaklar, ko`zgular, guldonlar, qanddonlar, sut idishlari, barkashlar qadaxlar, shamdon va boshqalar qayd etilgan. Toshkentga jo`natilgan kumush idish-tovoqlarning o`zi ikki to`nnadan ortiq bo`lgan. SHuningdek, bular bilan birgalikda 400 kg ortiq mis va to`rt yashik chinni idishlarni xam olib ketganlar. Amirning xazinasini eshelonlarga ortganlar juda shoshmashosharlik bilan ish yuritganlar. Ular qo`liga nima tushsa, shuni Toshkentga jo`nataverganlar. Ro`yxatga haqiqiy o`ta qimmatli boyliklar bilan bir qatorda "misdan yasalgan pallasiz idora tarozisi", "charm karmon", "metal budilnik", "misdan yasalgan bolalar shashkasi" va boshqalar xam kirib qolgan. Toshkentga amirning juda katta miqdordagi ustboshlari xam olib

ketilgan, ya'ni 746 ta do`ppi, 1228 ta ro`mol, 1004 ta ko`ylak, 1174 ta chopon (mo`yna, movut, baxmal, beqasam va chitdan tikilgan), 129 ta kamzul, 1 ta yoqali palto, sanoqsiz shalvorlar, 6668 ta oyoq kiyimi, 596 ta ko`rpa, 436 ta dasturxon, 13 ta sholcha va boshqalar. SHular qatorida 102129 kg Buxoro va Rossiya kumush tangalari, 6637 kg kumush yombisi, 98 kg kukun va yombi tilla, 49 kg yaqin tilla buyumlar, 10036 dona Buxoro tilla tangalar, 239835 so`mlik rus oltin tangalari xam olib ketilgan. Bulardan tashqari 39 ta katta va 500 ta o`rta va kichik xajmdagi brilliantlar, ko`plab olmoslar, marvarid, marjonlar, yana 12 kg gacha boshqa qimmatbaxo toshlar xamda brilliantlar bilan bezatilgan rus va xorij davlatlarining ordenlari va boshqa ko`p miqdordagi qimmatli buyumlar xam bo`lgan. Masalan, ular quyidagi inventar raqamlari ostida mana bunday ko`rsatiladi:

1103-raqamda umumiy og`irligi 59 misqolning 22 yarim ulishi bo`lgan (1 misqol 96 ulush, 96 ulush 4,266 g)” 59 ko`zlik oltin nishona, undan 4 tasining brillianti tushib qolgan, qolganlar olmos va bitta 21 brilliantli kamar, undan brillianti tushib qolgan”;

1151-raqamda og`irligi 38 misqolning 74 ulushi bo`lgan “5 ta yirik, 5 ta o`rta va 28 ta mayda xajmdagi brilliant oltin yulduz”;

1162-raqamda og`irligi 8 misqolning 72 ulushi bo`lgan “8 ta yirik brilliant, yana mayda brilliant va olmoslar bilan bezatilgan oltin bilaguzuk”;

1168-raqamda og`irligi 43 misqolning 74 ulushi bo`lgan “brilliant va marvaridli ayollar kamari”;

1169-raqamda og`irligi 40 misqolning 27 ulushi bo`lgan “11 ta o`rta, qolganlari mayda xajmdagi brilliantli qoqoshnik” va h.k YUqoridagilardan ko`rishimiz mumkinki, Rossiya imperiyasining olib borgan talon-tarojlik siyosati natijasida misli ko`rilmagan xunrezliklar asosida katta yo`qotishlarga olib keldi. SHu sababli maxalliy axoli tomonidan yaratilgan nixoyatda nodir moddiy xunarmandchilik ashyolarining ko`pchiligi chekka o`lkalarga chiqishiga sabab bo`lgan.

Buxoro shahrida XX asrning boshlarida 80 ga yaqin Madrasa, 296 masjid, 18 ta Jomi masjidi, 80 ta qabriston va mozor, 13 kutubxona, 96 ta qiroatxona, 200

ga yaqin maktab mavjud bo`lib, ularda mudarrislar va ulamo xizmat qilardi. Yuqorida aytganimizdek Qozi Burhonuddin, amirzoda Muhammad Sodiq Hashmat, Qozikalon Sadri Ziyoning shaxsiy kutubxonalarida yuzlab qimmatbaho kitoblar saqlanar edi.

Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro xonligi zabt etilgach, talon-taroj nixoyat darajada ortdi. Buxoro xonligidan madaniy yodgorliklar, yetuk san'at namunalari talon-taroj qilinibgina qolmay, balki xalqning asrlar osha asrab, saqlab kelayotgan xonning katta kutubxonasidagi xalq mulki hisoblangan nodir tarixiy, badiiy, axloqiy, ilmiy asarlari Rossiyaga olib ketildi.

### **1.3. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakachilik sulxini imzolanishi. Harbiy xarakatlar va harbiy ish tarixidan.**

Chor Rossiyasining O`rta Osiyoga bosqini Buxoro amirligining o`z vassaliga aylantirishi, urushlar aynan amir Muzaffar davrida bo`lib o`tgan. 1865 yil Toshkent bosib olingandan so`ng, toshkentliklar Buxoro amiridan yordam so`rashadi. Shu paytning o`zida general Chernyaev ham Buxoro amiri nomiga xat jo`natib, uni Qo`qon xonligining shimoliy hududlarini bosib olishga da`vat etadi. Kerak bo`lsa rus qo`shinlari yaqindan yordam berishlari mumkinligi ham bildiriladi. Ammo ushbu xat Buxoro qo`liga yetib bormaydi.

Buxoro amiri ozgina vaqt o`tgach, Qo`qonni egallaydi va u yerga Xudoyorxonni o`zining vakili qilib qo`yib, o`zi Buxoroga qaytadi.

1865 yil Turkiston viloyatiga Orenburg general – gubernatori Krijanovskiylar tashrif buyuradi. U Sirdaryoda Buxoro amirining elchilari bilan uchrashadi. Buxorolik elchilar Buxoro amiri nomidan muzokara olib borishi uchun Sankt-Pererburgdan ruxsat so`rashadi. Krijanovskiylar tomonidan buxorolik elchilar talabi rad etiladi. Krijanovskiylar Toshkentni Qo`qon va Buxoro ta`siridan mutlaqo xalos etish choralari ko`rib, uni avval mustaqil o`lka deb e`lon qiladi. Shu vaqtda amir yo`l-yo`lakay Toshkent muammosini hal qilishi va uni o`ziga qo`shib olishi uchun rus qo`mondonligi oldiga shaharni topshirish talabini qo`yadi.

Krijanovskiylar Toshkentdan jo`nab ketgandan so`ng general Chernyaev Buxoro bilan o`zaro va savdo aloqalarini tiklash maqsadida 1865 yil 19 oktyabrda amir huzuriga ko`ra bir necha kishidan iborat bo`lgan elchilarni maxsus soqchilar himoyasida jo`natadi. Amir Muzaffar o`z elchilarini rad etilganligi sababli u ham rus elchilarini qamoqqa olib, orqaga qaytishiga ruxsat bermadi. Bunga javoban Chernyaev Buxoro amiridan darhol elchilarni qaytarishni talab qildi. Ammo rad javobi berildi. Bu Buxoro amirligiga qarshi urush ochish uchun rus bosqinchi harbiylariga bahona bo`ldi. Busiz ham urushning boshlanishi muqarrar edi.

1866 yil yanvarida Chernyaev boshliq rus qo`shinlarining Jizzaxga qilgan harbiy yurishi, ammo ob-havoning sovuq kelishi, oziq-ovqat va yem-xashak



yetishmasligi natijasida Jizzax ostonalaridan chekinishi, rus hukumati va uning qo`shinlarining Buxoro bilan bo`lgan munosabatlarini keskin darajada yomonlashuviga olib keldi.

1866 yil 27 mart kuni general Chernyaev Peterburga ketgandan keyin, uning o`rnini general-mayor Romanovskiy egalladi. Bu davrga kelib Buxoro qo`shinlari O`ratepa va Chinozning yuqorirog`ida joylashgan Irjarda to`plana boshladi. 1866 yil 2 mayda amir Muzaffar ruslarga qarshi yurmoqchi bo`lib, Sirdaryo bo`yidagi Maydayulhun mavzesiga keldi. Bu vaqtga kelib Irjar bo`yiga to`plangan Buxoro qo`shinlari soni 40 mingga yetadi.

Buxoro amirining Irjarga kelganini eshitishi bilanoq vaziyatni o`z qo`liga olishga harakat qildi va darhol hujumni boshlab yubordi. 1866 yil 8 may kuni ertalab soat 9:00 da rus qo`shinlarining Buxoro otliqlari bilan ilk to`qnashuvi sodir bo`ldi. Buxoroliklarning birinchi lageri 8 may kuni kech soat 9:00 larda rus otryadlari tomonidan egallandi. Ertasiga 9 may kuni buxoroliklarning ikkinchi lageri ham ruslar tomonidan ishg`ol etildi.

General Romanovskiy harbiy vazirlikka yuborgan «O`rta Osiyo chegarasidagi ishlarning ahvoli to`g`risida» maktubida amirning urush harakatlarini davom ettirishga tayyorlanayotganligini va Buxoro qo`shinlari chegara bo`yidagi qo`rg`onlarda to`planib turganligini xabar qildi.

Chor Rossiyasi istilochilari Buxoro xonligiga qarshi urush harakatlarini ikki harbiy mavsumda - 1866 va 1868 yillarda o`tkazdi. 1866 yilda olib borilgan istilochilik bosqinlari oqibatida xonlikning O`ratepa, Jizzax va Yangiqo`rg`on singari hududlari Rossiya tarkibiga kiritiladi. Ikkinchi harbiy mavsumda- 1868 yil qirg`inbarotida esa Samarqandning olinishi, amir qo`shinlarining Zirabuloqda uzil-kesil tor-mor etilishi sodir bo`ladi.

Chor Rossiyasi harbiy kuchlarining jang maydonlaridagi g`alabasini ta`minlashga omil, shubhasiz, ularning qurol-yarog`iga, raketa otuvchi qurilmalarga, tez harakat qiluvchi artilleriyaga, pistonli miltiqlarga ega ekanligiga bog`liq edi. Shu sababli ham, bu har zarbalarda son emas, qo`rg`oshin, porox, cho`yan va temir, ya`ni to`plar, zambaraklar hal qiluvchi o`rin tutadi. 1866 yilgi

harbiy mavsum qatnashchisi, o'rin bo'g'in zobitlaridan bo'lgan M.Zinovyevning bu jihatidan e'tirofi e'tiborni tortmay qolmaydi. Amir qo'shinlari bilan O'ratepa va Jizzaxda yuzma- yuz jang qilgan bu zobit, "Ularning (ya'ni, amir sarbozlarining-muall.)" o'qi, ayrim istisnoli hollarda bo'lmasa, deyarli qo'rg'oshin yalatilgan toshchalarga o'xshaydi. Qo'rg'oshinning qimmatligi yaxlit o'qlardan foydalanishga imkon bermaydi"<sup>85</sup>, deb qayd etadi.

Amirlik qo'shinining asosini xasabdorlar va galabotirlar tashkil etar edi. 1868 yilga qadar bu ikki qo'shin turiga olinganlar bir umir xizmatda bo'lar edi. Piyoda sarbozlar, odatda, tinch sharoitda uylarida yashar, haftada to'rt kun (chorshanba va jumadan tashqari) erta tongda eshak bilan Buxoroga kelar va uch-to'rt soatlik mashqlarda qatnashib, yana qaytib ketardi. G.A.Arandarenko, shu vazda, Buxoro "harbiy tizimida" qorovullik xizmati mavjud emas", deydi.

Amir Nasrullo davrida va undan keyin ham to'pchiboshi qo'shinining bosh qo'mondoni hisoblangan. Bu harbiy ish muvozanatida otliq qisimga nisbatan texnikaga ahamiyat berish ibtidosi bo'lganmi, har holda, aniq bir nima deyish mushkul. Erondan olib kelingan Abdusamad to'pchiboshi, muarrix Mullo Olim Mahdumning "Turkiston tarixi" kitobida aytilishicha, bilimli, zakovatli kishi bo'lgan. U, chamasi, to'p va to'pxonalarning dala sharoitidagi harakat imkoniyatini oshirishga erishadi. To'plar, ularni tortib yuruvchi otlar guruhlanadi va raqamlanadi. Ma'lumki, bungacha to'plarni ho'kizlar sudrashi taomilda bo'lib kelgan edi. Abdusamad to'pchiboshinig qismati fojiiyaviy yakun topadi, amir Nasrullo uni Shaxrisabz beklari bilan til birlashtirishda ayblab, qatl etadi.

Muarrix Mirzo Abdulazim Somiyning "Tarixi salotini mang'itiya" asarida aytilishicha, bosqinchi qo'shinlarining tobora ichkarilab kelishi amirlikni ilg'or fikrli ziyolilari orasida qattiq nafrat uyg'otadi. Buxoroda madrasa talabalari junbushga kelib, chor bosqinchilariga qarshi g'azot qilishni talab qilib chiqar boshlaydilar. Buxoro shahri raisi eshon Boqaxoja sadr amirni g'azotga otlanishga da'vat etadi. Ilojsiz qolgan amir, Abdulazim Somiy aytmoqchi, "beixtiyor

---

<sup>85</sup> Зиновьев М. Осада Ура-Тюбе и Джизака. Воспоминания об осенней экспедиции 1866 г. в Туркестанской области. Военный сборник, 1868, № 3-4, стр. 331

bosqinchilarga qarshi yurishga qaror qildi. Muqaddas g'azot uchun payshanba kuni beaded qo'shin va behisob xayrixohlar bilan uzangiga oyoq qo'ydi va Buxoroyi sharifdan jo'nab ketdi".<sup>86</sup>

Amir Muzaffarning rus qo'shinlarining yo'lini to'sish uchun 30 ming kishilik lashkarni Olloyor devonbegi qo'mondonligida jangovar marrani egallashga buyurdi. Amir o'z ixtiyoridagi lashkari bilan aprel oyining oxirrlarida yo'lga chiqadi va O'ratepa yaqinidagi Ragun qishlog'ida to'xtaydi va amir Olloyor devonbegining husni-jamolida tengi yo'q qizini o'z huzuriga keltirishni buyuradi.

Erjarda osonlikcha qozonilgan g'alaba Ramonovskiyni ruxlantiradi va chor qo'shinlari 17-mayda Xo'jand ostonalarida paydo bo'ladi. Xo'jand xalqining qahramonona kurashini Avaz Muhammad Attor Ho'qandi shunday tasvirlaydi: "Xo'jandliklar g'ayrat kamarini bellariga bog'lab ularni (rus askarlarini) orqaga qaytardilar... Shu payt xiyonatkorlar darvozani ochib berdilar. Shuning uchun Xo'jand qal'asini chor bosqinchilariga olish oson tushdi. Madrasalar va saroylar talon-taroj qilinish, ko'p odamlar qatl etildilar. Ikki tomon ham tinchib, qiyomat asar mo'jorolar to'xtagandan so'ng, har bir toifa o'z o'liklarini topib, ularni sanash bilan mashg'ul bo'ldilar. Musulmonlardan, 2600 kishi, erkagu ayol, kabiru sag'rdan shaxodat darajasiga yetib ekanlar; kuffordan esa 1200 kishi do'zax va jahannam dargohiga ketgan ekan. Shunday fojiya ila Xo'jand fuqorolari zulm-sitamiga girifdor bo'ldilar".

Bosqinchilar 2-oktabr kuni O'ratepa ostonasiga yaqinlashdilar. O'z eli, yurti, ozodligi uchun yonib kurashayotgan va shu yo'lga aziz jonini tikkan mardlar qatoriga keksa-yu yosh, va hatto, ayollar ham qo'shildi. Guvohlarning so'zlariga qaraganda, jangda O'ratepaning 30 ming himoyachisidan yarmi halok bo'ladi. O'ratepadagi janglar Avaz Muhammad Attor asarida batafsil bayon etilgan: "Abdulg'afforbek O'ratepa viloyatining hokimi edi. U bir qancha jasur va mard odamlarni yo'l qo'riqlashga yuborgan ekan. Yo'lda ikki guruh dushman bilan to'qnashdilar. Musulmonlar katta kuch bilan dushmanga shunday hamla qildilarki, tobu toqat va sabru sabot qolmadi va kelgan yo'llariga qaytib, ming nayrang ila

---

<sup>86</sup> Mirzo Abdulazim Somiy. Tarixi salotini Mang'itiya. M., IVL, 1962, 61-bet

qochib ketdilar. Har bir mavze va qarorgoh uchun betinim jang qila-qila Maxovzor mavzeyiga yaqinlashdilar”. Bu jangda yurt himoyachilari dastlab dushmanni mag’lubiyatga uchratganlar. Rus manbalarida O’ratepadagi ularning mag’lubiyati haqida hech nima deyilmay, ko’proq Rossiya soldatlarining “jasorati”ga e’tibor beriladi.<sup>87</sup>

Istilochilar endi o’z oldiga Jizzaxni zabt etishni maqsad qilib qo’yadilar. Avvalgi mag’lubiyat alamini unutmagan bosqinchilar 11 oktabrda uni qurshov ostiga oladilar. Mudofachilar ruslarning birinchi hujumini muvafaqqiyatli qaytarishadi. Qamalning ikkinchi kunidagi to’qnashuv ham g’oyat dahshatli va beayov bo’lganligi haqida muarrix Mirzo Abdulazim Somiy yozib qoldirgan.

Jizzaxdagi janglarda Iskandarbek boshchiligidagi afg’on harbiylari o’zlarini ko’rsatishdi. Ular to’p otishda mohirliklari bilan mudofachilarga dalda berishdi. Chor Rossiyasi askarlari dastavval shaharga boradigan suvni berkitib, Samarqand va O’ratepa darvozalardan hujum qilishga kirishdilar. 15 oktabr kuni kechqurun kapitan Mixaylovskiy 4 piyoda rota, 6 to’p va 2 mortira bilan Samarqand darvozasi ostonasidan joy oladi. Polkovnik Vornsov-Dashqov qo’mondonligidagi 2 rota, 200 kazak va 4 to’p shaharning janubiy-g’arbiy burchagiga o’rnatildi. Shahar qal’asiga hujumda Mixaylovskiy, Grigorev, Vornsov-Dashkov va Pistolcars boshchiligidagi qisimlar qatnashgan. Chor qo’shinlari hech qayerda bunday qattiq mudofaga duch kelishmagan edi. Ularni Jizzaxda bir voqea hayrat va dahshatga slogan. Vatanparvarlardan bir qismi dushmanga asir tushishdan o’limni afzal ko’rib, o’zlarini portlatib yuborishadi. Rus tarixchilaridan biri ana shunday fidokorlik haqida hayratlanarlik bir ma’lumot keltiradi: “Shahar himoyachilarining qahramonligi va qattiq qarshilik ko’rsatishgas tan berish lozim. Hatto qal’adagi bir qisim kishilar urushni davom ettirishga iloj qolmaganidan keyin porox omboriga kirishib o’zlarini portlatib yubordilar. Bunday qilish uchun yuksak ma’naviyat, katta jasorat va matonat kerak bo’lgan ”.

---

<sup>87</sup> Sodiqov H., Shamsutdshov R., Ravshanov P. Jasorat va xiyonat. O’zbekiston adabiyoti va san’ati, 1998-yil, 27-fevral

Jizzaxda turli-tuman boyliklar shu darajada ko'p va bebaho bo'lganki, bunaqasini ruslar hali ko'rmagan edi. Ularning orasida har xil qimmatli kitim-kechaklar, tilla va kumush bilan sayqallangan yarog'-aslaha, egar-jabduqlar va boshqa buyumlar ko'p edi. Kishini hayratga soladigan turkman otlarini ko'rish mumkin edi. Turk, kavkaz va rus qilichlari bor edi. Juda ko'p otlar qo'lga kiritilgan. Hatto bir saldat ming tilla tangasi bor xaltacha "topib olganligi" haqida ovazalar tarqalgan.

Rossiya hukumati yangidan bosib olingan yerlarni boshqarish va bu harakatni yana davom ettirishni muvofiqlashtirish uchun 1867 yilning 11 iyulida Turkiston general-gubernatorligini ta'sis etdi va uning rahbarligiga podshoh Aleksandr II bilan yaqin aloqada bo'lgan general K.P. Fon Kaufman tayinlandi. Turkiston xalqi istehzo bilan "yarim podshoh" deb atagan K.P. Kaufman mustaqil ravishda urush e'lon qilish, sulh tuzish va boshqa ko'plab vakolatlarga ega bo'ladi.

1867 yil 14 iyul Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgandan so'ng, uning general-gubernatori Fon-Kaufman o'ziga berilgan katta vakolatdan foydalanib Buxoroga qarshi urush harakatlarini keng-ko'lamda yana boshlab yubordi.

1868 yil 1 may kuni Fon Kaufman Zarafshon vohasiga etib keldi va Buxoro qo'shinlari bilan to'qnashuvga etib keldi va Buxoro qo'shinlari bilan to'qnashdi. Huddi shu kuni 8300 kishilik rus qo'shini (16 to'p bilan) Samarqand shahri ostonasidan Cho'ponota tepaligida amir qo'shinini mag'lubiyatga uchratdi va 2 mayda Samarqandga kirib keldi.

Zamonaviy harbiy qirol-aslaha jihatidan ruslarga barobar kelolmagan Buxoro amiri fon Kaufmanga elchi jo'natib, sulh shartnomasi tuzishni taklif qiladi. Ammo K.P. Kaufman Buxoro amiri oldiga juda og'ir shartlar qo'ygach, bu shartnoma imzolanmadi. Shundan keyin amir Muzaffar oxirgi umid bilan Turkiya hukumatiga, Afg'oniston va turkmanlarga elchilar yuborib, shoshilinch yordam ko'rsatishni so'radi.

1868 yil 11 may kuni polkovnik Abramov boshchiligidagi 6 ta rota piyodalar, 2 ta yuzlik kazaklar, otlarga biriktirilgan 4 ta to'p raketa moslamalariga

ega bo'lgan rus qo'shini Urgut shahrini egallash uchun yo'lga chiqdi. Polkovnik Abramov tinch yo'l bilan urgutliklar shaharni topshirmasligiga ko'zi etgach o'z qo'shinini hujum boshlashga da'vat etdi. Ayovsiz janglardan so'ng Abramov Urgutni egallab arkni egallashga muvaffaq bo'ldi. 1868 yil 18 may kuni Sirdaryo viloyati qo'shinlari qo'mondoni general - mayor Golovachev rus ko'shini bilan Kattaqo'rg'on shahriga kirib arkni egallaydi.

Kattaqo'rg'on uchun bo'lib o'tgan jangdan so'ng mag'lubiyatga uchragan Buxoro qo'shinlari asta – sekin chekinib Zirabuloq tepaligi yonida to'plana boshlaydi. Shunday qilib amir Muzaffar o'zining asosiy kuchlarini Zirabuloqda to'plab, zarba berishni rejalashtirdi. Bu yrda amir 15 ming otliq, 6 ming piyoda 14 ta to'plarini yig'di. Jangni g'alaba bilan tugallagan sarbozlariga muhorabadan so'ng 125 ming tilla pulini bo'lib brishni va'da qildi. Ammo og'ir jangda amir qo'shini mag'lubiyatga uchradi.

Urush taqdirini Zirabuloq jangi hal qiladi. Bu urushda ham bosqinchilar xiyonat tufayli g'alaba qozonadilar. Tarixchi Mirza Salimbekning yozishicha millati rus bo'lib, asirlikda islom dinini qabul qilgan va amir qo'shinida oliy martabaga erishgan Usmon to'qsoba hal qiluvchi daqiqada xiyonat qiladi. Ular yengilay deganda Usmon to'qsoba chekinish karnayini chalib, o'z lashkarini orqaga qaytardi. Taraflarning kuchlari va qurol-yarog'lari xususidagi ma'lumotlar tahlil qilinsa, rus qo'shinini muvaffaqiyatining yana bir siri ochiladi. Buxoro qo'shinlari son jihatdan ortiq, ya'ni olti ming sarboz va 15 ming otliqdan iborat bo'lsa ham, ularning qurol-yarog'lari va harbiy anjomi ibtidoiy edi. Rossiya piyoda va otliq qo'shinlarning umumiy soni 2 mingdan oshmasa ham, ularning bari saralangan, kasbi-kori urush bo'lgan harbiylar edilar. Orenburg, Ural kazaklari, liniya batalonlari, to'pchilar brigadasi boy harbiy malakaga ega va urush ko'rgan, tajribali askarlar hamda zobitlar bo'lib, ularning ixtiyorida zamonaviy 14 to'p va 6 raketa moslamasi bo'lgan. Urush taqdirini qilich emas, harbiy texnika hal qiladi. Rossiya qo'shinlarining Zirabuloqdagi g'alabasi shu jihatdan tabiiy edi.

Amir Muzaffarxon nomidan 1868 yil 22 iyun kuni Buxoro elchilari Samarqandga general Kaufman huzuriga tashrif buyurishib, o'zlarining to'la

mag`lub ekanliklarini bildirishib, amir sulh tuzishga tayyor ekanligini ma`lum qilishdi. Kaufman Zirabuloqda g`alabaga erishgan bo`lsada, Samarqanda Abdumalik to`ra tomonidan berilgan zarbadan ancha esankirab qolgan edi. Shuning uchun ham u amirning sulh to`g`risidagi taklifini bajonidil qabul qildi.

General-gubernator K.P. Kaufman Buxoro amiriga quyidagi sulh shartlarini yuboradi:

1."A`lohazrat, Rossiya imperatori janoblari hukumatiga mansub bo`lgan yerlarga avvaldan ishg`ol etilgan, Koshg`ar, Dovon, Nurota tog`lari shimolidan tashqari, Oq podshoh tobeligiga o`tishni iltimos qilgan Samarqand shahri o`z muzofotlari bilan Rossiya tarkibiga kiradi. Janub tomondan bu o`lka Shahrizabz tog`lari bilan chegaralanib, Zarafshon vodiysi va Nurota tog`lari o`rtasidan o`tadi. Buxoro bilan bo`ladigan chegara esa, shu sulh bitimi amir janobi oliylar tomonidan taklif etilgan shartlar bilan qabul qilinib, ular o`z muhrlarini bosib qaytaraganidan so`ng aniqlanadi. Shundan so`ng, chegara g`arb tomondan Nurota tog`larning eng baland joyidan va Buxoro hududida joylashgan Nurota qal`asidan o`tadi. Shu yerdan Qizilqum sahrosi o`rtasidan o`tib, Bo`kantog` orqali Yangidaryo quyilishigacha o`tadi.

2. Hamma rus fuqoralari, qaysi dinda bo`lishlaridan qat`i nazar, Buxoroga va uning boshqa joylariga borib, savdo qilish huquqiga ega bo`ladilar. Buxoro amirining fuqoralari ham ilgorigidek, Rossiya bilan savdo qilishlariga ijozat beriladi. Amir janobi oliylari Rossiya fuqarolarini karvon va barcha mol-mulklari bilan himoya qilib, ularning o`z mulki hududida xavfsizligini nazorat qiladi.

3. Rossiya savdogarlari uchun Buxoro shaharlarida va ular xohlagan joylarda o`z mollarini saqlash uchun karvonsaroylar qurilishiga ijozat beriladi. Rossiya shaharlarida ham Buxoro savdo ahli uchun shunday huquq beriladi.

4. Savdo ishlarining to`g`ri borishi va qonuniy boj olinishini nazorat qilish uchun rus savdogarlari o`z ixtiyorlari bilan Buxoro amirligining har bir shaharida o`zlarining karvonboshilari bo`lishiga huquqlidirlar.

5. Rossiya hududidan, Buxoro yoki Buxorodan Rossiyaga olib boriladigan tovarlardan Turkiston o`lkasida olinadigan hajmda, har holda, Buxoroning aholisi

bilan bir xilda, ya'ni molning umumiy qiymatidan 2,5 foiz miqdorida boj olinadi”<sup>88</sup>.

Rossiya istilosi arafasida XIX asr o'rtalariga kelib, Buxoro qo'shinlarida to'pchilar qismi hamda sarbozlardan iborat muntazam qo'shinga aylangan edi. Qo'shin tarkibi mingliklarga (boshlig'i mingboshi), mingliklar dastalarga yoki 5 ta 200 kishilik baydoqlarga (boshlig'i dusatboshi), ular esa 100 kishilik yuzlarga (boshlig'i yuzboshi), yuzlar 2 ta ellik kishilik guruhga (boshlig'i ellikboshi yoki panjohboshi), ular esa o'z navbatida 2 ta 25 talik rasadga (boshlig'i rasadboshi), rasadlar 12-13 (ba'zan 10) kishilik 2 ta guruhga (boshlig'i daxboshi yoki o'n boshi) bo'linar edi. Eng yaxshi sarbozlardan o'nboshilar tayinlangan, ularining kiyimlarida oq tasmachalar bo'lgan. Yuzboshilar yenglari zarhal uzun kimxob kamzul kiyganlar. Har bir besh yuzlik va minglikning amir tomonidan berilgan o'z bayrog'i, ya'ni tug'i va 5 ta rangli nishonlari bo'lib, ular yuzboshilarda saqlangan. Sarbozlar quroli Buxordagi xususiy mahalliy ustaxonalarda tayyorlanib, hukumatga 4 so'mdan sotilgan. Bu qurollarning dumaloq o'qlari va pistonlari ham bbuxoroda tayyorlangan va qal'a aslahaxonasida saqlangan. Chunki o'q otish mashqlarida ulardan foydalanilmagan.

To'pchilar soni 100-250 nafar bo'lib, amirlik qo'shinida eng nufuzli kishilar hisoblangan. Biroq ularning amaldagi vazifalari o'ta og'ir bo'lgani uchun ularga boshqa turdagi harbiylarga nisbatan ko'proq maosh to'langn. To'pchilar boshlig'i - to'pchiboshi amirlikdagi eng oliy harbiy mansablardan hisoblangan. To'pchilar haftada 1 kun shahar tashqarisidagi “Paxta-parron” maydonida zarasizlantirilgan o'qlar (ichiga sochma porox o'rniga arpa qipig'i solingan) yordamida mashq o'tkazganlar.

To'pchilar 2 guruhga – qal'a va dala to'pchilariga bo'lingan. Qal'a to'pchilari amirlikdagi o'ta og'ir to'plarda qal'alarni mudofaa qilganlar, dala to'pchilari nisbatan yengil to'plarda harbiy muhobaralarda qo'shin bilan ishtirok etganlar. To'plar, zambaraklar asosan Rossiyadan va Afg'oniston orqali olib kelingan rus, ingliz va turk to'plaridan iborat bo'lgan. Rossiya istilosiga qadar

---

<sup>88</sup> Sulh shartnomasi 1868 yil 11 mayda yuborilgan. Qarang: Ziyoev Hamid. Ko'rsatilgan asar, 267-268-betlar



amirlikda to'pchilardan 90 tasi, 30 ta to'p bilan Buxoro bekligida, CHorjo'y, shahrisabz, Karki, Karmana, Baljuvon bekliliklarida 10 tadan to'pchi 2-3 ta to'p bilan saqlangan.

Amirlik qo'shininig asosiy qismi sarbozlardan iborat bo'lgan. Qo'shinning piyoda qismi hisoblangan sarbozlarning ma'lum qismi urush paytida jangga otda kirganlar. Ularning ilg'or qismlari beshotar miltiq bilan qurollangan. 1880 yilga mansub manbalarda amirlik qo'shini tarkibida 4000 otliq xasabodbor, 10000 otliq galabotir bo'lganligi qayd etilgan. Ular Amudaryo bo'yidagi, Qarshi cho'lidagi, Qarshi, Karmana, Ziyovutdin, Nurota istehkomlarini qo'riqlaganlar.<sup>89</sup> Qo'shinda 17 nafar musiqachi bo'lib, ularni bolobomchilar deb atashgan. Ulardan 1 nafari karnaychi, 16 tasi nog'orachi bo'lgan.

Istiloga qadar amirlik qo'shinida harbiy xizmat xalq uchun juda sharaflig bo'lib, qo'shin xazina hisobidan qurol, kiyim-bosh, patronlar bilan ta'minlangan, yangi xizmatga kelganlar 3 oy tayyorgarlik o'tgan. Qo'shin har oyda va yil oxirida kumush va tilla tangalarda maosh bilan ta'minlangan. Bundan tashqari askarlarga bug'doy ham berilgan. Qo'shin Navro'z, Qurbon hayiti kabi bayramlarda amir tomonidan Toj ordeni (oltin yulduz), 1,2,3-darajali Buxoro quyoshi ordeni, bo'yinga taqiladigan oltin va kumush medallar bilan taqdirlangan. Buxoro amiri Muzaffar (1860-1884) Rossiyaga Samarqand yerlarini topshirdi, rus savdogarlari xonlik yerlarida savdo qilib yurushlariga rozi bo'ldi, tashqi ishlarni mustaqil olib borish huquqidan voz kechdi. Birozdan keyin, XIX asr oxirida Buxoro xonligi Rossiyaning bojxona chegaralariga qo'shildi. Uning hududida podshoh askarlarining garnizonlari joylashtirildi. Buxoro amirlari, ayniqsa, Abdul Ahad (1885-1910) va Said Olimxon Rossiya hukumatiga har tomonlama yordam berib kelardilar. Shu sababli ular turli unvonlar va lavozimlar bilan taqdirlandilar, ammo bir ozdan so'ng, 1868 yilda o'z davlatlariga yangi hududlarni sharqiy Buxoro, Shahrisabz, Pomir yaqinidagi yerlarni qo'shib oldilar. Buxoro Rossiya qaramligiga o'tgandan so'ng amirlikda feodal qarama-qarshiliklar to'xtatildi, rasmiy ravishda bo'lsa-da, qullar bilan savdo qilish man etildi. Kavkaz ortida temir yo'l qurilib,

---

<sup>89</sup> Арендаренко Г. Бухарские войска в 1880 году // Военный сборник 1881. № 10. С.60.

ishga tushgandan so`ng amirlikning turli mintaqalari orasida yo`l aloqalari ancha yaxshiladi.<sup>90</sup>

Buxoroni asta-sekin umumrossiya bozoriga jalb qila borish amirlikda kapitalistik munosabatlarning kirib kelishiga olib keldi. Ruslar yashaydigan joylarda-Kogon, Chorjoy, Karki va boshqa shaharlarda sanoat korxonalarining tashkil etilishi katta ahamiyatga ega edi.

Rus moliya kapitali Buxoro ishlab chiqarishidagi muhim tarmoqlarni keng qamrab olmoqda edi. SHaharda birinchi jahon urushi yillarida yettita alohida bank (davlat bankidan tashqari) harakat qilardi. "Tashqi savdo uchun rus banki" qorako`l bilan savdo qilishni moliyalashtirib turardi. Sibir bankining bo`limi paxtaga oid operasiyalarni keng ko`lamda olib borardi, u paxtadan to`qilgan gazlamalar bilan ham shug`ullanardi. 1912 yilda Rus-Osiyo banki Buxoro temir yo`li qurilishiga ijozat oldi, 1913 yilda Buxoro hukumati o`z mijozlarining biri orqali u bankka konsessiya sifatida 10 ming tanob yer ajratdi. 1915 yilda o`sha bank mijozi orqali Buxoro hukumatidan ikkinchi konsessiya-34 ming tanob yer olindi. Bu ham bank ishtirokida tuzilgan "savdo sanoat o`rtoqligi" jamiyatiga ekspluatasiya qilish uchun topshirildi.<sup>91</sup>

1877-1888 yillarida Krasnovodskdan Samarqandgacha, 1902 yilda esa Buxorodan Kogongacha temir yo`llari qurilib, ishga tushurildi. Temir yo`l ishga tushirilishi bilan Buxoroning Rossiya bilan savdo aloqalari kuchaydi, Buxoro savdo markazi bo`lib qoldi. SHahar tibbiy, madaniy-oqartuv tashkilotlari paydo bo`ldi. 1880-1897 yillarda Buxoroda ikkita kasalxona va bitta apteka qurildi, 1910 yilda esa yangi uslubiy rus-mahaliy (tuzem) maktabi ochildi. Rus kapitalizmining rivojlana borishi sababli Buxoro tavor pul munosabatlariga qo`shila borgan. XIX asrning boshlarida rus aholisi joylashgan yerlarda 60 ta sanoat korxonalari, shu jumladan 20 ta juda kichik hajmga ega bo`lgan paxta tozalash korxonalari, to`rtta yog` zavodi, uchta bino zavodi, 10 kichik g`isht zavodlari, gugurt fabrikasi, temir yo`l ustaxonasi va boshqalar bo`lgan. 1888 yildan to 1911 yilgacha savdo

---

<sup>90</sup> Бадриддинов С. Бухоро моддий ва маънавий маданияти саҳифалари.-Бухоро, 2013. – Б.145.

<sup>91</sup> Уша асар. – Б.146.

aylanmasi 100 barobar ko`paydi. XX asr boshida Buxoroda 60 dan ortiq karvonsaroylar bor edi, ularda tovarlarni saqlash uchun ambor va ayvonlar qurilgan.<sup>92</sup>

Xulosa sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: Buxoro amirligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo`lgan harbiy lavozim, harbiy taktika, harbiy ish manbashunoslik va tarixshunoslik asosida o`rganildi. Buxoro tarixi manbalari orqali siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ko`rsatib o`tildi. Buxoro amirligi siyosiy tarixi 2 davrga bo`linishi ya'ni Rossiya bosqiniga qadar amirlikdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, shuningdek Rossiya imperiyasi bosqini amirlikni bosib olish jarayoni mustamlakachilar siyosati va uning ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri. Amirlikni bosib olinishidagi harbiy qism va harbiy qo`zg`olonlarni bostirishdagi ishi harbiy lavozim, harbiy ish va vazifalaridan kelib chiqqan holda asosli tarzda keltirildi.

---

<sup>92</sup> Бадриддинов С. Бухоро моддий ва маънавий маданияти саҳифалари.-Бухоро, 2013. – Б.145.

## **II BOB. Buxoro amirligida harbiy unvon va mansablar egalarining vazifalari. Harbiy ish va harbiy taktika.**

### **2.1. Amirlikda harbiy unvon, mansab egalari va ularning vazifalari**

Buxoro amirligida harbiy kuchlarning boshqaruvini muayyan tizimi shakllangan edi. Bu tizimning eng yuqori pog`onasida oliy hukmdor amir turgan. U qo`shinning rasman oliy ko`mondoni hisoblangan sanalsa-da, ko`p hollarda amalda qo`shinga boshchilik qilish boshqa amaldorlar orqali amalga oshirilgan. Buxoro amirligida qo`shin parvonachi tomonidan boshqarilgan bo`lib, u bosh ko`mondon mavkeiga ega bo`lgan hollarni tasdiqlovchi holatlar ham tarixiy adabiyotlarda keltirilgan.<sup>93</sup>

Xonliklarda harbiy unvonlar deyarli bir xil bo`lgan. Buxoro va Qo`qon xonligiga oid ma`lumotlar ya`ni XIX asr birinchi yarmida har ikki davlatda ham besh yuz askardan iborat bo`linmaga pansodboshi, yuz askarga – yuzboshi, ellik askarga – panjaboshi, o`nlikka – dahboshi rahbarlik qilgan.<sup>94</sup>

O`rta Osiyo xonliklarida harbiylarni taqdirlash borasida an`analariga ko`ra, janglarda alohida xizmat ko`rsatgan harbiylar, harbiy mansab va unvon egalari ma`lum miqdordagi pul, yer, mol-mulk va qimmatbaho buyumlar bilan taqdirlanganlar. Jumladan, harbiy harakatlar davrida o`zini ko`rsatgan harbiylar ularning mansabi va xizmatiga mos ravishda turli-tuman tortiqlar: zarbof, shoyi, ip matodan tikilgan to`nlar, sallalar, pichoq, kamar, qilichlar bilan mukofatlaniganlar. Yuqori mansab egalariga oltin va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kamar, pichoq va qilichlar taqdim etilgan.

Amirlikda harbiy harakatlarni rejalashtirish, harbiy kuchlarni jang maydonida to`g`ri taqsimlash ishi naqiblar zimmasiga yuklatilgan edi. O`ziga xos shtab boshlig`i sifatidagi bu shaxs XVIII asr oxirida Buxoroda bitilgan manba ma`lumotlariga ko`ra, harbiy yurishlar paytida qo`shinning tuzilishi, qurollanishi va joylashuvi, uning harakatlanishi va urush olib borishi borasida yetarli darajada

---

<sup>93</sup> Ўзбекистонда харбий иш тарихидан (Қадимги даврдан ҳозиргача). Д. Зиёва масъул муҳаррирлиги остида. Тошкент : Шарқ, 2012. – Б. 130. Яна қаранг: Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.:Наука, 1975. С. 139.

<sup>94</sup> Ўзбекистонда харбий иш тарихидан (Қадимги даврдан ҳозиргача). Д. Зиёва масъул муҳаррирлиги остида. Тошкент : Шарқ, 2012. – Б. 130. Яна қаранг: Баҳодир Э. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.- Б. 352.

bilimga ega bo`lib, u qo`shinning avangardi va arergardi, uning o`ng va so`l qanoti, markazi va pistirmalari haqida yetarlicha ma`lumotga ega bo`lgan.

Amirliklarning markaziy boshqaruv tizimida muhim o`rinni egallagan ko`pgina mansab egalari harbiy sohada ham muayyan unvonlarga ega edilar. Jumladan, XIX asrning 20-yillarida Buxoroda bo`lgan E.K. Meyendorfnig iborasi bilan aytganda, amirlikda “polk komandiri” mavqeiga ega – to`qsoba, “bir necha polklar komandiri” – dodxoh, qo`shin qo`mondoni yoki marshali mavqeiga ega parvonachi kabilar mavjud edi. Xonlikdagi bunday harbiy unvonlar va mansablar egalari umumiy nom bilan “sarkarda” deb ham atalgan.<sup>95</sup>

Amirlikda harbiylar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va ularning shikoyatlarini shu masalalar bilan shug`ullanuvchi maxsus amaldor qozi askar ko`rib chiqqan. Harbiy jinoyatlar bo`yicha fatvo tayyorlash muftiy askar zimmasida bo`lgan. Demak, amirlikdagi harbiylar va fuqarolik ishlari alohida – alohida mahkamalar tomonidan ko`rib chiqilgan.<sup>96</sup>

Qozi – askar – bu mansab egalari qo`shinda sudlov ishlari uchun mas`ul bo`lganlar. Harbiy sohada vujudga kelgan huquqiy masalalar yechimi shu shaxsning hukmi bilan belgilanar edi. Muftiy - askarlar esa harbiy sohada qozilar chiqargan hukmlarning to`g`riligini shariat asosida tekshirib chiqqanlar.<sup>97</sup>

Amir SHohmurod davrida qo`shin ikki qanotdan iborat bo`lgan. So`l qanotida mang`it, kenagas, keriot, durman, qo`ng`irot, xitoy, qipchoq, o`taji, turkman, arlot, qiyot, qirgiz, qalmoq, hofiz, o`rlon, tilod dastalari bo`lgan. CHap qanotida saroy, bahrin, jaloyir, qangli, yuz, ming, nayman, qarluq, berqut, qushchi, arron, orlon, qalmiq, fulodchi, qirq, olchin, major, chinboy, badyil, as, jibbirin, qilgiy, timoy, masjid, tatar, barlon, iloji, tangut, va shogirdpesha guruhlarini joylashgan.<sup>98</sup>

---

<sup>95</sup> Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (Қадимги даврдан ҳозиргача). Д. Зиёва масъул муҳаррирлиги остида. Тошкент : Шарқ, 2012. – Б. 130.

<sup>96</sup> Баҳодир Э. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи». Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.- Б. 352.

<sup>97</sup> Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (Қадимги даврдан ҳозиргача). Д. Зиёва масъул муҳаррирлиги остида. Тошкент : Шарқ, 2012. – Б. 131.

<sup>98</sup> Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент : Янги аср авлоди, 2006. – Б. 33.

Amir Nasrullo davrida amirlikdagi muntazam qo`shin-sarbozlar qo`shini tashkil etilgan. Eng yuqori harbiy unvonlar sarkarda, amiri lashkar, dodxoh (qo`shin boshlig`i) kabilar bo`lib, quronbegi, to`qsabo, mingboshi kabi oliy toifali harbiy amaldorlar ham faoliyat yuritgan. Bekliklar hududidagi qo`shinga beklarning o`zlari rahbarlik qilganlar. Bekning eng yaqin yordamchilari yasovulboshi boshchiligidagi yasovullar bo`lgan. Qo`shinda ponsadboshi, yuzboshi, ellikboshi, o`nboshi, miroxur kabi bo`linma boshliqlari ham bo`lgan. Mingboshi bayroq (tug`) ko`tarib yurish huquqiga ega edi.<sup>99</sup>

Buxoro amirligida harbiy unvon va ularning egalarining vazifalari o`ziga xos tartibda belgilangan. Quyida Amir Haydar (1800-1825 yy.), Amir Muzaffar (1860-1885 yy.), Amir Abdulahad (1885-1910 yy.) va Amir Olimxon (1910-1920 yy.) davridagi ayrim mansab va unvon egalarining nomlarini keltirish bilan birga ularning vazifalariga to`xtalamiz<sup>100</sup>. Amirlikning a`lam va qozilik lavozimida ishlagan kishilarning ba`zilarini ismi va otasining ismlarini keltiramiz.

Qozilar:

A`lam Domullo Avaz Muhammad turkman. A`lam Ataulloh xoja sadr-  
"Mahdumi chapnavis". Amir Haydar davrida Xoja Davlat, Madrasai SHoh madrasalarida mudarris bo`lgan. Amir G`iyosiddin Badahshiy qozi Domullo mahzum oxund, Oxund mullo Mahmud, qozi Mullo Boqi Muhammad, qozi Muhammad Aziz, qozi Tursunboy, qozi Mullo Inoyatulloh, qozi Mirzo Umid, qozi Abdurahim, qozi Mullo Odina, qozi Mullo Nuhsin, qozi Niyozberdi, qozi Abdulg`ani, Ibrohim Hayol, Yaxshibek Udaychi, Muhammadi Qushbegi Vazir, Ostanaqul qushbegi (Hisor hokimi), Abbosbiy, Muhammad SHarif Devonbegi bin Muhammadi Qushbegi, Abdurahimbek inoq lashkarboshi bin Abdusattor inoq,

---

<sup>99</sup> Баходир Э. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи». Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.- Б. 352. Яна қаранг: Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (Қадимги даврдан ҳозиргача). Д. Зиёва масъул муҳаррирлиги остида. Тошкент : Шарқ, 2012. – Б. 131. Воҳидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент : Янги аср авлоди, 2006. – Б. 33. Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000.- Б. 47.

<sup>100</sup> Ушбу маълумот Воҳидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан китобидан олинди. Профессор Ш.Воҳидов амирлик давлат бошқаруви мансаб ва унвонлар ҳамда ҳарбий иш тарихи бўйича кўпгина тадқиқотлар олиб борди ва илмий нашрларни амалга оширди. Муаллиф ўз тадқиқотида Бухоро козиқалони Муҳаммад Шарифхон – Садри Зиё асарларини таржима қилиб амирлик тарихи, унда давлат бошқаруви ва ҳарбий кучларни бошқару тизими ҳақидаги маълумотларни бериб ўтган. Садри Зиё. Зикри Салтанати подшоҳони мангитдир. Мавороуннаҳр // Кулэзма, Ўз РФА ШИ № 2241. раками остида сақланади.

Haydarqul inoq ibn Muhammad SHarif devonbegi, Mo`minbek inoq, Mirzo Salimbek inoq, Haydarqul inoq, Xudoynazar otaliq, G`ulom Haydar Devonbegi Afg`on, Muhammad Yusuf devonbegi, Tursunxo`ja Mir ibn Najmiddin xoja Mirasad, To`raxo`ja Sadr, Bahodirbek inoq, Mirzo Sayidbek Mushrif, SHukuriy inoq vazir, Rahmatcha Miroxo`r, Sulayonxo`ja o`roq, Rahmatulloh dodxoh, Xoji Abulfayzxo`ja o`roq, Mirzo Munir Munshi, Alimadad inoq lashkarboshi, Mullo Muhammad inoq lashkarboshi, Abdulkarim devonbegi, To`raqul devonbegi ibn Abdulkarim, Borotbek inoq lashkarboshi devonbegi, Abdulloxo`ja Sudur Jo`yboriy.

Buxoro amirligida vazir lavozimida<sup>101</sup> ishlagan kishilarning ismi va otasining ismlari<sup>102</sup>: Muhammad inoq Qushbegi (Samarqand hokimi), Ya`qub Qushbegi (Jizzax hokimi), Olloyorbek Devonbegi (O`ratepa hokimi), Mullo Sadriddin Xatloniy Qozikalon, Yahyoxo`ja Fayzi A`lam Oxund, Eshon Nuxsunxo`ja A`lam, Eshon Sultonxon Muftiy, Eshon Sofixo`ja Muftiy, Eshon Ixtiyorxon Muftiy, (Amir Abdulahadxon (1885-1910yy.) davridagi vazirlar) Muhammadiy Qushbegi g`ulom, Eshon Mirza Qushbegi, Ostonaqul Qushbegi Muhammad SHarif Devonbegi zakotchining o`g`li, Mirza Nasrulloh Buxoro Qushbegisi.

Amirlikning davlat ishlaridan biri qozi kalon vazifasida ishlagan kishilarga to`xtalamiz. Bular Domullo Abdushukur Sadr, Mullo Badridin sadr Mullo Sadriddin qozikalon Xatloni o`g`li, Mullo Baqoxo`ja sadr Qozixo`ja sadr mufti o`g`li.

---

<sup>101</sup> Vazir – arabcha so`z bo`lib, yordam ko`rsatuvchi, yordamchi degan ma`noni anglatadi. Birinchi bor vazir unvoni VIII asrda abbosiylar sulolasi davrida paydo bo`lgan. Shundan boshlab musulmon davlatlarining hukumatlari tarkibida oliy mansab egasi sifatida vazirlar faoliyat ko`rsatishgan. Ular podshohlar, xonlar va viloyat hokimligiga tayinlangan shahzodalarning yordamchilari hisoblangan.

<sup>102</sup> Ушбу маълумот Ш.Вохида ва А.Эркиновларнинг Фихристи китобхонаи Равнаки Шахрисабзий Кум: Нашири Китобхонаи Маръаши – Нажафий (Эрон) 1998. 3 бет (форс тилида). Шуниндек Вохидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан китобидан олинди. Профессор Ш.Вохидов амирлик давлат бошқаруви мансаб ва унвонлар ҳамда ҳарбий иш тарихи бўйича кўпгина тадқиқотлар олиб борди ва илмий нашрларни амалга оширди. Муаллиф ўз китобида ушбу маълумотларни яъни Бухоро қозикалони Муҳаммад Шарифхон – Садри Зиё асарлари асосида тайёрланганлигини билдиради. Яъни Садри Зиё. Зикри Салтанати подшоҳони мангитдир. Мавороуннахр // Кулёма, Уз РФА ШИ № 2241. раками остида сакланади.

Harbiy qismlarda harbiy kuchlarda ish olib borgan saraskarlar: Alimamad To`pchiboshi, Mullo Mahmud, Mullo Xolmurod, SHodibek Inoq, Akrom Inoq,

Abdulqodir Inoq, Abdurahimbek Inoq Abdusattorbek Inoq o`g`li. Dabirlari va munshilari: Mirzo Azim Bo`stoni Somiy, Munshi Mirzo Ismqul Xuroziy, Mirzo Abdullahad Munshi, Mirzo Safar “Abdi” taxallus, mushrif, Mirzo Muhammad Alim “Rohat” taxallusli, Mirzo Abdurahim Pishkuhiy, Mirzo Bahrom Munshiy Mirzo Safar o`g`li.

Ish yurituvchilari (ma`murlari): Abdumo`minxon Abbosiy o`g`li Hisor hokimi, uning katta akasi Ostonaqul qushbegi, Rahmonquli Devonbegi Baljuvon hokimi, Akromxon to`ra katta akasi Xuzor hokimi, Umarxon Akromto`ra o`g`li Chiroqchi hokimi, Abdulali Inoq ibn Sherali Inoq Boysun hokimi, Avliyoqul Devonbegi Kitob hokimi, To`raxo`ja Sadr Qarshi hokimi, Abdurahim Inoq Xatirchi hokimi, Mirzo Nizomuddin Urganjiy Chorjoy hokimi, Mirzo Rahmatullo Dodxoh Karmina hokimi. Iskandarbek Nurota hokimi.

Sarkardalari<sup>103</sup>: Muhammad Yusuf Devonbegi, Tursunxo`ja sadr Mir asad, Haydarquli Inoq, Haydarquli Devonbegi Afg`on,

Udaychilari: Yaxshibek Dodxoh, Ibrohim totor, Avliyoqulbek Dodxoh, Nasrulloh yor Devonbegi, Ernazarbek Dodxoh, Abdushukur Dodxoh, SHodibek Dodxoh, Omonullabek Dodxoh, To`raqulibiy Ahrorqulbek Dodxoh,

Olimlar: Eshon Ixtiyorxon Oxund, Orifxon Sadr eshon Mo`minxo`ja a`lam o`g`li, Mullo Badriddin Sadr-raisa Mullo Sadriddin qozi kalon Xatloniy, Abdulqayxoja Sadr, a`lam elchi, Domullo Abulfazl Sadr-a`lam, Balxi “Siroj”, Mullo G`iyosuddin Sadr a`lam, Inoyat maxdum Sadr Mufti, Mullo SHamsiddin Mufti Xatloniy, Abdulhakim mahdum, Oxund Mullobiy Muhammad Sadr Oxund Qarshigiy, Mullo Mi`rojiddin Sadr Oxund, Abdulhamid xoja Sadr-Rais, Mullo Sayid Qamar Mufti-askar, Abdullohxo`ja sadr Mufti-askar so`fi Xo`ja Oxund

---

<sup>103</sup> Ушбу маълумот Вохидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Китобидан олинди. Профессор Ш.Вохидов амирлик давлат бошқаруви мансаб ва унвонлар ҳамда ҳарбий иш тарихи бўйича кўпгина маълумотларни Бухоро козиқалони Муҳаммад Шарифхон – Садри Зиё асарлари асосида тайёрлаган. Яъни Садри Зиё. Зикри Салтанати подшоҳони мангитдир. Мавороуннахр // Кулёзма, УзРФА ШИ № 2241. раками остида сакланади. Ушбу тадқиқот ишини ёзишда улардан ўринли фойдаланишга ҳаракат қилинди.



o`g`li, Fayzullox xo`ja Sadr, Mufti-askar, Qozi kalon Mavlavi O`g`li, Domullo Homid Arab A`lam.

Mullo Hisomuddin Sudur Mufti, Mullo Inomuddin SHahridabziy A`lam Qarshigiy, Nasriddin xo`ja A`lam Qarshigiy, Domullo Abdulloh No`gay Mufti, Domullo Siroj No`gay Mufti, Mullo Burhonuddin Sudur Samarqandiy.<sup>104</sup>

Amir Olimxon (1910-1920 yy.) davridagi amaldorlar.

Vazirlar:

Mirzo Nasrulloh Qushbegi.

Mirzo Nizomiddinxo`ja Qushbegi Urganjiy.

Usmonbek Qushbegi.

Qozi kalonlar:

Mullo Baqoxo`ja.

Mullo Burhonuddin Badriddin qozikalon o`g`li.

Mirzo Muhamad Sharif domullo Abdushukur o`g`li.

Oxund va a`lamlar:

Mullo Riyosuddin Sadr.

Oxund-a`lam ibn domullo Orifqul Sadr-raisa Qavomuddinxo`ja Sadr-oxund.

Mullo Imomuddin Sadr –a`lam Hisoriy.

Raislar:

Mullo Uzzomuddin Mudarris ibn domullo Orifqul Sadr-raisa.

Mullo Abdullohxo`ja Mufti-askar, Sadr ibn Ismoilxo`ja qozi.

Mullo Abdusamadxo`ja Sudur-raisa ibn qozi Abdulhayxo`ja Sudur Samarqandiy.

Mufti askarlar:

Mullo Abdullohxo`ja.

Mullo Orifxo`ja Sadr ibn mullo Baqoxo`ja qozi kalon, shayx ul-islom.

Xoji domullo Iqrom(cha) Sadr mufti (qozi).

Mullo Do`st Muhammad Sudur Boysuniy.

---

<sup>104</sup> Sardor (f.-t.) O`rta Osiyo xonliklarida xon qo`shini qo`mondoni.

Mufti Mullo Qutbiddin Sudur vakil.

Mullo Ibodulloh maxdum Sudur mufti vakil.

Mullo Shavkatulloh Samarqandxo`ja O`roq Mufti vakil.

Mullo Muzaffarxo`ja O`roq mufti vakil.

Mullo Shoh Sudur mufti Badaxshiy vakil.

Mullo Islomxo`ja Sudur mufti O`ratepegi.

Mullo maxdum O`roq Ko`lobiy mufti.

Mullo Baqoxo`ja Sudur mufti.

Mullo Najmuddin maxdum O`roq mufti Ko`lobiy.

Mullo Zaynulbashar (mufti).

Qozilar:

Sa`dullaxo`ja sudur ibn Hodixo`ja Sudur Mavloniy.

Zarif maxdum Sudur ibn domullo Sayidjon a`lam Vardamzegi.

Abdulkhakim maxdum Sudur ibn Fuzayl Nosir.

Mullo Kiromiddin Sudur ibn mullo Badriddin qozi kalon.

Mullo Muhammad Amin O`roq ibn Ziyo maxdum Sudur qozi.

Mullo Abulxayir Sudur ibn mullo Abdulboqi Sudur.

Mullo Muhammad Sayid o`roq "Nazmiy".

Mullo Muhammad Umar o`roq ibn mullo Burhoniddin qozi kalon.

Mullo Usmon O`roq ibn mullo Burhoniddin qozi kalon.

Sharofiddin Sudur ibn Uzzomiddin mudarris.

Mullo Badriddin O`roq ibn mullo Imom.

Mullo Badriddin O`roq ibn mullo Imomiddin Sadr a`lam Hisoriy.

Mullo Abdurasul O`roq "Zakun" laqabli mullo Tojiddin Sudur qozi ibn mullo Abdurahmon (mufti).

Sayid Akmalxo`ja Sudur qozi turkman.

Amir Haydar (1800-1825) davrida bo`lgan a`lam va qo`zilar:

A`lam Domullo Avaz Muhammad turkman.

A`lam Atoullloh xoja sadr "Mahdumi chapnafis".

Amir Haydar davrida Xoja Davlat, Madrasai Oliy, Madrasai SHoh madrasalarida mudarris bo`lgan.

Amir G`iyosiddin Badahshiy Qozi Domullo maxzum oxund.

Oxund mullo Mahmud.

Qozi Mullo Boqi Muhammad.

Qozi Muhammad Aziz.

Qozi Tursunboy.

Qozi mullo Inoyatulloh.

Qozi Mullo Muhsin.

Qozi Niyozberdi.

Qozi Abdulg`ani.

Mullo Nimatulloh qozi ” Muhtaram” .

Mullo Narzulloh “Lutfiy”.

Domullo Ishoqbek Qozi.

Mullo Hidoyatullohxo`ja O`roq Qozi ibn mullo Amonulloho`ja qozi.

Yuqorida aytib o`tganimizdek ushbu mavzuni yoritishda asosan manbalarga tayanildi. Professor Sh.Voxidov amirlik davlat boshqaruvi mansab va unvonlar hamda harbiy ish tarixi bo`yicha ko`pgina tadqiqotlar olib bordi va ilmiy nashrlarni amalga oshirdi. Muallif tadqiqotlarida Buxoro kozikaloni Muhammad SHarifxon – Sadri Ziyo asarlari o`rganilib tarjimalar qilingan (Sadri Ziyo. Zikri Saltanati podshoxoni mang`itdir. Mavorounnahr // Qo`lyozma, Uz RFA SHI № 2241. rakami ostida saklanadi). Yana Sh.Vohidov va A.Erkinovlarning Fixristi kitobxonai Ravnaqi Shaxrisabziy (Kum: Nashri Kitobxonai Mar`ashi – Najafiy (Eron) 1998. 3 bet fors tilida), shunindek Vohidov Sh., Xolikova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan.

## 2.2. Mang`itlar sulolasi davrida davlat tuzilishi, harbiy kuchlar

### boshqaruvi va harbiy ishlar

Buxoro davlatida XIX-XX asrning boshlaridagi davlat boshqaruv tizimi ma'muriy bo'linishi, unvon, mansablar va egalarining vazifalarini tadqiq etish o'z dolzarbligini yo'qotmagan.<sup>105</sup> Asrimizning 80-yillarida Muhammad ali ibni Muhammad Sayyid Baljuvoni qalamiga mansub "Tarixi nofei" (Foydali tarix) nomli asari topilgan edi. Bu manba 1994 yil arab xatida nashr etildi.<sup>106</sup> Ushbu kitob Buxoro amirligi tarixiga oid muhim manba bo'lib, unda mang`itlar sulolasi davrida Buxoro mamlakatining boshqaruv tartibi, ma'muriy tizimi, ichki nizomi, amal va mansablarning joriy etilishi va boshqa masalalar keng yoritilgan.<sup>107</sup> Yuqorida tilga olingan manbalar asosida shu masalalarni imkon qadar yoritish mumkin deb hisobladik. 1927 yili Xoji Yusufbiy ibni Muqimboy amir Olimxonning ishonarli elchisi Parijda Millatlar Ligasi anjumani da so'zga chiqib shunday ma'lumotlarni keltirgan edi deyiladi manbashunos Sh.Vohidov tadqiqotlarida:

"...Buxoro amirligi shariat va odat vojibotlariga suyanib hukm surardi. Ulamo amirni payg`ambar xalifasi va islom shariatining homiysi deb bilardi. Amirning hayoti shariatga batomom mutobiq edi. Buxoro xonlari o`zbeklarning mang`it sulolasidan bo`lganlar. Taxtga ko`tarish paytida o`zbek odatlariga ko`ra to`shakchaga amir o`tiradi va uni sayyidlar, xo`ja va mullolar ko`tarib taxtga o`tqazadilar". Ushbu ma'lumot amirlikning boshqaru tarixi va oliy nasab egasi hukmdorning taxtga o`tkazish marosimi tarixi bo'yicha guvohlik beradi.

Buxoro mamlakati 27 viloyat (bogot)ga bo`linar edi. Eng katta viloyatlarga amirning hokimlarni tayinlardi. Bu viloyatlarga Nurota, Qorako`l, Chorjoy, Qarshi, Kelif, Shahrisabz, Yakkabog`, Kitob, Huzor, Qorategin, Boysun, Hisor, Dehnov, Qo`rg`on, Baljuvon, Kolob, Qo`badiyon, Darvoz, Rushon, Samarqand, Miyonkol,

<sup>105</sup> Мухаммал Али Балжувоний. Тарихи нофеи. ()Тожиқ тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар.муаллифи Ш.Воҳидов ва З.чориевлар. Тошкент,демия, 2001.- 94 б.

<sup>106</sup> Воҳидов Ш. "Тарихи нофеи" Бухоро амирлиги тарихига оид муҳим манба. \ \ Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1997. №№ 9-10-11.

<sup>107</sup> Ушбу китоб манбашунос профессор Ш.Воҳидовнинг саъйи ҳаракатлари туфайли кенг оммага изоҳлар ва тамалар билан тушунарли тартибда тақдим этилди.

Farob, Urmetan va Maschohlar kirar edi. Valiahdga qarashli mulk Qarshi hisoblanar edi.<sup>108</sup>

Amir Abdulahadxon davrida (1885-1910) quyidagilar viloyatlarga hokim bo'lgan: Hisorda Abdulmo'minxon Abbosiy o'g'li, Baljuvonda Rahmonqulixon devonbegi, Huzor Akromxon to'ra, Chiroqchida Umarxon Akromxon to'ra o'g'li, Boysunda Abdulvali inoq ibn Shirali inoq, Shahrisabzda Turobqul devonbegi, Kitob hokimi Avliyoqul devonbegi, Qarshida To'raxo'ja sadr, Xatirchida Abdurahmon inoq, Chorjoyda Mirzo Nizomiddan Urganjiy, Karmanada Mirzo Rahmatulloh dadxoh, Nurotada Iskandarbek.<sup>109</sup>

”Tarix-i nofei” ma’luotlariga qaraganda, alohida viloyatlarga tobe bo’lgan shahar va nohiyalar ham bo’lgan. Masalan, Mo’inobod Ko’lobga; Xovalin va Qo’ng’irot Boljuvonga; Dushanbe va Qoratog’ Hisor hokimiga, Romitan, Haydarobod, Bahovaddin, Xo’ja Bo’ston, Xo’ja Ubon, Xo’ja Orif, Vobkent va Zandana Buxoro shahriga tobe bo’lgan.<sup>110</sup>

Buxoro mamlakati 27 viloyat va 11 ta tumanlardan iborat edi. Hamma tumanlar (tumanot) Buxoro shahri atrofida joylashgan bo’lib ulardan ikkitasi SHimli Rud va Janubiy 1915 yilga kelib tuman nomini oldilar. Buxoro shahridan oqayotgan SHohrudning shimoli va sharqida joylashgan bu tumanlarning mamuriy markazi yo’q edi. Mazkur tumanlarning aholisi Buxoro sadr raisiga soliqlarini to’lardilar. Qolgan tumanlarda mamuriy va moliya hokimiyati qozikalon itoatida bo’lgan shu tumanlar qozilarning qo’lida edi.<sup>111</sup>

1916 yil ma’lumotlariga qaraganda har bir tumanda 120 dan 340 tagacha aholi manzillari bo’lgan. Buxoro amirligining viloyatlari Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo va Amudaryo sohillari va vohalarida joylashgan edi. Viloyatlar

---

<sup>108</sup> Баҳодир Э. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.- Б. 352. Яна қаранг: Воҳидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент : Янги аср авлоди, 2006. – Б. 23. Бадриддинов С. Бухоро моддий ва маънавий маданияти саҳифалари. –Бухоро, 2013.-Б. 143.

<sup>109</sup> Воҳидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент : Янги аср авлоди, 2006. – Б. 24. Муфассал қаранг: Муҳаммад Шариф ибн Абдушукур – Садри Зиё. Зикри салтанати подшоҳини манғит дар Маворауннаҳр. // қўлёзма. Ўз РФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти хазинаи № 2241, 101- варақ.

<sup>110</sup> Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеи. Тожик тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар. муаллифи Ш.Воҳидов ва З.чориевлар. Тошкент,демия, 2001.- 94 б.

<sup>111</sup> Воҳидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент : Янги аср авлоди, 2006. – Б. 25.

ma'muriy markazlari nomi bilan atalardi. Eng katta viloyatlar mamlakatning sharqida joylashgan edi. 1914-1916 yil ro'yxatlariga qaraganda Baljuvonda 1420 aholi punktlari, Hisorda-1200, Qorateginda- 700, Ko'lobda – 635 aholi yashaydigan joylar bo'lgan.

Amir SHohmurod davrida (1785-1800 yy.) amaldorlarning unvon va mansablari tartibga solindi. SHohrumod ibn Muhammad Doniyolbiy taxtga kelgach, quyidagi shaxslarga mana bu mansab va amallarni bergan.<sup>112</sup>

Doniyol otaliq-mir asad (ar.); Davlatbiy mang'it – parvonachi, xitoy qipchoqlarining sardori Xojam yorbiy Farhod otaliq o'g'li; Xudoyor kenagans-dadhoh (shu amalning ramzi bo'lgan hassa ham beriladi); Isoq Ho'ja Mahdumi A'zam, Mirzo SHahobiddin Xo'ja Ahrorriy, Mir Mahmudxo'ja Husayniy Nasrullo xo'ja shayx ul-islom (shariat kengashining a'zolari). Bulardan Nasrulloxo'ja taxtning o'ng tomonida turadigan amirlarning naqibi, Muhammad amin xo'ja esa so'l amirlarining noibligiga loyiq bo'ldi. Mir Nizomiddin xo'ja Husaynni kozi ul kuzotga hos nadim Ibodulloxo'ja, Umarxo'ja Sayid Atoi fayzi bo'ldi.

Mirzo Badiy Devon o'z asarining oxirida Buxoro amirligidagi unvon va mansablar haqida eng mufassal ma'lumot beradi. "Majma ul-arkom" 1798 yili yozilgan bo'lib, unda keltrilgan unvon, mansablar haqidagi amallar amirlikning oxirgi kunlarigacha ba'zi o'zgarishlar bilan mavjud edi deyiladi.

"Majma ul-arkom" ma'lumotiga qaraganda eng oliy mansab qozilar amali bo'lgan. Ulardan oliy darajada shayx ul-islom unvoni, keyin kozi ul-quzot, uchinchisi qozi askar va to'rtinchisi viloyat kozisi bo'lgan.

Buxoro davlatida askar amaldorlarining shaxsiy muhrlari bo'lar edi. 1997 yili SHahrisabzda yashagan qozi va xattot Fayzulla Maxdum Ravnakiyning kutubxonasi va arxividan 100 ga yaqin muhrlarning naqshini topilgan. Turli amaldorlarning bu shaxsiy muhrlari XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga tegishli bo'lib Buxoroga viloyatlarining mahalliy boshqaruvi haqida muhim ma'lumotlarni beradi. Shahrizabzda Qozi Abdulhakim sudr, qozi Mirzo Muhammad

---

<sup>112</sup> Мухаммад Шариф ибни Абдушукур Садри Зиё. Тарихи салотини усмони ва насаби эшон. // қўлёзма. ЎзФА. ШИ. № -1304, 39 - варақлар. Профессор Ш.Воҳидов тадқиқот ишидан олинди. Яна қаранг: Воҳидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент : Янги аср авлоди, 2006. – Б. 28.

Sharif sudur qozi kalon, Abdulloh xo`ja o`roq, Mulla Sadulloh sudur mufti, Mirzo Fozil sharbatdor, Sayid mullajon sadri a`lam, Xo`jabiyquli qushbegi, Amal eshon qorovulbegi, Bobojon mirzaboshi, Muhammad Yusuf miroxor, Tilab Qobil chehraog`asi, Umriqul jibachi, SHarifbiy shig`ovul, mirzo Shodibek akaboshi mahramboshi, Ochildi to`qsoba xazinachi, Mansurxo`ja mudarris o`roq, mullo Xolnazar mudarris mufti, o`roq va boshqalar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida yashagan ekanlar.<sup>113</sup>

Xonliklarda mamlakat chegaralarini qo`riqlashga katta e`tibor qaratilgan. Davlat chegaralarida ham ma`lum miqdordagi harbiylar saqlangan. Chegaralarda qo`shinnin saqlash uchun bir qancha qal`alar bunyod etilgan edi. Bu qal`alarda joylashgan qo`shining asosiy vazifasi turli savdo karvonlarining xavsizligini ta`minlash, mamlakatni tashqi kuchlar tajovuzidan asrashdan iborat edi. Tashqi kuchlar hujumiga birinchi bo`lib javob beradigan bunday qal`alar asosan yirik xalqaro karvon yo`llarida bunyod etilar edi. Bu o`rinda Qo`qon xonligida XIX asr o`rtalarida mavjud bo`lgan chegara qal`alarini misol keltirish mumkin. Ular jumlasiga Chu va Talas vodiysidagi To`ychibek-qo`rg`on, To`qmoq, Pishpek, It-kechuv, Oqsuv, Merka, Avliyoota, Choldevor, Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan Cho`loq-qo`rg`on, So`zoq, Ko`mishqo`rg`on, Oqmachit va Chirchiq vodiysidagi Bo`ka, To`ytepa va boshqalarni kiritish mumkin. XIX asr 30 yillarida Buxoro xonligidagi chegara qo`shinlari esa, Jizzax, Bola qo`rg`on, Nurota, Xo`ja Juybor, Kerki, yoychi, Chorjuy va boshqa markazlarda joylashgan qal`alarda saqlanar edi<sup>114</sup>.

Turli hajmdagi va mudofaa qobiliyati jihatidan ham turlicha bo`lgan bu qal`alarda har xil o`tochar va sovuq qurol bilan qurollangan qo`shin joylashtirilgan. Ularda turli to`plar saqlangan. O`rta Osiyo xonliklari qo`shinida muayyan intizomni saqlab turishga harakat qilingan. Lekin ko`p hollarda, ayniqsa, harbiy harakatlar avj olgan pallada qo`shin intizomini bir maromda ushlab turishga erisha

---

<sup>113</sup> Ушбу маълумот Ш.Вохидов ва А.Эркиновларнинг Фихристи китобхонаи Равнаки Шахрисабзий Кум: Нашри Китобхонаи Маръаши – Нажафий (Эрон) 1998. 3 бет (форс тилида).

<sup>114</sup> Зиёва Д. Мухаррирлиги остида нашр этилган «Ўзбекистонда харбий иш тарихидан». Тошкент: Шарк, 2012.- Б. 141. Записки о Бухарском ханстве... С.71.

olmaganlar. Harbiy yurishlarda muvaffaqiyatga erishgan qo`shin tomonidan talonchilik qilish holatlari uchrab turgan.

Hukmdorlar harbiy yurishlari davomida o`z askarlarini muayyan intizomga bo`ysundirishga majbur etgan hollari ham ko`p uchraydi. Masalan, XVI asr boshida Samarqandni zabt etgan Muhammad Shayboniyxon o`z askarlariga “o`g`irlik va talonchilik ko`chasidan” o`tmaslikni amr etgan bo`lsa<sup>115</sup>, Ashtarxoniylar sulolasiga mansub hukmdor Ubaydullaxon (1702-1711) XVIII asr boshlarida Balxga yaqin Odina masjid degan joyda harbiy harakatlarga tayyorgarlik ko`rayotgan askarlariga aholining ekinzorlaridan “bitta ham boshoqni to`kmasliklari”, agar shunday hol amalga ohsa, askar “umrining butun hosili o`lim o`rog`i” ostida qolishini bildiradi<sup>116</sup>. Keltirilgan ushbu tarixiy ma`lumotlar shundan dalolat beradiki, mamlakat ravnaqi haqida qayg`urgan ayrim hukmdorlar harbiy yurishlarning salbiy oqibatlarini anglagan holda ularning oldinni olishga harakat qilganlar.

Buxoro qo`shini “Tarix-i nofei” ma`lumotiga qaraganda yetti xil dasta yoki guruhdan iborat bo`lgan: 1. To`pchilar. 2. Otaliq. 3. Shefskiy. 4. Terskiy. 5. Arablar. 6. Turkman. 7. Yollangan askarlar. Turkman dastasi hamda yollangan askarlarning bir qismi piyoda xizmat qilardi. “Sherbachalar” dastasi ham bo`lgan ekan. Turkman polki Qogonda, Terskiy, Shefskiy va otliqlar Sitorai Maxosa kazarmalarida joylashgan edi.<sup>117</sup>

O`rta Osiyoda XVIII asrning ikkinchi yarmi XIX asr boshlarida xonliklarning ichki va tashqi siyosatida, o`zaro munosabatlarda harbiy qo`shin muhim ahamiyat kasb etgan. Avvalo shuni ta`kidlash joizki, XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib xonliklardagi qo`shin asosan nomuntazam xarakterga ega bo`lgan, ular ichki va tashqi xavfni bartaraf etishga qodir emas edi. Bu holatdan to`g`ri xulosa chiqargan ayrim hukmdorlar o`z qo`shinlarining muntazam

---

<sup>115</sup> Хафиз-и Таныш ибн Мир Мухаммад Бухари. Шараф-наме-йи шахи (Книга шахской славы) / Факсимиле рукописи Д. 88 Пер. С перс., введ., прим. И указатели М.А. Салахетдиновой. М. Наука, Ч 2. 1989. С. 76.

<sup>116</sup> Мир Мухаммад Амин-и Бухари. Убайдуллонаме/Пер. С перс.-тадж. А.А. Семенова. – Тошкент. Фан, 1957. С. 117.

<sup>117</sup> Вохидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент : Янги аср авлоди, 2006. – Б. 36.



qismlarini tashkil etishga harakat qildilar. Natijada XIX asr boshlarida O`rta Osiyo xonliklari qo`shini muntazam va nomuntazam qismlardan tashkil topgan harbiy kuchga aylangan. XIX asr boshlariga kelib, xonlik hukmdorlari o`z qo`shinlarini yaxshilash, uning tarkibida muntazam qismlarni tarkib toptirish borasida ko`p sa`y-harakatlarni amalga oshirdilar. Bunday hukmdorlar jumlasiga Buxoro hukmdori Amir Haydarni (1800-1826) kiritish mumkin. U mamlakat harbiy kuchlarini ikki qismga – muntazam qo`shin – “navkariya” va nomuntazam qo`shin – “qora cherik”ka bo`ldi. Buxoro amirining “lashkar”, “cherik”, “qo`shin” deb nomlangan harbiy kuchlarining nomuntazam qismi (“qora-cherik”) oliy hukumdorning amriga binoan harbiy harakatlar davrida tinch aholidan to`plangan. Odatda, amir jarchilari boshlangan harbiy yurishlar haqidagi xabarlarini bozorlarda e`lon qilganlar. Aynan shu yerda, shahar hayotining markazi bo`lmish bozorlarda “qora-cherik” ro`yxati osib qo`yilgan. Harbiy harakatlar davomida, shuningdek, amirlikdagi harbiy qal`alarni himoyalashda “qora-cherikdan” unumli foydalanganlar.

Xususan, mamlakat chegarasidagi qal`alarni qo`riqlashga safarbar etilgan qora-cherik a`zolari ma`lum bir vaqt davomida shu yerda ushlab turilgan. Taniqli olim V.L.Vyatkinning ko`rsatishicha, amirlikning janubiy qal`asi Sherobodni yuz kishidan iborat askarlar qo`riqlab, ular har oyda almashtirib turilar edi. Bunday turdagi qo`shin azolari turli o`zbek urug`larining vakillari bo`lib, urush paytida jasorat va mardlik namunalari ko`rsatganlar. Mamlakatda tinchlik hukmronlik surgan davrlarda esa qora cheriklar uylariga jo`natib yuborilgan. Ular uylariga qaytgach, o`zlarining asosiy mashg`ulotlari – dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo bilan shug`ullanish imkoniga ega bo`lganlar.

Amirlikda muntazam qo`shinning asosini tashkil etgan navkarlarga bir qancha imtiyozlar berilgan edi. Buxoro amirligida mansabiga muvofiq ravishda navkarlarga oziq-ovqat, pul va kiyim-bosh, otlari uchun yem-xashak berilgan. Ular boshqa xonliklarning muntazam qo`shinlari kabi turli soliq va majburiyatlardan ozod etilgan edi. O`z yeriga ega bo`lgan navkarlar amirning buyrug`i bilan bu yerlar va ularda yetishtiriladigan turli ekinlarga solinadigan soliqlardan ham ozod edilar.

XIX asr 30-yillariga oid ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro amirligida 19000 askar bo'lgan. Qo'shinga Buxoro viloyatidan 12 ming askar, Samarqanddan – 2500, Qarshidan - 2500, Maymanadan – 1000, Qorako'ldan – 1000 ta askar yetkazib berilgan. Buxoro askarlariga bu davrda bir yilda rus rubli bilan hisoblaganda 150 rubl ajratilib, u qisman bug'doy, jo'xori, pichan bilan to'langan.

Amir Haydarning muntazam qo'shin tuzish borasidagi harakatlarini Buxoro amiri Nasrullo (1827-1860) davom ettirdi. Bu hukmdarning say-harakatlari bilan piyoda askarlardan iborat sarbozlar va to'pchilarning muntazam qo'shini tuzildi. yozma manbalarda qayd etilishicha, bu tadbir 1837 yilda amalga oshirilgan edi. XIX asr o'rtalaridagi ma'lumotlarning ko'rsatishicha, dastlab muntazam qo'shin asosini, Buxoro amirligidagi asirlar tashkil etgan edi. Voqealar guvohlarining yozishicha, 1837 yildayoq, 1000 dan ortiq asirlardan 800 kishi muntazam piyoda askarlik-sarbozlikka, 250 dan ortiq kishi esa artilleriya qo'shinlari – to'pchilar safiga qabul qilingan edi.

Buxoro harbiy kuchlarining asosini tashkil etgan sarbozlar tarkibiy jihatdan bir qancha qismlardan tashkil topgan edi. XIX asr o'rtalariga oid tarixiy ma'lumotlardan ayon bo'lishicha, jami 700 kishidan iborat "sarbozlar har biri 100 talik 7 ta dastaga bo'lingan edi. O'z navbatida har bir dasta "2 ta nim dastaga, 4 ta rassadga va 8 ta baraga bo'lingan. Yuz kishidan iborat harbiy dastani yuzboshi boshqargan. Ushbu boshqaruvda yuzboshiga uning yordamchisi qorovulbegi yordam bergan. "Rassad"larni panjaboshi boshqargan. harbiy qismni boshqarishda bu mansab egasiga uning muovini – panjaboshi-xurd yordam bergan. Sarbozlarning o'ng kishidan iborat qismiga "daxboshi" boshchilik qilgan.

Buxoro amiri Nasrullo o'zi tuzgan muntazam qo'shinni bir joyda saqlashga harakat qilgan. Buxoro shahri devorining tashqarisida – O'qlon va Talipoch darvozalarining o'rtasidagi yerda har bir sarboz va to'pchining oilasi uchun uy qurib berilgan edi. Shu tariqa, Buxoro atrofida "Sarbozxona" nomi ostida mashhur bo'lgan, 800 uydan iborat harbiylarning muntazam yashash manzillari shakllangan.

O'rta Osiyoda harbiy ishni tashkil etish borasida bir qator an'analar mavjud edi. Chunonchi, harakatlanayotgan qo'shin bilan birga, aniqrog'i, ular ketidan turli

hunarmandlar, savdogarlarning yurish va o`z faoliyatlari bilan qo`shin ehtiyojlarini qondirib borish an`anasi shular jumlasidan edi. Masalan, qo`shin bilan birga yurgan novvoylar askarlar uchun non yopib berganlar, kosiblar to`zigan oyoq kiyimini ta`mirlaganlar. Taqachilar esa otlarni yangidan taqalab berganlar.

### **2.3. Mudofaa qurollari va inshootlari (Buxoro amirligi va Xiva, Qo`qon xonliklari bo`yicha qiyosiy tahlil).**

O`rta Osiyo xonliklarida bo`lgni kabi Buxoro amirligida ham mudofaa va hujum bilimida turli uslub va yo`nalishlar vujudga keldi va shu asosda qurol-aslahalar ham takomillashib harbiy mudofaa xarakteriga ega bo`lib borgan. Harbiy qurollar va ulardan foydalanish tarixiga nazar tashlasak quyidagilarga guvoh bo`lamiz.

Nayza-qadimiy qurollardan biri bo`lib, O`rta Osiyoda yashagan qabilalarda miloddan avvalgi V ming yillikdan boshlab qo`llanila boshlangan. Nayza uchi o`tkir holda, daraxt yaprog`i shaklida, dastasi yog`ochdan bo`lib, uning uzunligi 1 m bo`lgan.

Xanjar – qadimiy qurol-aslahalardan bo`lib, insoniyat bronza davridan buyon foydalanib kelgan. Dastlab bronzadan keyin esa temirdan qilingan bu qurol yaqin masofada urush harakatlarida ishlatilib, asosan piyoda va otliq askarlarda bo`lgan.

Qilich - Xorazm vohasidagi qabilalar miloddan avvalgi I ming yillik o`rtalaridan harbiy va mudofaa ishlarda ishlatganlar. Qilich va xanjarni xorasmiylar o`zi bilan birga olib yurib, qilichni so`l, xanjarni o`ng tomonga taqib yurishgan.

Qalqon – mudofaa qurollaridan biri bo`lib, miloddan avvalgi I ming yillik o`rtalaridan foydalanilgan. Bu qurol yog`och, bronza, temirdan yasalib, kichik va katta hajmda bo`lgan. Piyoda va otliq askarlarni old ko`krak qismini berkitgan. Qadimgi Xorazm aholisining mudofaa qurollari va ularning takomillashuvi haqida “Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari” kitobida keng qamrovli tahliliy ma`lumotlar keltirilgan.

O`rta Osiyo mudofaa tizimi tarixi bo`yicha keltirilgan ma`lumotlar va tahlillarga asoslangan holda shuni aytish kerakki, shaharlar rivoji natijasida miloddan avvalgi VI-IV asrlarda murakkab mudofaa tizimi ya`ni mudofaa inshootlari va harbiy bilimlar taraqqiyoti o`zining yuqori pog`onasiga ko`tarildi.

Ilk yozma manbalari qadimgi Sharq va dunyo tarixida birinchi bo`lib o`lkamizdagi elatlarning, alohida joylar, tog`lar, daryolar va ko`llarning, afsonaviy qahramonlar va podsholarning nomlarini, aholining turmushi, dini, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumi to`g`risidagi ma`lumotlarni o`z ichiga oladi. Bu manbalar to`liq bo`lmaganligi uchun qadimgi iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni o`rganishda yozma va arxeologik manbalarni bir-biriga solishtirish zarurati kelib chiqadi. Arxeologik ma`lumotlar yozma manbalarni kengaytirib, tarixiy taraqqiyotning aniq yo`nalishlarini ko`rsatadi.<sup>118</sup> Xorazmning qadimgi davr shaharlarining rejalashtirilishi So`g`d, Farg`ona, Baqtriya va Marg`iyona shaharlari qurilishida qo`llanilgan usulga o`xshaydi. Aylana va to`g`ri burchakli shakldagi burjlar Xorazm vohasidagi shaharlar tarixida eng qadimgisi hisoblanadi. Ko`zaliqir, Xiva, Baqtriyada Hayitobodtepa, Farg`ona vodiysidagi Eylatan shular jumlasidandir. Qadimgi davr shaharlari mudofaa tizimida yetakchi himoya uslublaridan biri burjlardir. Shahar mudofaa tizimida uch xil shakldagi burjlar qurilishi amalga oshirilgan, yarim aylana, to`g`ri to`rtburchak, kvadrat. Devor va burjlar shaxmat usulda qo`yilgan, to`g`ri burchakli shinaklarga ega. Qadimgi davr shaharlari mudofaa tizimida shinaklar alohida o`rin egallaydi. SHahar mudofaasida qatnashgan jangchi yo`lakning ma`lum bir belgilangan joyida turib, uch shinak orqali dushmanga zarba berish imkoniyati bo`lib, faol hujumni olib borish bilan birga, mudofaasi o`z joyga tez yetib borish imkoniyati bo`lgan.<sup>119</sup>

Miloddan avvalgi VI asr o`rtalaridan urbanizatsiya jarayoni qamrab olishi natijasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlari rivojlanishida chuqur o`zgarishlarga olib keldi, bu esa o`z navbatida shaharsozlik va davlatchilik asoslarining vujudga kelishiga asos bo`ldi.<sup>120</sup>

Shuni aholida qayd etish lozimki, O`rta Osiyo xonliklarida aholi yashaydigan manzillar atroflarini devorlar va o`z navbatida, ularning ham atroflarini suv to`ldirilgan handaqlar bilan o`rab olish an`anasi amalda keng

---

<sup>118</sup> Сағдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. Тошкент: Университет, 2004. – Б 32.

<sup>119</sup> А.Асқаров Қадимги Хоразм тарихига оид баъзи бир масалалар. Илмий тўплам. Ўзбек этнологияси: янгича қарашлар ва ёндошувлар. Тошкент, 2004. – Б 39.

<sup>120</sup> Собиров К. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари муҳофаа иншоотлари. Т.: Фан, 2009. – Б.56. Яна қаранг: Сағдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. Тошкент: Академия, 2006. – Б 39.

qo'llanilgan. Bu o'rinda so'nggi o'rta asr shaharlarini misol keltirish mumkin. Shahar devorlari ular atrofidagi handaqlar bilan birgalikda eng yaxshi himoya vositasi hisoblangan. Bunga XVIII asr muarrix Mirza Maxdixon Astrabodiyning Xiva xonligiga qarashli Hazorasp haqida yozgan quyidagi so'zlarini eslash o'rinlidir: "Bu qal'a handaqqa ega bo'lganligi va mahkam devor bilan mustahkamlanganligi uchun ... bu qal'aga hujum qilish sog'lom fikrdan uzoq ish edi"<sup>121</sup>. Muarrixning qayd etishicha, aynan shuning uchun Eron shohi Nodir shoh (1736-1747) XVIII asr 40-yillarida qal'ani ishg'ol qilishdan voz kechgan. XVIII asr muarrixining bu fikrini XIX asrga oid quyidagi ma'lumot ham tasdiqlaydi. Unga muvofiq, Hazorasp "Xivadan keyin xonlikning eng yaxshi himoyalangan shahri hisoblangan; ancha baland va qalin devorga ega" edi<sup>122</sup>.

XIX asr birinchi yarmida mustahkam himoya istehkomlariga ega shaharlardan biri O'ratepa edi. Shu davr manbalaridan birida xabar berilishicha, shahardan chorak chaqirim<sup>123</sup> narida joylashgan uncha katta bo'lmagan tog'da qal'a-minora mavjud bo'lib, u devor va xandaq bilan o'rab olingan edi. Bu qal'ani 1858 yili ikki oy qamal qilgan Qo'qon qo'shini uni qo'lga kirita olmagan. Bu qal'ada birorta ham to'p bo'lmagan, uning 200 nafardan iborat himoyachilari Buxoro amiri Nasrulloning butun boshli qo'shiniga 4 soat davomida qarshi tura olganlar. Amirning agar qal'a zabt etilmasa, lashkarboshilarning qatl etilishi haqidagi do'q-po'pisalaridan keyingina qal'ani egallashga muvaffaq bo'lganlar. Bu jangda buxoroliklar 150 nafar askarni yo'qotgan edilar. Qal'ada esa faqat ikki kishi omon qolgan edi.

Shaharlarni devorlar va handaqlar bilan o'rab olish an'anasi barcha O'rta Osiyo xonliklari uchun xos edi. Buni nafaqat Buxoro, balki Xiva va Qo'qon xonliklariga mansub ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Masalan, Buxoro xonligida Buxoro, Samarqand, Termiz kabi shaharlari bilan bir qatorda, Kattaqo'rg'on,

---

<sup>121</sup>Зиёва Д. Мухаррирлиги остида нашр этилган «Узбекистонда харбий иш тарихидан». Тошкент: Шарк, 2012.- Б. 141. Мирза Мехди-хан Астрабадский. Тарих-и Надири. Перевод извлечений под ред. А.Н. Болдырева // МИТТ. Т. II. С. 138.

<sup>122</sup>Зиёва Д. Мухаррирлиги остида нашр этилган «Узбекистонда харбий иш тарихидан». Тошкент: Шарк, 2012.- Б. 141. Очерки Хивинского ханства // Туркестанский сборник. Т. 72. – Спб. 1873. С. 5.

<sup>123</sup>Чакирим – 1,06 км.

Karmana, Yangiqo`rg`on, Miton, Kerki, Qarshi, Jizzax kabi shaharlari ham devor bilan o`rab olingan edi<sup>124</sup>.

O`rta Osiyo shaharlarida qal`alar ham mavjud bo`lib, ular turli nomlar bilan ark, o`rda, qo`rg`on, qal`a nomlari bilan atalgan. Bunday inshootlar shaharlar himoyasida muhim o`rin tutgan. Masalan. Qo`qon xonligida “O`rda” deb atalgan bunday inshootlar tinchlik davrida oliy hukmdor yoki shahar hokimi yashaydigan va turli harbiy anjomlar, qurol-aslahalar saqlanadigan joy vazifasini ham o`tagan.

Buxoro xonligi chegaralarda joylashgan shaharlarni juda mustahkam himoyalashga alohida e`tibor qaratilgan. Shunday shaharlardan biri Amudaryoning ikki qirg`og`ida joylashgan Kerki shahri edi. Buxoroning “chegara qal`asi” hisoblangan bu shahar XIX asr ma`lumotlariga ko`ra, daryoning o`ng qirg`og`ida joylashgan bo`lib, unda faqat to`rtta to`p bor edi. Shaharning asosiy qismi esa daryoning chap qirg`og`ida joylashgan bo`lib, u “uch qavat loy devor va o`n oltita cho`yan va oltita mis to`plar” bilan himoyalangan edi<sup>125</sup>.

Xiva xonligi shaharlarning ham devorlar bilan himoyalanganligini XVIII asrda Xivada bo`lgan rus tadqiqotchisi I.Muravinning yozicha, “Xivaliklar hukmronligi ostida sakkizta loydan qurilgan shahar bor; ularning devorlarining balandligi besh va olti sarjin; atrofida kanallar (xandaqlar – G.A.) qazilgan”<sup>126</sup>. Bu ma`lumotni XIX asr 20-yillariga oid materiallar ham tasdiqlaydi. Ularga ko`ra, Xiva xonliging yirik shaharlari jumlasiga Hazorasp, Xonqa, Gurlan, Xo`jaylilar ham kirgan bo`lib, o`sha yerdagi boshqa shaharlar kabi, ularning hammasi loy devor va xandaqlar bilan o`ralgan edi<sup>127</sup>.

Xonlik poytaxti – “Xiva zabt etib bo`lmaydigan qal`a” sifatida mashhur bo`lgan ikkita devorga ega edi. Shaharning asosini tashkil etgan ichki shahar – Ichanqal`ani qamrab olgan devor haqida 1753 yil Xivada bo`lgan rus savdogari Danila Rukavkin shunday ta`riflaydi: “shahar to`rtburchak shaklidagi loydan

<sup>124</sup>Зиёва Д. Мухаррирлиги остида нашр этилган Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. Тошкент: Шарк, 2012.- Б. 141. Галкин М.Н. Показания русских пленных. ... С. 64.

<sup>125</sup>Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. ... С. 191. Зиёва Д. Мухаррирлиги остида нашр этилган Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. Тошкент: Шарк, 2012.- Б. 144.

<sup>126</sup>Гладышев и Муравин... Приложения к показаниям Муравина... Журнал описаниям киргиз-кайсакам, каракалпакам, аральцам и хивинцам... Описаниемесяца ноября 1740 г. ... С. 74.

<sup>127</sup>О нынешнем состоянии некоторых областей и городов в Средней Азии // Азиатский вестник. ... Спб., 1826. ... С. 26.

qurilgan devor bilan himoyalangan; burchaklarda, shuningdek, havfli yerlarda “qorovullar uchun budkalar (minoralar) o`rnatilgan”<sup>128</sup>. XIX asr 20-yillarida esa “Xiva shahri, atrofi uchta darvozali g`isht devor bilan o`ralgan bo`lib, kengligi 10 sarjin<sup>129</sup>, chuqurligi 2 sarjin Amudaryo suvi bilan to`ldirilgan kanal (xandaq) bilan”, - deb qayd qilinadi<sup>130</sup>.

Xivaning tashqi qismi – “Dishan qal`a” devori Olloqulixonning 1842 yilda Buxoroga yurishdan bir oy oldin qurilgan edi. Bu devorning atrofi ham xandaq bilan o`ralgan bo`lib, suv to`ldirilgan edi.

Qo`qon xonligida esa ayrim shaharlarga himoya devorlari bilan o`rab olingan edi. 1735 yil Nur Muhammad Alimov degan shaxsning Toshkentga oid ma`lumotlardan shu narsa ayon bo`ladiki, “shahar to`rtburchak g`ishtin devor bilan o`ralgan” bo`lib, “shahar devori shunday kengdirki, unda ikki otliq kishi bemalol yura oladi; qorovullar hujumi qilib kelayotgan dushmani ko`rishlari bilan otda chopib, himoyaga tayyorgarlikka chaqiradilar”, - deb qayd etadi<sup>131</sup>. Shaharda 1800 yilda bo`lgan tog` muhandislari M.Pospelov va T.Burnashevlar uning devorining “balandligi 26 fut<sup>132</sup>, qalinligi tepasida 3 fut, pasta esa 6 futga etuvchi devor bilan o`ralgan; uning aylanasi 18 chaqirimga ega”, - deb ko`rsatganlar<sup>133</sup>. Xonlikning poytaxti Qo`qon dastlab devor bilan o`rab olinmagan edi. Poytaxt shahar faqat 1842 yilga kelib devor bilan o`raldi.

Mamlakatdagi siyosiy hayot taqozosi hamda tashqi xavf kuchaygan davrlarda ayrim kichik shaharlar va qishloqlar ham devorlar bilan o`rab olishga harakat qilingan. Jumladan, XIX asr 40 yillarida Buxoro amirligi bilan munosabatlari keskinlashib ketgan Xiva xoni Olloqulixon devori bo`lmagan ayrim Xiva shaharlarini devorlar bilan o`rab olish haqida buyruq bergan. Masalan, Pitnak shahri Olloqulixon buyrig`i bilan 1842 yilda devor bilan o`rab olingan<sup>134</sup>. Bunday holatni Buxoro xonligi shaharlari misolida ham kuzatish mumkin. Xususan, turli

<sup>128</sup>Путешествие из Оренбурга в Хиву самарского купца Рукавкина в 1753 году с приложением разных известий о Хиве с отдаленных времен долины // Туркестанский сборник. Т. 386. Спб. 1883. С. 389.

<sup>129</sup>Саржин – 2,134 м.

<sup>130</sup>Краткое описание Бухари и Хивы // Сибирский вестник. 1823. Ч. 1. С. 13.

<sup>131</sup>Рассказ сарта Нур-Мухамета. С. 57.

<sup>132</sup>Фут – 30,48 см.

<sup>133</sup>Поездка Пospelова и Бурнашева в Тошкент. С.27.

<sup>134</sup>Даниелевский Г.И. Описание Хивинского ханства. С. 103.



o`zbek ulug`larining siyosiy chiqishlari kuchaygan davr - XVIII asrning 60-80-yillarida hokimyat tepasida turgan Doniyolbiy tomonidan “Zarafshonda .... talonchilar to`dasi hujumidan saqlanish maqsadida juda ko`p qo`rg`onlar qurilgan. Hatto kichkina qishloqlar ham devorlar bilan o`ralgan edi”<sup>135</sup>.

Shahar ahli atrofida yerlar, uzoq va yaqin mamlakatlar bilan shahar devorlariga o`rnatilgan darvozalar orqali aloqa qilar edi. Aniqrog`i, shahar darvozalari orqali uni boshqa yerlar, uzoq mamlakatlar bilan bog`langan karvon yo`llari boshlanar edi. Ko`p hollarda ular turli hukmdorlarning harbiy yurishlarida ham asosiy yo`llar vazifasini o`tar edi.

Darvozalar shaharlar himoyasida muhim o`rin tutgan. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayot markazlari bo`lgan shaharlardagi ichki tartibni saqlash maqsadida shahar darvozalari kechqurun yopib qo`yilgan. Shuningdek, shaharlar va aholini shaharga yaqinlashgan dushmandan himoyalash maqsadida zarurat tug`ilganida uning darvozalari yopib qo`yilar edi. Bunda turli usullar qo`llangan. Jumladan, shaharga dushman yaqinlashganida uning darvozalari ko`p hollarda tuproq bilan to`ldirilib, berkitib qo`yilar edi. Xususan, Amir Haydar davrida Buxoro amirligiga Xiva xoni Eltuzarxonning bosqinchilik yurishlaridan o`zini himoya qilgan samarqandliklar tarixchi Mirza Shams Buxoriyning ko`rsatishicha, “shahar darvozalarini tuproq bilan to`ldirib qo`yganlar”<sup>136</sup>. Bunday usulni Xiva xonligi shaharlarida ham qo`llaganlar. XVIII asrning 40-yillarida Xivada bo`lgan D.Gladishevning yozishicha, Eron shohi Nodirshohning Xiva xonligiga hujumi munosabati bilan Xiva darvozalari “tuproq bilan berkitib qo`yilgan edi”<sup>137</sup>.

Muxolif kuchlar ko`p hollarda yog`ochdan ishlangan darvozalarni yoqib yuborish orqali ham shaharlarga kirib, ularni ishg`ol qilishga muvaffaq bo`lganlar. XVII asr muarrixii Muhammad Yusuf Munshiyning qayd etishicha, Toshkentni bosib olishga bel bog`lagan buxoro hukmdori Imomqulixon (1611-1642)

---

<sup>135</sup>Гребенкин А.Г. Родословная Мангытской династии // Туркестанские ведомости. 1871. № 4.

<sup>136</sup>Некоторых событиях в Бухаре, Хоканде и Кашгаре. Записки Мирзы Шемса Бухари. С. 8.

<sup>137</sup>Показания поручика Д. Гладышева. С. 179.

qo`shinlari “shahar darvozalaridan birini yoqib yubordilar va yonib ketdi. Qo`shin u orqali shaharga kirdi”, - deb xabar beradi<sup>138</sup>.

XIX asrning 20-yillarida Buxoroda bo`lgan Y.K.Meyendorf Buxoro amirligi askarlarining “pilta miltiq, uzun nayza va egri qilich” bilan qurollanganliklari, ularning ayrimlari “kalta sovut, temir dubulg`a kiyganlari va ho`kiz terisidan yasalgan qalqon”ga ega bo`lganliklarini ta`kidlab o`tadi.<sup>139</sup> Shu asrning 30 yillarida amirlikda bo`lgan P.I.Demezov esa, Buxoro askarlari haqida yozar ekan, ularning “ayrimlari sovut kiyishadi va juda oz xollardagina temir dubulg`a kiyadilar va kichkina qalqonga egalari. Buxor askarlari kamondan o`q otish mahoratini mutlaq yo`qotganlar” – deb qayd etadi.<sup>140</sup>

O`rta Osiyo xonliklari qo`shinida o`tochar qurollar ham mavjud bo`lib, bular pilta miltiqlar, to`fang va to`plardan iborat edi. Buxoroda pilta miltig`i bor askarlar “to`fanchi va botirlar” deb atalgan. To`fang O`rta Osiyoda o`tochar qurol sifatida XVI asr boshlarida boshlab ishlatilgan.

O`rta Osiyo xonliklari jumladan Buxoro amirligida XIX asr o`rtalariga kelib, qo`shinning qurol yarog`i orasida o`tochar qurollarning salmog`i oshdi. Buni Buxoro, Xiva va Qo`qon xonliklariga oid ko`plab ma`lumotlar buni tasdiqlaydi.

Xulosa o`rnida quyidagilarni keltirib o`tamiz. Ushbu bobda Buxoro amirligida hukmron sulola mang`itlar davrida amirlikning ma`muriy tuzulishi, Buxoro va Qo`qon xonliklari bilan qiyoslab o`rganamiz. Shuningdek amirlik boshqaruvining asosiy qismi bo`lgan harbiy boshqaruv, mansab va ularning egalari va vazifalari harbiy mansab egasi bo`lgan tarixiy shaxslarning ism-shariflari nomlari o`rganildi va bobda yoritildi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik davrida harbiy o`zgarishlar harbiy qism boshliqlari va ularning mahalliy aholiga munosabati ko`rsatib o`tildi, asoslandi.

---

<sup>138</sup>Мухаммад Юсуф Мунший. Мукинханская история. С. 87.

<sup>139</sup> Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.:Наука, 1975. С.213. Яна қаранг: «Ўзбекистонда харбий иш тарихидан». Тошкент: Шарк, 2012.- Б. 140.

<sup>140</sup> Зиёва Д. Мухаррирлиги остида нашр этилган «Ўзбекистонда харбий иш тарихидан». Тошкент: Шарк, 2012.- Б. 141.

### **III BOB. Buxoro amirligida harbiy ish: rivojlanishi va takomillashuvi**

#### **3.1. Amirlikda harbiy ta'minot: qurol-yarog' va anjomlar. Harbiy kiyim.**

Oliy hukmdorlarga mo'ljallangan urush qurol-yarog'lari qimmatbaho toshlar va nafis naqshlar bilan ziynatlangan. O'rta asr mualliflari ba'zida urushga boshchilik qilgan lashkarboshilarni tasvirlar ekan, ularning tilla suvi yuritilgan qurollar taqib olishganiga ishora qiladilar. Jumladan, "Zubdat ul-asar" muallifi Safaviy lashkarboshilaridan birining quroli, kiyimi va egari "sof oltindan bo'lgan"ligini qayd etadi. Hofiz Tanishning so'ziga qaraganda, Abdullaxon II ning qurol-yarog'lari "oltindan" bo'lgan: U "qo'lida tilla qalqon, boshida oltin dubulg'a, beliga zarrin kamar" boqlagan edi.

O'rta Osiyo xonliklari qurolli kuchlari tarkibida kamonchilar mavqeyi keyinchalik ham salmoqli bo'lgan. XVI asrda ham kamon yengil otliqlarning ot ustida turib nishonga uruvchi tezotar qulay qurol bo'lib qolavergan.

Muarrif Hofiz Tanish o'zbek sultonlari qo'shini tarkibidagi to'fangdozlar va otashbozlar – o't otuvchilarni bir necha marta tilga oladi. So'nggi o'rta asrlarga mansub to'fanglar hozirda O'zbekiston xalqlar tarixi muzeyida saqlanadi.

To'fanglar bilan bir qatorda, artilleriya to'pi – zambaraklar ham qo'llanilgan. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida portlaydigan o'q otadigan zambarak haqidagi qiziqarli tasvirga duch kelamiz. Shoirning so'zlariga qaraganda, Iskandar qal'ani qamal qilish vaqtida uzoq masofadagi nishonni urib, yondirib yuboruvchi zambaraklardan foydalangan. "G'ildirak ustiga o'rnatilgan mis truba" bo'lib, simob, bronza va olov qotishmasidan iborat portlovchi o'qni otar edi. Maxsus birikma bilan to'ldirilgan va ikki teshigiga pilta tiqilgan shar nishonga tegar-tegmas portlab ketishi kerak edi. Shar parchalari va undagi moddalar portlashidan chiqqan dahshatli darajadagi qo'lansa hid dushmanni tor-mor keltirishi lozim bo'lgan. O'q sifatida "Xitoy moddasi" – poroxdan foydalanilgan.

Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, XVI asrdan O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarda artilleriya to'pi – zambaraklardan foydalanilgan va mahalliy

ustalarning o`zlari zambaraklar yasay boshlagan. XVI asrning ikkinchi choragida (1533) shayboniylardan Ubaydulloxon tomonidan (1533-1539) xonlik poytaxtini Buxoroga ko`chirilishi munosabati bilan qurol-aslaha ishlab chiqaruvchi ustalar ham shu yerga to`plangan. Bu yerda xon qo`shinini qurollantirish uchun lozim bo`lgan qurol-aslahaning asosiy qismi ishlab chiqarila boshlagan.

Qurolsoz ustalar asosan bir turdagi qurollar yasashga ixtisoslashganlar. Ularning ustaxonalari ko`pincha savdo rastalari qatoridan o`rin olgan. Buxoro va Samarqandda sovutsozlar, o`qchilar, kamonsozlar va boshqa ustalarning maxsus savdo rastalari va yopiq bozorlari bo`lgan. U yerda qurol-aslaha ishlab chiqarish markazi Samarqandda qilich, tig`, shamshir, pichoq, turli xildagi kamon va o`qlar, nayza yasovchi ustalar sotish uchun va buyurtma bo`yicha turli-tuman qurollar tayyorlaganlar.

O`rta Osiyo askarlarining qurol-yarog`lari, ot anjomlari orasida Sharqda va Evropa mamlakatlarida tayyorlangan qurol-aslahalarning mavjudligi harbiy qurollarning ayrim turlarini tayyorlashda xorijiy yutuqlardan unumli foydalanilganligidan guvohlik beradi. Ammo janglarda asosan, mahalliy ustalar yasagan sovutlarga talab va ehtiyoj katta bo`lgan. Jumladan, Samarqandda jibatob ustalarining faoliyatiga e`tibor qaratsak, ayrim qurollarni ishlab chiqarish sohasida o`rta osiyolik qurolsozlar ham muayyan yutuqlarga erishganligini ko`ramiz. Bu hunarni o`rganish uchun kishilarning ularga ko`plab shogird tushishi ham shundan dalolat beradi. Umuman olganda, O`rta Osiyo shaharlarida qo`shinni qurollantirish takomillashib, to`fangdan, shaharlarni qamal qilishda to`plardan foydalanish artilleriya to`plarini ishlab chiqarish kengayib bordi.

O`rta asrlarga mansub manbalarda kamondan o`q uzish bo`yicha o`tkazilgan musobaqalar ta`rifi ko`plab uchraydi. U yoki bu a`yonga ta`rif berilar ekan, odatda, uning kamondan o`q uzish bo`yicha mahorati ham qayd etib o`tiladi. Jumladan, yosh amirlarga “mohir mergan”, “kamondan yaxshigina otadi” kabi ta`riflar beriladi.

Shuningdek, nishonga qarab otishga mo`ljallangan jismoniy mashq inshootlari sadafxonalar (tir) to`g`risida ham ma`lumotlar beriladi. XV asrga

mansub adibning xabar berishicha, o`sha davrda Hirotdan shimoli-sharqda joylashgan bog' o`rtasida saroy bilan birga maxsus bino – tir (hozirgi tir so`zi shundan olingan) bunyod etilgan. Bu yerda kamondan o`q uzish bo`yicha harbiy musobaqalar o`tkazilgan. Odatda, muayyan balandlikka osib qo`yilgan qovoq, taxta yoki qog`ozga kamondan o`q otib, mashq qilingan.

Ochiq maydonda esa otda chopish, qovoqni urib tushirish va uni yerda u yoqdan-bu yoqqa tortish bo`yicha musobaqalashishgan. Temuriylardan Sulton Ahmad Mirzo (hukmronlik yillari 1469-1494) “O`qni bisyor yaxshi otar erdi. Ilbosunga o`qi va tirgazi aksar tegar edi. Qabaqni maydonning ul boshi-bu boshidan kirib, aksar urar erdi” .

Bunday musobaqalar jangga tayyorgarlik sifatida yurishlar oldidan tez-tez o`tkazilib turilgan. Fayzulloh Ibn Ro`zbehxon “Mehmonnomai Buxoro” asarida “qovoqni nishonga olish tasviri”ni alohida ajratib ko`rsatadi. Unda kamondan qovoqni nishonga olishga bag`ishlangan harbiy mashq musobaqasi o`zining ta`sirli ifodasini topgan. Ibn Ro`zbehxonning xabar berishicha, 1509 yilgi yurish oldidan Shayboniyxon huzuriga “xalifalarning tantanasi odatlariga binoan barcha sultonlar... qovoqni nishonga olish uchun ot minib, maydonga kelishadi. Qovoq Shayboniyxon turgan tantanalar maydoniga qo`yilgan edi. O`z kuchini sinash uchun bahodirlar bir-birini gijgijlab, dahshat solish maqsadida qovoqqa tashlanadilar... qovoq boshiga tanga butog`i qo`ndirilgan bo`lib, bahodirlar qarshisida otish maydoni sifatida o`zini namoyon etgan shamsub daraxti shoxini eslatardi... harbiylar unga ot solishar, lekin u tangasini osonlikcha bermas, buning uchun uning boshidagi shar yorilishi kerak edi”. Muallif davom etib, yozadi: “kuchini sinamoqchi bo`lgan o`ng mingga yaqin “o`zbek bahodirlari” o`z kuchi va abjirligini ko`rsatishga harakat qildilar, qovoqqa ot soldilar, “baribir, tarqoq holda jang olib borgan kabi uning yonidan o`tib ketardilar, keyin orqaga qaytadilar va ikki yuz gaz yuqoriga osilgan qovoqqa kamondan o`q uzadilar”.

Bundan tashqari, shahar tashqarisidagi maxsus ajratilgan tekis maydonlarida ot bilan musobaqalashish – milliy ot o`yinlari va poygalar ham o`tkazilgan.

Otda yura olish O`rta Osiyo aslzodalarining o`zlariga xos xususiyati hisoblangan. Movarounnahr va Xurosonning mashhur amirlari ko`plab miqdordagi zotli otlarga ega bo`lganlar. Zahiriddin Boburning yozishicha, Samarqanda yashagan davrida Alisher Navoiyga homiylik qilgan Sulton Ahmad umarolaridan Ahmad Hojibek “yaxshi to`pchoqlar saqlab, yaxshi minar edi. Bu to`pchoqlar aksar xonzodi edi” . Muhammad Shayboniyxon va Jo`ybori shayxlarga tegishli otlar maxsus ajratilgan yaylovlarda boqilgan. Odatda otda yurish va otni boshqarish san`atini egallash aslzoda toifaga mansub yoshlarni o`qish-o`qitish dasturiga kiritilgan.

Movarounnahr xalqlari ishda qo`shni va boshqa xalqlar tajribasini o`zlashtirib olishga intilganlar. Nafaqat ajoyib shoir va mutafakkir, ayni paytda, ulkan strateg va lashkarboshi bo`lgan Zahiriddin Boburning ma`lumot berishicha, Ustod Ali-Quli rumiylar (usmonli turklar) odati bo`yicha jang oldindan arobalarni bir-biriga zanjir o`rniga, xom ho`kizning terisidan qilingan arqon bilan birlashtirilgan olit-ettita qalqon o`rnatishi kerak edi. Merganlar aroba va qalqonlar orqasidan turib, to`fanglardan o`q uzganlar. Bundan tashqari, ba`zi bir ochiq qolgan joylarga to`siq va g`ovlar o`rnatganlar. Bunda 100-150 nafar chavondozi saf tortishi uchun alohida ochiq joylar ham qoldirilgan.

Keyingi ya`ni XVIII-XIX asrlarda ham harbiy ish va qurol-yarog`lar holatida Amir Temur davridagi an`analar saqlab qolindi. Ayni paytda Dashti Qipchoqdan ko`chib kelgan ko`chmanchi harbiylar taktikasi o`zlashtirildi, shuningdek, ayrim yangi qurollar – to`p, zambaraklar paydo bo`lib, qurol-yarog` yasash hunarlari takomillashdi. Ammo markazlashgan davlatning barbod bo`lishi tufayli izchil harbiy islohotlar amalga oshirilmadi. Siyosiy tarqoqlik va ichki nizolar tufayli mustahkam muntazam qo`shin tuzish imkoni bo`lmadi, vaqtinchalik yonlanma qo`shindan foydalanishga zo`r berildi. Bu holat Amir Temur davrida rivojlangan harbiy an`ana va tartiblarni izchil davom ettirishga imkon bermadi. Amir Haydar islohoti tufayli yangi tashkil etilgan muntazam qo`shinga katta e`tibor berildi. Harbiy mashqlarning muntazam o`tkazilib borilishi, qurol aslahalar bilan ta`minlanganligi, harbiy ta`minot to`g`ri yo`lga qo`yilgani, har yili askarlarni

ko`rikdan o`tkazilib turilishi hamda maxsus kiyim bilan ham ta'minlanganligi ijobiy hol bo`ldi. Shu o`rinda kiyim boshga to`xtalib o`tsak, xususan, sarbozlar va to`pchilarning kiyim-boshi qizil, qora va sariq rangli movutdan tikilgan ustki kiyim-kamzul, oq kalenkor shim va qorako`ldan tikilgan qalpoqdan iborat bo`lgan. Keyinchalik qo`shin orasida echki terisidan tikilgan ancha pishiq va chidamli shimlarni kiyish urf bo`lgan. Buxoroda sarbozlar va to`pchilardan iborat qo`shinni kiyim-bosh va qurollar bilan ta'minlash amirning mablag`i hisobiga amalga oshirilgan. Odatda muntazam qo`shin amir xazinasidan har uch yilda kiyim-bosh bilan ta'minlab turilgan. Jumladan, oddiy askarlar ham, qo`shin rahbariyati ham xazinadan yangi kamzullar, shim va qalpoqlar olganlar. Askarlarga har bir harbiy yurish oldidan bir juft etik berilgan.

Buxoro va Qo`qondan farqli ravishda Xiva xonligida qo`shining muayyan tartibdagi harbiy kiyim-boshi yo`q edi. Ularning kiyimi asosan turli-tuman choponlardan iborat edi.

Yangi tashkil etilgan qo`shinni qurol-yarog` bilan ta'minlash jarayoni bir yildan ortiq vaqt talab qilgan. Bu qurollarni buxorolik qurolsoz ustalar yasaganlar.

Harbiy texnikada yoqilg`i sifatida neftdan foydalanilgan. Bu haqda tarixchilardan Muhammad Solih, Hofiz Tanish Buxoriylar o`z asarlarida eslatib o`tadilar. Qal`a devorlaridan turib urushganda dushmanga neft shimdirilgan latta o`ralgan yonuvchi o`qlarni yoqdirganlar, bu o`sha davr uchun "dahshatga soluvchi qurol" hisoblangan. Egelberg, Kempfer va Avliyo Chalabiylarning xabar berishicha, neft to`ldirilgan echki terisidan tikilgan meshlar turli mamlakatlar, shu jumladan, O`rta Osiyoga ham olib kelingan. Neft sotib oluvchi savdogarlar u yerda maxsus karvonsaroylarga joylashganlar.

Buxoro hukmdori Amir Haydarni (1800-1826) mamlakat harbiy kuchlarini ikki qismga –muntazam qo`shin – "navkariya" va nomuntazam qo`shin –"qora cherik"ka bo`ldi. Buxoro amirining "lashkar", "cherik", "qo`shin" deb nomlangan harbiy kuchlarining nomuntazam qismi ("qora - cherik") oliy hukmdorning amriga binoan harbiy harakatlar davrida tinch aholidan to`plangan. Odatda, amir jarchilari

boshlangan harbiy yurishlar haqidagi xabarlarni bozorlarda e'lon qilganlar. Bozorlarda “qora - cherik” ro'yxati osib qo'yilgan.

Amir Haydarning muntazam qo'shin tuzish borasidagi harakatlarini Buxor amiri Nasrullo (1827-1860) davom ettirdi. 1837 yil Amir Nasrulloning say – harakatlari bilan piyoda askarlardan iborat sarbozlar va to'pchilarning muntazam qo'shini tuzildi. Buxoro harbiy kuchlarining asosini tashkil etgan sarbozlar tarkibiy jihatdan bir necha qismlarga bo'lingan. Jami 700 kishidan iborat “sarbozlar har biri 100 talik 7 ta dastaga bo'lingan edi. Har bir dasta 2 ta nim dastaga, 4 ta rassadga va 8 ta baraga bo'lingan. Yuz kishidan iborat harbiy dastani yuzboshi boshqargan. Rassadni panjaboshi boshqargan.

Harbiy qismni boshqarishda bu mansab egasiga uning muovini panshajaboshi-xurd yordam bergan. Sarbozlarning o'n kishidan iborat qismiga “daxboshi” boshchilik qilgan”. Harbiy yurishlar davrida qo'shin askarlariga ma'lum miqdorda maosh to'langan. Harbiy harakatlar avj olgan davrda mansabi va unvonidan qat'i nazar qo'shindagi har bir shaxsga kuniga xazinadan bir tilla, oddiy sarbozlar va to'pchilar 3 kun uchun 1 tanga, dahboshi 2 kun uchun 1 tanga, qorovulbegi bir kun uchun 2 tanga, yuzbosh kuniga 4 tanga pul olgan. Buxoro amiri Nasrullo ham dastlab o'zi tuzgan muntazam qo'shinning ehtiyojlarini kundalik narsalar berish orqali qoplashga harakat qilgan. 1856 yildan boshlab muntazam qo'shinning asosiy kuchlari – sarbozlar va to'pchilar har uch oyda maosh olganlar. Oddiy askar bir tilla, daxboshi bir yarim tilla maosh olganlar kabi ma'lumotlar qayd etilgan.

Shu jixati bilan ham ushbu manbalar o'rganilayotgan davr tarixini o'rganish uchun birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

XIX asr o'rtalariga kelib esa, Buxoro qo'shinida turkmanlar orqali amir qo'lga tushgan fors to'plarini ham, Xitoyda “xristian missionerlari” tomonidan quyilgan to'plarni ham, shuningdek, “xitoychi” nomi ostida mashxur bo'lgan falkonetlar (kichik kalibrli to'p)ni ham uchratish mumkin edi. Bu davrga oid ma'lumotlarga ko'ra, buxoro amiri ixtiyorida umumiy hisobda turli kalibrlik 50 ta to'p bo'lib, ular kerakli anjomlar bilan ta'minlangan va harbiy yurishga taxt holda



saqlangan. To'plarning 32 tasi Buxoroning o'zida, 2 tasi Jizzaxda, 1 tasi Kerkida, 10 tasi O'ratepada, 1 tasi Chorjuyda va 4 tasi Zominda saqlangan. Poytaxt shaqardan tashqari hamma yerlarda to'plarga qarash uchun mahalliy aholi orasidan xizmatchilar olingan.<sup>141</sup>

Ma'lumki, Buxoro xonligi saroyida xonning voyaga yetmagan farzandlari tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi maxsus otaliq lavozimi bo'lgan. Odatda, valiahd-shahzodaga biror-bir viloyat suyurg'ol sifatida berilgan va u o'z otaliqi bilan uning ustidan hukmronlik qilgan. Taxt vorisiga, an'anaga ko'ra, Balx shahri va uning atrofini o'rab turgan viloyat bilan birga berilgan. Shu narsa diqqatga sazovarki, otaliqqa shahzodaning davlat ishlari bilan birga yaxshigina umumiy ma'lumot olishi, ayni paytda, harbiy san'ati va jismoniy mashq turlarini ham yetarli darajada egallashi uchun g'amxo'rlik qilish vazifasi yuklatilgan.

Rossiya Buxoro o'rtasida 1868 yil 23 iyun kuni imzolangan shartnoma tenglik shartnomasi emas, balki o'z xarakteri bilan ko'proq ultimatumga o'xshardi. Buxoro amiri majburlikdan imzolagan bu shartnoma 2 yil oldin amir tomonidan imzolanmagan shartnomadan albatta tubdan farq qilardi. Yangi taklif etilgan shartnomada uchta qo'shimcha bo'lim bo'lib ular quyidagilardan iborat edi:

1. Samarqand va Kattaqo'rg'on okruglari Rossiyaga qo'shib olinsin;
2. Rossiya va Buxoro hududini chegaralash;
3. Chegaralanish ishlarini xalqaro komissiyaga tavsiya etish.

Shu davrdan boshlab Rossiya-Buxoro munosabatlarida yangi bir davr boshlandi. Juda ko'p holatlar amirni Rossiyaga vassal munosabatda bo'lishga majbur etdi. Bu holatlarga amirning xonlikda uning obro'yi tushib ketganligi, u xonlikni boshqarishda ruslarga tayanayotgani, beklarni unga bo'ysunmay, mustaqil bo'lishga intilayotgani, diniy ulamolarning uning noroziligi sabab bo'layotgan edi. Endi Jizzaxdan tortib Kattaqo'rg'oniga qadar bo'lgan hududlar rus hukumati tobeligiga o'tdi. Rossiya-Buxoro o'rtasidagi janglarda zabt etilgan hududlar hisobiga Turkiston general-gubernatorligining Samarqand viloyati tashkil etildi.

---

<sup>141</sup>Ўша ерда. 215-бет.

1868 yilda tuzilgan Rossiya-Buxoro sulhiga ko`ra o`z siyosiy mustaqilligidan mahrum bo`lgan amirlikda mamlakat chegaralarini rus qo`shinlari egallagach, amirga ichki tartibni saqlash va ma`muriyatni qo`riqlash uchun 12000 lik qo`shin saqlashga ruxsat berilgan. Shu sababli vaqt o`tgan sari Turkistondagi ma`muriyat tazyiqi ostida qo`shin qisqarib borgan va 1910 yilga kelib 11000 kishini tashkil etgan.

### 3.2. Harbiy qurol yarog`lar ishlab chiqarish xom ashyosi va tayyorlash texnikasi

Xonliklarda turli qurol-yarog`lar ishlab chiqaruvchi ustaxonalar ham mavjud edi. Ular jumlasiga o`tochar qurollar – miltiqlar va to`plar ishlab chiqaruvchi ustaxonalarni kiritish mumkin. Ularda mamlakatda mavjud turli hunarmandlar – temirchilar, degrezlar, duradgorlar va boshqalarning xizmatidan keng foydalanilgan. Masalan, Buxoro amirligida Samarqand yirik degrezlik markazi sifatida mashhur bo`lib, to`plar aynan shu yerda tayyorlangan. Bunday turdagi ustaxonalar asosan davlat tasarrufida bo`lgan. Ularga qurol-yarog`larni ishlab chiqarish uchun zarur bo`lgan xom-ashyoni davlat tomonidan yetkazib berilgan. Masalan, XIX asrning 60-70-yillariga oid hujjatlarda qayd etilishicha, Qo`qonda miltiqsozlik ustaxonasi – “kamonxona” uchun po`lat, qalay, mayda ko`mir, yelim, cho`yan, temir, bo`yoqlar ajratilgan.<sup>142</sup> Qo`qonlik ustalar hatto yevropacha miltiq “kamon-i farangi” ishlab chiqarishga harakat qilganlar. 1872-73-yillarga oid hujjatlardan birida yevropacha miltiqlari “kamon-i farangi”ni ishlab chiqarish uchun ustaxonaga temir, po`lat, cho`yan va ko`mir ajratish lozimligi ko`rsatib o`tilgan.<sup>143</sup> Bunday ustaxonalarga miltiqlarning qayishi – “band-i kamon” uchun xom teri ham etkazib berilar edi. Xuddi shu tarzda to`p ishlab chiqaruvchi ustaxona-to`pxonalar va to`plarning yadrosi ishlab chiqaruvchi ustaxonalar – “korxonai tir-i tubrizan” ham davlatning tasarrufida bo`lgan. Bu ustaxonalarga davlat tomonidan to`p quyish uchun ko`mir, po`lat, aravalarga to`plarni o`rnatish uchun kerakli moslamalarni yasash uchun esa, temir va charm, porox solish uchun esa, qop kigiz bulardan tashqari ip g`altaklari, lazur<sup>144</sup>, yelim va boshqalar yetkazib turilgan. Shuningdek, to`plarni bo`yash uchun mum, zig`ir yog`i, o`simlik yelimi, havo rang bo`yoq, (lazur), to`plarning ustiga yopish uchun charm va boshqalar yetkazib berilgan. To`plarni tashiladigan maxsus aravalari tayyorlash uchun zarur xomashyolar – charm, kigiz, bo`yoqlar, aravalarning g`ildiragini moylash uchun turli yog`lar yetkazib turilgan.

<sup>142</sup>Троицкая А.Л. Военное дело в Бухаре в первой половине XIX века. ... С. 312.

<sup>143</sup>Ўша ерда. 312-313-бетлар.

<sup>144</sup>Ляпись-лазурь – хаворанг буёк.

O`rta Osiyo xonliklarida qo`shinning turli qurol-aslahalarga bo`lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiluvchi turli hunar turlari mavjud edi. Ulardan biri miltiq ishlab chiqarish bo`lib, bu hunar bilan shug`ullangan hunarmandlar “kamonsoz”, “miltiqsoz” deb atalgan. Miltiq ishlab chiqaruvchi ustaxonalarda mehnat qilgan bunday hunarmandlarga katta e`tibor qaratilgan. Qo`qon xonligiga oid ma`lumotlardan ayon bo`lishicha, bunday ustalarga askarlarga berilgani kabi bug`doy berilgan. Ular ham turli soliqlarga ozod etilgan. 1870-1871 yillarga oid hujjatlardan birida Usta Yunus ismli shaxsning o`qli, miltiqsoz ustaning yerida o`stirilgan uzumzori uchun tanabona solig`idan ozod etilgani ko`rsatib o`tiladi<sup>145</sup>. Shuningdek, miltiq va to`p ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bunday ustaxonalarda faoliyat ko`rsatgan hunarmandlarning kundalik ehtiyojlari uchun quruq choy, shu jumladan, unning oq-quyruq navi, zig`ir yog`i, guruch, go`sht, dumba yog`i, sabzi, piyoz, qovun va boshqalar yetkazib berilar edi.

G`arbiy qurollar ishlab chiqarish bilan bog`liq hunar turlaridan biri porox ishlab chiqarish bilan bog`liq edi. Poroxni mahalliy xalq tomonidan “doru” deb atalgani uchun, bu hunar turi bilan bog`liq hunarmandlar “dorukash” deb atalgan. Ular ham miltiqsozlar kabi davlat tomonidan ma`lum turdagi moddiy ne`matlar, shu jumladan, bug`doy bilan ham ta`minlanganlar.

O`rta Osiyo hududida turli harbiy uskunalari, qurol-yarog`lar ishlab chiqarish uchun zarur xom ashyolar yetarli edi. Masalan, Buxoro amirligi Qo`qon va Xiva xonliklari kabi, porox ishlab chiqarishda zarur bo`lgan oltingugurt va selitraga juda boy hudud edi. Amirlikda porox ishlab chiqarishga ixtisoslashgan maxsus xususiy ustaxonalar mavjud edi. Ulardan biri Qarshida joylashgan edi.

Xonliklarda qo`shinning qurol-yarog`lar zaxirasi harbiy yurishlar davrida qo`lga tushirilgan qurol-aslahalar bilan ham to`ldirib borilgan. XIX asr muarrifi Mulla Olim Mahdum Xojining “Tarixi Turkiston” asarida qayd etilishicha, 1842 yilda Qo`qonni qamal qilgan Buxoro amiri Nasrullo “hukumatga taaluqli asbob-

---

<sup>145</sup>Троицкая А.Л. Военное дело в Бухаре в первой половине XIX века... С. 279

aslaha, chunonchi, to`pu to`fang va asbobi jang, xazina, dafinalarning hammasini yig`ib”, amirlik poytaxtiga jo`natgan edi.<sup>146</sup>

XIX asrga oid tarixiy ma`lumotlarga ko`ra, harbiy harakatlar davomida qo`shining yurishi uchun zarur narsalar arava, chodir va boshqa narsalar ham xon xazinasi tomonidan qoplangan. Xususan, shu davrda Buxoro amirligida sarboz va to`pchilarning har bir o`nligi uchun bittadan chodir ajratilar edi. Harbiy harakatlar davomida chodirlar va boshqa yuklarni tashish uchun amir tomonidan aravalar ham ajratilib, ularda ayrim hollarda vaqtdan yutish maqsadida sarbozlarning o`zi ham tashilgan. Shu bilan birga bunday aravalarda to`plardan otiladigan o`qlar, miltiqlar ham olib borilgan. Masalan, XIX asr o`rtalarida Buxoro amirligida asirlikdagi shaxsning ko`rsatishicha, to`pchilar harbiy yurishlar paytida har bir to`p uchun 500 tadan o`q olib yurishga majbur bo`lganlar, chunki yo`lda uchragan shaharlarda qurol-aslaha sotuvchi “hech qanday do`kon” bo`lmagan edi.<sup>147</sup>

O`rta Osiyo xonliklarida XIX asr o`rtalariga kelib, qo`shinning qurol yarog`i orasida o`tochar qurollarning salmog`i oshdi. Buni Buxoro, Xiva va Qo`qon xonliklariga oid ko`plab ma`lumotlar ham tasdiqlaydi. Jumladan, Buxoro amiri Nasrullo (1826-1860) ning muntazam qo`shinini tashkil etgan sarboz va to`pchilar bunday qurol turlari bilan yaxshi ta`minlangan edilar. Sarbozlar nayzali miltiqlar bilan, to`pchilar esa to`pponcha, qilich bilan qurollangan edilar. O`nboshilarning qurollari ham shunday edi. Yuzboshilar esa ikki stvulli miltiq, pistolet va qora, kumush bilan ishlov berilgan “buxoro qilichlari” kabi qurollarga ega edi.<sup>148</sup>

To`plarga qarovchi to`pchilar ayrim hollarda asirga tushgan shaxslardan saralab olingan. Jumladan, Buxoro amirligida to`plarga rus va fors asirlari qarab turganlar. Xiva xonligida ham to`plarni soz ahvolda saqlashga javobgar bo`lgan shaxslar ichida asirlarni uchratish mumkin edi. Xiva xonlari arxiviga oid hujjatlarning birida “To`pchi do`qmalarga” yigirma tilla berilgani qayd etib o`tiladi.<sup>149</sup>

---

<sup>146</sup>Мулла Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Қарши, 1992. 50-бет.

<sup>147</sup>Троицкая А.Л. Военное дело в Бухаре в первой половине XIX в. ... С. 216

<sup>148</sup>Троицкая А.Л. Военное дело в Бухаре в первой половине XIX в. ... С. 216

<sup>149</sup>XIX asr Xiva davlat hujjatlari. II жилд.-Тошкент Фан, 1960. 213-бет.

XIX asr muallifi I.V. Vitkevichning qayd etishicha, “Buxoroda xonning ixtiyorida bir necha kichik kalibrli to`p-falkonetlar bo`lib, tuyalarning egariga mahkamlab boqlangan. Bu fakonetlar juda yupqa qilib qo`yilgan” ular Erondan olib kelingan deb taxmin qiladi.<sup>150</sup>

Sarbozlar uchun to`p o`qi va o`qlar tuyalarda tashilgan. Artilleriya qurol-yarog`lari o`rdasi qo`rxonada saqlangan. Zayniddin Vosifiyning ma`lumotlariga ko`ra, bo`lg`usi taxt sohiblari – valiahdlarni tarbiyalash dasturiga shahzodalarga umumiy ta`lim berish bilan birga, yoshlikdan harbiy mashqlarga o`rgatish, jumladan, kamondan o`q otish va otda yurishga o`rgatish kiritilgan. Chunonchi, Zayniddin Vosifiy murabbiy qilib tayinlangan Baroq Sultonning tarbiyasi shu yo`sinda olib borilgan.

Chegaralarda qo`shinni saqlash uchun bir qancha qal`alar bunyod etilgan. Bu qal`alarda joylashgan qo`shinning asosiy vazifasi turli savdo karvonlarining xavfsizligini ta`minlash, mamlakatni tashqi kuchlar tajovuzidan asrashdan iborat edi. Tashqi kuchlar hujumiga birinchi bo`lib javob beradigan bunday qal`alar asosan yirik xalqaro karvon yo`llarida bunyod etilar edi. Bu o`rinda Buxoro amirligining chegara qal`alarini misol qilib keltirish mumkin. Masalan XIX asrning 30 – yillarida Buxoro xonligidagi chegara qo`shinlari esa, Jizzax, Qo`rg`on, Nurota, Xo`ja Jo`ybor, Kerki, Yoychi, Chorjo`y va boshqa markazlarda joylashgan qal`alarda saqlanar edi. Turli hajmdagi va mudofaa qobiliyati jihatidan ham turlicha bo`lgan bu qal`alarda har xil o`tochar va sovuq qurol bilan qurollangan qo`shin joylashtirilgan. Ularda turli to`plar saqlangan.

Harbiy janglarda, yurishlarda otlar va otliq qo`shin muhim ro`l o`ynagan. XV asr oxiri XVI asr boshiga mansub mualliflar so`nggi temuriylar hukumronligi davridagi ba`zi bir amirlarning ko`plab “zotli”, “xonzodi” otlari bo`lganligi to`g`risidagi xabar berdilar. Shuningdek, yaylovlarda jo`yboriy shayxlardan Xoja Sa`dning 1500 boshga yaqin otlari boqilganligi haqida ma`lumotlar bor. Bu otlarning katta qismi shayboniy va ashtarxoniy xonlariga tegishli bo`lgan.

---

<sup>150</sup>Записки о Бухарском ханстве... С. 114

Qimmatbaho zeb berilgan qurollar kabi otlar ham hadya vositasi hisoblangan. “Xisravshoh navkari bir to`qquz ot va bir to`qquz parcha keltirdi”, - deb yozadi Bobur va yana Boysunqurga esa, “yetmish-sekson ot peshkash qildi”, - deb ma'lumot berib o'tadi.

Janglarda qilichning ahamiyati katta edi, shu bilan birga yaqin masofadagi jangda jangovar boltadan ham foydalanilgan. “Tarixi guzudai nusratnoma” asarida yozilishicha, Shayboniyxon o`g`li Muhammad Temurga bolta olib, kofirlarga qarshi urishga otlanishni amir qiladi.

Qurol turlari sohiblarining qaysi tabaqaga mansubligini ham yaqqol namoyon qilgan. Jang vaqtida yasalgan oddiy yog`och hamda naqsh va suratlar bilan ziynatlangan qalqonlar o`rta asrlarda yuqori tabaqaning turli qatlamlariga mansub namoyandalarining qurollanish belgilaridan edi.

Yozma manbalardan ma'lum bo`lishicha, jangchilarning deyarli hammasi qurol-aslaha va harbiy kiyim-bosh bilan ta'minlangan. Muhammad Solihning guvohlik berishicha, o`zbek sultonlari lashkari safidagi sovutsiz jangchilar o`z tanasini kigiz bilan o`ralib himoya qilganlar.

Boburning yozishicha, eritilgan metall mis tarnov orqali maxsus qolipga quyilgan va keyin sovutilgan. Ishlab chiqarish jarayonida bir necha kunga cho`zilgan: avvalgi tayyorgarlik ishlari olib borilgan, so`ng eritilgan metallni qolipga quyishgan, shundan so`ng quyilgan qurolning qotishini bir necha muddat (bir-ikki kun) kutishgan.

Quyish jarayoni texnologiyasini yaxshi bilmaslik va mukammal texnikaning yo`qligi ustalarga mustaqil ishlashlariga yo`l qo`ymagan. Masalan, Ustod Ali Quliga to`plardan birini quyish jarayonining murakkabligi Boburning asarlarida ham batafsil bayon etilgan.

Bunday katta xizmatlari uchun Ustodga Bobur tomonidan belga taqiladigan hanjar, zarbof to`n va ot hadya qilingan.

To`p-otish oldidan stvolga zarur vaziyat yaratish va otish vaqtida otilgan o`tni yutish qamda bunda vujudga keladigan og`irlikni erga uzatish uchun maxsus

moslama (yoki aroba)ga o`rnatilgan. Arobalarga uchoyoq-sepoyalar ham o`rnatilgan. Buning uchun arobalar bir-biriga biriktirilgan. “Arobalarni ilgari mazbut qilib, zanjirlar bila arobalarin marbut ayladuk. Har ikki aroba fosilasi” yetti-sakkiz qari bo`lgay edikim, “zanjir tortilur edi” (285), - deb xabar beradi Bobur.

To`p quyuvchi ustalar rextagar deb atalgan. Ish jarayonida ular yordamchi ishchi kuchidan foydalanishgan. XVI-XVIII asrlarga oid manbalarda ko`rsatilishicha, Buxoroda bir necha rextagarlar bo`lgan. Rextagarlar mis va qo`rqoshin qorishmasi bo`lgan bronzadan turli uy-ro`zg`or buyumlarini ham yasaganlar.

Zahiriddin Boburning hind zaminidagi muvaffaqiyatlarida metall quyuvchi usta Ali qulining xizmatlari katta bo`lgan. To`fangni yaxshi otuvchi, yevropacha to`p – farangiydan foydalana oladigan bu iqtidorli usta keyinchalik o`zi zambarak quya boshlagan va ular orqali “katta hajmdagi toshlarni” otishga muvaffaq bo`lgan. Zaqiriddin Bobur Ali qulini “davrimizning noyob kishisi” deb ta`riflashi bejiz emas edi. Chunki o`sha davrda bunday hunarli kishilar kamdan kam topilardi.

Ustod Ali quli quygan to`plar turli kattalikda edi. Ular ikki qismdan, o`rnatiladigan qism ulama tosh va porox solinadigan doruxonadan iborat bo`lgan.

Dastlabki paytlarda zambaraklar ko`pincha birinchi o`q otishdan keyinroq portlab ketgan. Shunday hodisalardan biri to`p yonida turgan 8 kishining o`limiga sabab bo`lgan. Artilleriya to`plarini yasash nisbatan takomillasha boshladi. To`plar mustahkam, ular o`lchovi esa ko`p yoki kam darajada birxillasha bordi. Gavharshod masjidida (qirot) quyilgan har yetti to`pdan biri 2-3 man og`irlikdagi o`q bilan otar edi. XVI asrning birinchi choragida to`pni uni quygan ustaning o`zi otgan. Ammo Hofiz Tanishning bir yo`la yettia to`p quyilganligi haqidagi ma`lumoti to`p quyadigan usta asosan to`p yasash bilan mashg`ul bo`lgan va faqat ayrim hollardagina o`zi undan o`q uzgan, degan xulosaga olib keladi.

Rus elchilarining axborotnomalaridagi mavjud ma`lumotlar XVIII asrda O`rta Osiyoda o`tochar qurollardan foydalanish yetarli darajada keng tarqalganligidan guvohlik beradi.



Tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, harbiy harakatlarda asosan mahalliy ustalar yasagan to'plardan foydalanilgan. Yevropacha to'p-faranglar kamdan-kam hollarda ishlatilgan. Bu artilleriya to'plari ishlab chiqarishda muayyan siljishlar sodir bo'lgan. SHu bilan birga, zarbzan, rad, zambarak, manjaniq, toshotar va boshqa avvalgi asrlarga mansub qurollar ham baravar ishlatilgan devor teshadigan hamda otadigan texnika va artilleriyalardan ham foydalanilgan.

### **3.3. Harbiy ish takomillashuvi va taktika**

O`rta Osiyoda XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asr boshlarida xonliklarning ichki va tashqi siyosatida, o`zaro munosabatlarda harbiy qo`shin muhim ahamiyat kasb etgan. Avvalo shuni ta`kidlash joizki, XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib xonliklardagi qo`shin asosan nomuntazam xarakterga ega bo`lgan, ular ichki va tashqi xavfni bartaraf etishga ega bo`lgan, ular ichki va tashqi xavfni bartaraf etishga qodir emas edi. Bu holatdan to`g`ri xulosa chiqargan ayrim hukmdorlar o`z qo`shinlarining muntazam qismlarini tashkil etishga harakat qildilar. Natijada XIX asr boshlarida O`rta Osiyo xonliklari qo`shini muntazam va nomuntazam qismlardan tashkil topgan harbiy kuchga aylangan.

Ma`lumki, Buxoro xonligi saroyida xonning voyaga yetmagan farzandlari tarbiyasi bilan shug`ullanuvchi maxsus otaliq lavozimi bo`lgan. Odatda, valiahd-shahzodaga biror-bir viloyat suyurg`ol sifatida berilgan va u o`z otaliqi bilan uning ustidan hukmronlik qilgan. Taxt vorisiga, an`anaga ko`ra, Balx shahri va uning atrofini o`rab turgan viloyat bilan birga berilgan. SHu narsa diqqatga sazovarki, otaliqqa shaqzodaning davlat ishlari bilan birga yaxshigina umumiy ma`lumot olishi, ayni paytda, harbiy san`ati va jismoniy mashq turlarini ham yetarli darajada egallashi uchun g`amxo`rlik qilish vazifasi yuklatilgan.

Amirlikda muntazam qo`shinning asosini tashkil etgan navkarlarga bir qancha imtiyozlar berilgan edi. Buxoro amirligida mansabiga muvofiq ravishda navkarlarga oziq-ovqat, pul va kiyim-bosh, otlari uchun yem-xashak berilgan. Ular boshqa xonliklarning muntazam qo`shinlari kabi turli soliq va majburiyatlardan ozod etilgan edi. O`z yeriga ega bo`lgan navkarlar amirning buyrug`i bilan bu yerlar va ularda etishtiriladigan turli ekinlarga solinadigan soliqlardan ham ozod edilar.

XIX asr 30-yillariga oid ma`lumotlarga ko`ra, Buxoro amirligida 19000 askar bo`lgan. Qo`shinga Buxoro viloyatidan 12 ming askar, Samarqanddan – 2500, Qarshidan - 2500, Maymanadan – 1000, Qorako`ldan – 1000 ta askar

yetkazib berilgan. Buxoro askarlariga bu davrda bir yilda rus rubli bilan hisoblaganda 150 rubl ajratilib, u qisman bug`doy, jo`xori, pichan bilan to`langan<sup>151</sup>. Amir Haydarning muntazam qo`shin tuzish borasidagi harakatlarini Buxoro amiri Nasrullo (1827-1860) davom ettirdi. Bu hukmdarning say-harakatlari bilan piyoda askarlardan iborat sarbozlar va to`pchilarning muntazam qo`shini tuzildi. yozma manbalarda qayd etilishicha, bu tadbir 1837 yilda amalga oshirilgan edi. XIX asr o`rtalaridagi ma`lumotlarning ko`rsatishicha, dastlab muntazam qo`shin asosini, Buxoro amirligidagi asirlar tashkil etgan edi. Voqealar guvohlarining yozishicha, 1837 yildayoq, 1000 dan ortiq asirlardan 800 kishi muntazam piyoda askarlik-sarbozlikka, 250 dan ortiq kishi esa artilleriya qo`shinlari – to`pchilar safiga qabul qilingan edi.

Buxoro harbiy kuchlarining asosini tashkil etgan sarbozlar tarkibiy jihatdan bir qancha qismlardan tashkil topgan edi. XIX asr o`rtalariga oid tarixiy ma`lumotlardan ayon bo`lishicha, jami 700 kishidan iborat “sarbozlar har biri 100 talik 7 ta dastaga bo`lingan edi. O`z navbatida har bir dasta “2 ta nim dastaga, 4 ta rassadga va 8 ta baraga bo`lingan. Yuz kishidan iborat harbiy dastani yuzboshi boshqargan. Ushbu boshqaruvda yuzboshiga uning yordamchisi qorovulbegi yordam bergan. “Rassad”larni panjaboshi boshqargan. Harbiy qismni boshqarishda bu mansab egasiga uning muovini – panjaboshi-xurd yordam bergan. Sarbozlarning o`ng kishidan iborat qismiga “daxboshi” boshchilik qilgan<sup>152</sup>.

Harbiy harakatlar davomida muntazam qo`shining turli qismlari zimmasiga bir qancha vazifalar yuklatilgan edi. Jumladan, Buxoro amirligida o`tochar qurollardan foydalanishda mohir sanalgan sarbozlarning vazifasi artilleriyani himoya qilishdan iborat bo`lsa-da, ular hujumkorlik qobiliyatini ham yo`qotmagan edilar. Artilleriyani himoya qilish mobaynida sarbozlar odatda uncha kata kuch yo`qotmaganlar, hujumlar paytida esa ular o`z tarkibining deyarli yarmisini

---

<sup>151</sup>Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И. Демезона и И.В. Виткевича). – М. Наука, 1983. С.71-72.

<sup>152</sup>Троицкая А.Л. Военное дело в Бухаре в первой половине XIX в... С. 213.

yo`qotar edilar. Masalan, 1842 yilda Qo`qonni ishg`ol qilish jarayonida buxorolik sarbozlarning deyarli yarmisi yo`qotilgan edi<sup>153</sup>.

O`rta Osiyo xonliklarida harbiy harakatlarni muvaffaqiyatli olib borishda tajovuz qilgan tomon ham, o`zini himoya qilgan tomon ham turli kurash usullaridan foydalanganlar. Ular jumlasiga muxolif kuchlardan himoyalanih maqsadida aholi yashaydigan manzillar atrofiga handaqlar kuzatish va ularni suv bilan to`ldirishni kiritish mumkin. Bu ko`pgina tarixiy ma`lumotlarda o`z tasdig`ini topadi. Jumladan, amir Nasrulloning 1845 yili Shahrisabzga yurishi davomida Shahrisabz beki Xoja Quli o`ziga qarashli Shahrisabz, O`rta Qo`rg`on, Kitob hududlarini xandaqlar bilan birlashtirib, hosil bo`lgan hududiy birlikning o`rtasiga aholini joylashtirgan edi. Buxoro amirining qo`shini esa 1852 va 1854 yillarda SHahrisabzga qilgan yurishlari mobaynida bu hududga tog` suvlarini yuborish, so`ngra uning suv ta`minotini bo`g`ib qo`yish kabi usullar bilan bu yerda g`alaba qozonishga harakat qilgan.

Xonliklardagi jang olib borish san`ati haqida ma`lumotlar juda oz saqlanib qolgan. Ana shunday ma`lumotlardan biri XIX asr 20-yillariga mansubdir. Buxoro amirligiga oid ushbu manbada qayd etilishicha, jang oldidan ancha kuchli va jasur otliqlar qo`shinning oldida borganlar. Ularning ketidan barcha askarlar dushman tomon o`z yurishini boshlagan va ularning orqasidan esa otliq askarlar hujumiga o`tgan. Otliq askarlarning qo`shinda mavjudligi va ularning hujumi g`alabani tezlashtirishga xizmat qilgan. CHunki chekinayotgan va har tomonga qochayotgan tomonni otliq askarlar ta`qib va taslim etishi oson ko`char edi.

O`rta asrlarga mansub manbalarda kamondan o`q uzish bo`yicha o`tkazilgan musobaqalar ta`rifi ko`plab uchraydi. U yoki bu a`yonga ta`rif berilar ekan, odatda, uning kamondan o`q uzish bo`yicha mahorati ham qayd etib o`tiladi. Jumladan, yosh amirlarga “mohir mergan”, “kamondan yaxshigina otadi” kabi ta`riflar beriladi.

---

<sup>153</sup>Ўша ерда. 216-бет.

Shuningdek, nishonga qarab otishga mo'ljallangan jismoniy mashq inshootlari sadafxonalar (tir) to'g'risida ham ma'lumotlar beriladi. XV asrga mansub adibning xabar berishicha, o'sha davrda Hirotdan shimoli-sharqda joylashgan bog' o'rtasida saroy bilan birga maxsus bino – tir (hozirgi tir so'zi shundan olingan) bunyod etilgan. Bu yerda kamondan o'q uzish bo'yicha harbiy musobaqalar o'tkazilgan. Odatda, muyyan balandlikka osib qo'yilgan qovoq, taxta yoki qog'ozga kamondan o'q otib, mashq qilingan.

Ochiq maydonda esa otda chopish, qovoqni urib tushirish va uni erda u yoqdan-bu yoqqa tortish bo'yicha musobaqalashishgan. Temuriylardan Sulton Ahmad Mirzo (hukmronlik yillari 1469-1494) "O'qni bisyor yaxshi otar erdi. Ilbosunga o'qi va tirgazi aksar tegar edi. Qabaqni maydonning ul boshi-bu boshidan kirib, aksar urar erdi" (20).

Bunday musobaqalar jangga tayyorgarlik sifatida yurishlar oldidan tez-tez o'tkazilib turilgan. Fayzulloh Ibn Ro'zbehxon "Mehmonnomai Buxoro" asarida "Qovoqni nishonga olish tasviri"ni alohida ajratib ko'rsatadi. Unda kamondan qovoqni nishonga olishga bag'ishlangan harbiy mashq musobaqasi o'zining ta'sirli ifodasini topgan. Ibn Ro'zbehxonning xabar berishicha, 1509 yilgi yurish oldidan SHayboniyxon huzuriga "xalifalarning tantanasi odatlariga binoan barcha sultonlar... qovoqni nishonga olish uchun ot minib, maydonga kelishadi. Qovoq SHayboniyxon turgan tantanalar maydoniga qo'yilgan edi. O'z kuchini sinash uchun bahodirlar bir-birini gijgijlab, dahshat solish maqsadida qovoqqa tashlanadilar... Qovoq boshiga tanga butog'i qo'ndirilgan bo'lib, bahodirlar qarshisida otish maydoni sifatida o'zini namoyon etgan shamsub daraxti shoxini eslatardi... Harbiylar unga ot solishar, lekin u tangasini osonlikcha bermas, buning uchun uning boshidagi shar yorilishi kerak edi". Muallif davom etib, yozadi: "kuchini sinamoqchi bo'lgan o'ng mingga yaqin "o'zbek bahodirlari" o'z kuchi va abjirligini ko'rsatishga harakat qildilar, qovoqqa ot soldilar, "baribir, tarqoq holda jang olib borgan kabi uning yonidan o'tib ketardilar, keyin orqaga qaytadilar va ikki yuz gaz yuqoriga osilgan qovoqqa kamondan o'q uzadilar". Bundan tashqari,

shahar tashqarisidagi maxsus ajratilgan tekis maydonlarida ot bilan musobaqalashish – milliy ot o'yinlari va poygalar ham o'tkazilgan.

Buxoro amirligi qo'shinida doimiy musiqachilar ham bo'lgan. Buni biz barcha xonliklar qo'shiniga oid ma'lumotlar orqali ko'rishimiz mumkin. Masalan karnaychi, surnaychi, nog'orachi, naychi, do'lchi va boshqalardan iborat qo'shin sozandalari mamlakat hukmdorlarining harbiy yurishini boshlanganidan darak berar, qo'shinning harakati va g'alabalarini tantanovar tusda aholiga bildirishga xizmat qilar edi. Masalan, karnayni chalish orqali sozandalar harbiy harakatlar davomida qo'shinni to'planishga chorlaganlar. Ularga nog'orachilar va surnaychilar jo'r bo'lgan. Jumladan, XIX asrga oid ma'lumotlarning ko'rsatishicha, Qo'qonda sarbozlar qismida nog'orachilar – “nog'orachi sarboz”lar bo'lgan.

Buxor amiri amir Nasrulloxon tomonidan 1837 yilda tuzilgan muntazam qo'shin sarbozlar va to'pchilar qoshida ham harbiy musiqachilar mavjud bo'lgan. Xususan, sarbozlarning har yuz kishidan iborat qismida mavjud bo'lgan sozandalar “ikkita nog'orachi” va “ikkita surnaychi”dan iborat edi. XIX asr o'rtalariga oid manbalarning birida, Buxoro qo'shini tarkibidagi musiqachilar haqida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, musiqachilar dastalar (rotalar) bo'yicha taqsimlangan. 14 nog'orachi va 14 surnaychilardan tashqari sarbozlar batolonida 2 nafar turk nog'orachisi va 4 nafar karnaychi bo'lgan, yana to'pchilar (artilleriyachilar) qismida esa, 6 nafar karnaychi bor edi.

XVI asr birinchi choragidagi qo'plab harbiy to'qnashuvlarning ishtirokchisi va qahramoni Zahiriddin Boburning ma'lumotlariga qaraganda o'tochar qo'l qurol – to'fang o'sha paytda Bajour (Afg'oniston) aholisiga ma'lum bo'lmagan. Ular bunday qurolni hech qachon ko'rishmagan va jang boshlanganda, to'fang ovozini eshitib ham parvo qilmay, o'qning ro'parasida turishda davom etganlar. Faqat Ustoz Ali quli va boshqa ba'zi jangchilar to'fangdan o'q otib, o'nga yaqin bajourliklarni er tishlatgandan keyingina, boshqalar dushman ochayotgan o'tdan o'z boshlarini qutqarish payiga tushadilar. Afg'onistonning ba'zi bir

joylarida to`fang faqat 1519 yilda Bobur qo`shini bilan paydo bo`lganligidan kelib chiqsak, mazkur o`q otar qurol bu erda keng tarqalmaganligi ma`lum bo`ladi.

O`rta Osiyo qududida harakat qilgan lashkarlarning to`fangni doimiy ravishda qo`llashi XVI asrning o`rtalariga to`g`ri keladi. SHunga ko`ra, bu davrga kelib, stvoli misdan qilingan to`fanglar haqida gapiriladi. Masalan, Buxorodagi viloyat hukmdorlaridan Said Burhon lashkari otryadlaridan biri shunday to`fanglar bilan qurollangan edi. Manbalarda shu davrga oid temir alvonli to`fanglar haqida ham ma`lumotlar mavjud bo`lib, ularga ko`ra, bunday qurollar bilan “rumiylar” qurollangan edilar.

Xorazm xududiga safari taassurotlarini tasvirlagan ingliz Antoniy Jenkinson shunday yozadi: “26 dekabrda menga xon huzuriga kirishga amr qilindi. Men unga rus podshohining maktubini topshirdim. Xon a`yonlari oldida mendan bizning miltiqimizdan otishga majbur etdi va ham ulardan otib, mashq qildi”. Ushbu xabardan ma`lum bo`ladiki, mahalliy to`fanglar Antoniy Jekinson qo`lidagi miltiqdan farq qilgan.

XVI asrning ikkinchi yarmidan e`tiboran qo`lda olib yuriladigan o`q otish qurollarini texnik jihatdan, yollanma lashkarlarni ham qurollantirishda muayyan rol o`ynay boshladi. Jumladan, Samarqand hokimi bo`lib turgan SHayboniy Navro`z Ahmadxon (Boroqxon), shuningdek, uning o`g`li Bobo Sulton qo`shinlari tarkibida miltiqdan o`q otuvchilardan tashkil topgan yollanma askarlar guruhi xizmat qilgan.

To`fangdozlar otgan o`q qalqon, sovut, ba`zida hatto qalqon va sovutni ham baravariga teshib o`tgan. Boburning jang sharoitida alohida ajralib turadigan ba`zi bir zamondoshlari, jumladan, zambarak yasash bo`yicha usta-ustoz Ali quli to`fangdan yaxshi otgan.

Keyinchalik o`q otar qurollarning takomillashishi va keng tarqalishi bilan urushda asosiy jang vositasi bo`lgan kamon faqat ba`zi mintaqalardagina ikkinchi o`ringa o`tgan.

Hozircha O`rta Osiyo hududida harakat qilgan askarlar qo`llagan to`fang shu turdagi boshqa qurollarda farqi noma`lum.

Xulosa o`rnida quyidagilarni keltirish mumkin. Buxoro amirligida harbiy ish bo`yicha an`analar davomiyligi, boshqaruvni takomillashuvi harbiy taktikalar va ularni qo`llash uslublari Buxoro amirligida taktikaning o`ziga xos jihatlari va sabablari yoritildi. SHuningdek Amirlikning mudofaa tizimini o`rganish jarayonida nafaqat harbiy qurol-aslaxa va ularning tayyorlanishi jarayoni va tarkibi, balki asrlar davomida o`z mavqeini yo`qotmagan mudofaa inshootlari va mustahkam qal`alarning qurilishi tadqiq etildi va ko`rildiki airlikda nafaqat qism, nafaqat harbiy kuch balki mustahkam qal`a devorlari muhim ahamiyat kasb etgan.



## XULOSA

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ya'ni mang'itlar sulolasi hukmronligi o'rnatilgach, Buxoro amirligi yana asta-sekin mustahkamlana boshlaydi. Shu asrning 70-80 yillariga kelib Buxoro amirligining markaziy hududini Samarqand va Buxoro shaharlarini o'z ichiga olgan Zarafshon vohasi tashkil qilgan. XIX asrning boshlariga kelib Buxoro amirligi hududiga Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalaridan tashqari Surhon vohasi, Hisor, Xo'jand, O'ratepa, Panjikent kabi aholi zich joylashgan tumanlar, Janubiy Turkmanistonning katta qismi, jumladan Chorjo'ydan to Murg'ob daryosigacha bo'lgan hududlar kirgan. Bu davrda Buxoro amirligi hududlarining kengayishiga asosiy sabab – mang'itlar sulolasining markazlashgan davlat barpo etishga intilishi bo'ldi.

Buxoro amirligi boshqaruv ishlarida yirik sarkardalar, qo'shin boshliqlari, qo'mondonlar va amirlarning harbiy mahorati katta ahamiyatga ega. Amirlikda ichki va tashqi xavfni bartaraf etish, davlat sarhadlarini kengaytirish hamda qilinadigan yurishlarda qo'shnlarning soni, harbiy tayyorgarligi, jang usullari, qurol-yarog'lar, qo'shin boshliqlarining harbiy mahorati kabilarga katta e'tibor qaratganlar. Davlatda qo'shin to'plash, qo'shinning ta'minoti, uning tarkibi, qo'shinni jangga tayyorlash, qurol-aslahalar, harbiy va qorovullik xizmatini o'tash, harbiy harakatlarni olib borish odat tusiga kirgan. Amirlikning siyosiy hayoti, boshqaruv tartibi, ma'muriy tuzilishi va harbiy siyosati to'g'risida tarixiy manbalarda ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Mang'itlar sulolasi hukmdorlari Buxoro davlatini amir unvoni bilan boshqardilar. Mang'itlar sulolasi asoschisi Muhammad Rahim va uning vorisi Doniyolbiy (1759-1784 yillar) Buxoro davlati hududini ancha kengaytirishga erishdilar. Tarixda "Amir Mas'um" deb nom qoldirgan bu hukmdor (1785-1800 yillar) markaziy hokimiyatni mustahkamlab, Buxoro amirligi sarhadlarini ancha kengaytirdi. Mamlakat iqtisodi yaxshilandi. 1800 yili Buxoro taxtiga Amir Haydar o'tiradi. Amir Haydar hukmronligi davri ham ichki va tashqi kurashlar bilan o'tadi. Amir Haydar hukmronligi davri tarixi "Tarixi amir Haydar" va "Tarixiy

Shohruhiy” asarlarida amirlik tarixi to`g`risida quyidagi ma`lumotlar keltirilgan: “Qo`qon hukmdorlari 1805 yili Xo`jandni, 1809 yili Toshkentni, 1816 yili esa Turkistonni ishg`ol etib, xonlik doirasiga kiritadilar. 1806-1813 yillari O`ratepaga, 1806 yili Jizzaxga, 1821 yili Samarqandga tahdid solganlar. 1826-1860 yillarda amir Nasrullo Buxoroda xukmronlik qildi. Nasrulloxon davrida Buxoroning harbiy qudrati ancha oshdi.

Buxoro mamlakatining siyosiy, ijtimoiy va xo`jalik hayotida murakkab jarayonlar bo`lib o`tdi. XIX asrning o`rtalariga kelib Buxoro amirligida markaziy hukumat kuchayib, uning hududlarida amirning hukumati joriy qilindi. Markaziy amir hukumatiga qarshi va bo`ysunmaydigan mulklar va ularning beku hukmdorlariga qattiq zarba berildi. Ikkinchidan, kuchayib borgan amirlik qo`shni davlatlar – Xiva va Qo`qon hududlariga bostirib kirib, ularning ichki ishlariga faol daxolat qila boshladi. Natijada, uch xonlik o`rtasidagi nizo va urushlar bu davlatlarning har birini zaiflashtirdi. Uchinchidan, bu tarixiy davrda Rossiyaning bosqini boshlandi va bosib olingach talon-taroj ishlari amalga oshirildi. Amir Muzaffar hukmronligi davrida (1880-1885 yillar) amirlikning katta qismi, Zarafshon vohasi ruslar tomonidan zabt etildi va Buxoro Rossiyaga tobe davlatga aylandi.

Buxoro amiri Muzaffar (1860-1884) Rossiyaga Samarqand yerlarini topshirdi, rus savdogarlari xonlik yerlarida savdo qilib yurushlariga rozi bo`ldi, tashqi ishlarni mustaqil olib borish huquqidan voz kechdi. Birozdan keyin, XIX asr oxirida Buxoro xonligi Rossiyaning bojxona chegaralariga qo`shildi. Uning hududida podshoh askarlarining garnizonlari joylashtirildi. SHunday qilib Buxoro amirligi 1868 yilga kelib Xo`jand, O`ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo`rg`on kabi o`zining yirik aholi manzilgohlaridan va Zarafshon vohasining yuqori va o`rta oqimidagi hududlardan to`la mahrum bo`ldi. Buxoro hukmdori amir Muzaffar o`z hududining katta qismidan ajralib qolishi bilan bir qatorda chor Rossiyasiga o`ta katta miqdorda tavon to`lashga ham majbur bo`ldi.

Mana shu holatda, Buxoro amirligi XIX asrning 70-yillaridan to 1920 yilga qadar rasman o`z davlatchiligini saqlab qolgan holda tarix sahnasida faoliyat

ko'rsatib turdi. Ushbu davrda Buxoro amirligida amir Muzaffar (1860-1885), amir Abdulahad (1885-1910) va amir Olimxon (1910-1920) davlat boshlig'i sifatida ish olib borgan bo'lsalarda, amalda rus hukumatining itoatkor xizmatkorlariga aylanib bo'lgan edilar.

Buxoro amirligida harbiy kuchlarning boshqaruvini muayyan tizimi shakllangan edi. Bu tizimning eng yuqori pog'onasida oliy hukmdor amir turgan. U qo'shinning rasman oliy ko'mondoni hisoblangan sanalsa-da, ko'p hollarda amalda qo'shinga boshchilik qilish boshqa amaldorlar orqali amalga oshirilgan. Buxoro amirligida qo'shin parvonachi tomonidan boshqarilgan bo'lib, u bosh ko'mondon mavkeiga ega bo'lgan hollarni tasdiqlovchi holatlar ham tarixiy adabiyotlarda keltirilgan.

Xonliklarda harbiy unvonlar deyarli bir xil bo'lgan. Buxoro va Qo'qon xonligiga oid ma'lumotlar ya'ni XIX asr birinchi yarmida har ikki davlatda ham besh yuz askardan iborat bo'linmaga pansodboshi, yuz askarga – yuzboshi, ellik askarga – panjaboshi, o'nlikka – dahboshi rahbarlik qilgan.

Buxoro davlatida askar amaldorlarining shaxsiy muhrlari bo'lar edi. 1997 yili Shahrisabzda yashagan qozi va xattot Fayzulla Maxdum Ravnakiyning kutubxonasi va arxividan 100 ga yaqin muhrlarning naqshini topilgan. Turli amaldorlarning bu shaxsiy muxrlari XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga tegishli bo'lib Buxoroga viloyatlarining mahalliy boshqaruvi haqida muhim ma'lumotlarni beradi. Xonliklarda mamlakat chegaralarini qo'riqlashga katta e'tibor qaratilgan. Davlat chegaralarida ham ma'lum miqdordagi harbiylar saqlangan.

O'rta Osiyo xonliklarida bo'lgani kabi Buxoro amirligida ham mudofaa va hujum bilimida turli uslub va yo'nalishlar vujudga keldi va shu asosda qurol-aslahalar ham takomillashib harbiy mudofaa xarakteriga ega bo'lib borgan. Chegaralarda qo'shinni saqlash uchun bir qancha qal'alar bunyod etilgan edi. Bu qal'alarda joylashgan qo'shining asosiy vazifasi turli savdo karvonlarining xavsizligini ta'minlash, mamlakatni tashqi kuchlar tajovuzidan asrashdan iborat edi. Tashqi kuchlar hujumiga birinchi bo'lib javob beradigan bunday qal'alar

asosan yirik xalqaro karvon yo'llarida bunyod etilar edi. Xonliklarda turli qurol-yarog'lar ishlab chiqaruvchi ustaxonalar ham mavjud edi. Ular jumlasiga o'tochar qurollar – miltiqlar va to'plar ishlab chiqaruvchi ustaxonalarni kiritish mumkin. Ularda mamlakatda mavjud turli hunarmandlar – temirchilar, degrezlar, duradgorlar va boshqalarning xizmatidan keng foydalanilgan.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, har bir davlatning boshqaruv tizimida amaldor shaxslarning o'rnini kattadir. Turkiston xonliklarida ham oliy hukumdor o'z hokimiyatini maxsus amaldorlar va xizmatchilar orqali amalga oshirgan. O'tmishda qaysi bir davlatning markazlashtirilgan hokimiyati mustahkam bo'lsa, u davlat rivojlangan. Shu o'rinda Buxoro amirligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan harbiy lavozim, harbiy taktika, harbiy ish manbashunoslik va tarixshunoslik asosida o'rganildi. Buxoro tarixi manbalari orqali siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ko'rsatib o'tildi.

Buxoro amirligi siyosiy tarixi ikki davrga bo'linishi ya'ni Rossiya bosqiniga qadar amirlikdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, shuningdek Rossiya imperiyasi bosqini, amirlikni bosib olish jarayoni mustamlakachilar siyosati va uning ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri. Amirlikni bosib olinishidagi harbiy qism va harbiy taktika mustamlakachilar davridagi ichki nizo va o'zaro to'qnashuv. Unda harbiy qismni qo'zg'olonlarni bostirishdagi ishi harbiy lavozim, harbiy ish va vazifalarida kelib chiqqan holda asosli tarzda keltirildi. Buxoro amirligi tarixi, davlat boshqaruvi, mansab, unvonlar va ularning egalarini vazifalari ya'ni saroy mansab va unvonlari, harbiy va diniy mansab va unvonlar va ularning egalarining vazifalarini keng qamrovli tarzda o'rganish, o'z o'rnida Xiva va Qo'qon xonligi mansab va unvonlari va ularning egalarining vazifalari qiyoslab tahlil qilindi.

Buxoro amirligida harbiy ish bo'yicha an'analar davomiyligi va boshqaruvni takomillashuvi harbiy taktikalar va ularni qo'llash uslublari Buxoro amirligida taktikaning o'ziga xos jihatlari va sabablari yoritildi. SHuningdek Amirlikning mudofaa tizimini o'rganish jarayonida nafaqat harbiy qurol-aslaxa va ularning tayyorlanishi jarayoni va tarkibi, balki asrlar davomida o'z mavqeini yo'qotmagan mudofaa inshootlari va mustahkam qal'alarning qurilishi tadqiq etildi va ko'rildiki

amirlikda nafaqat qism, nafaqat harbiy kuch balki mustahkam qal'a devorlari muhim ahamiyat kasb etgan.

**Manbalarning tahlili, ilmiy adabiyot va tadqiqotlarning tavsifi mavzu doirasida shunday xulosalar olishga sabab bo'ldi:**

1. Buxoro amirligining siyosiy boshqaruvi, ijtimoiy muhiti va harbiy lavozim, harbiy ish tarixi tarixshunosligi va manbashunosligi o'rganilgandi, ko'rildiki, mustaqillikka erishgandan so'ng amirligi tarixi bilan bog'liq ko'pgina ilmiy tarixiy manbalar fors-tojik tillaridan tarjima qilinib krill alifbosida nashr etilgan va bu bilan o'rganilayotgan davr tarixini chuqurroq o'rganish imkoni yaratilgan;

2. Buxoro amirligida siyosiy-iqtisodiy hayoti chegaradosh davlatlar bo'lgan Xiva va Qo'qon xonliklariga o'xshash holatda bo'lganligi ya'ni siyosiy boshqaruvda, ijtimoiy hayot, yer egaligi, soliq va majburiyatlar borasida ham o'xshashlik mavjud;

3. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakachilik sulhini imzolanishi, mustamlakachilik siyosati amirlikning moddiy va ma'naviy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan;

4. Amirlikdagi harbiy unvon, mansab egalari va ularning vazifalari o'ziga xos tartibda bo'lib, bu davlat boshqaruvida muhim ahamiyatga ega bo'lgan;

5. Mudofaa qurollari va inshootlari bo'yicha Buxoro amirligini Xiva, Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlil qilganda umumiy jihatlari va qisman farqli tomonlari ham mavjud;

6. Amirlikda harbiy ta'minot: qurol-yarog` va anjomlar, harbiy kiyimga katta e'tibor berilgani, davlat tomonidan katta miqdorda mablag` ajratilgan;

7. Harbiy qurol- yarog`lar ishlab chiqarish xom ashyosi va tayyorlash texnikasida amirlik hunarmandlari ustasi farang bo'lgan va asosan jang paytlarida mahalliy qurolsozlar tayyorlagan harbiy qurol aslahalardan foydalanganlar.

**Mavzuning o'rganilishi va tadqiqi quyidagi taklif va tavsiyalarni berishga imkon beradi:**

1. Buxoro amirligi harbiy ish tarixi va uning takomillashuvini ishonchli manba va arxiv hujjatlari orqali o'rganish;

2. Buxoro amirligi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy hayotini har tomonlama tahlil etish;

3. Amirlikning harbiy kuchlarining ta'minoti va boshqaruvi tarixini yanada chuqurroq o'rganish;

4. Mavzu bo'yicha muhim va asosiy adabiyotlarni izlab topish va o'zbek tilida nashr etish;

5. Harbiy ishi va taktikasining o'ziga xos takrorlanmas jihatlarini Xiva va Qo`qon xonliklari harbiy ishi bilan taqqoslash orqali o'ziga xos tomonlarini o'rganish bo'yicha yanada ko'p izlanishlarni olib borish lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan taklif va tavsiyalarga e'tibor qaratish umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarini o'qitishdan boshlansa maqsadga muvofiq bo'lardi.

## Фойдаланган адабиётлар рўйхати

### Президент И.А.Каримов асарлари

1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.- Т.: Ўзбекистон, 1996. 1 жилд. - 364 б.
2. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин.- Т.: Ўзбекистон, 1996. 2 жилд. - 380 б.
3. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир.- Т.: Ўзбекистон, 1996. 3 жилд. - 366 б.
4. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан.- Т.: Ўзбекистон, 1996. 4 жилд. - 394 б.
5. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида.- Т.: Ўзбекистон, 1998. 6 жилд. - 429 б.
6. Ислом Абдуғанивич Каримов. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. "Шарқ" нашриёти.  
Т.: 1998. - 31 б.
7. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз.- Т.: Ўзбекистон, 1999. 7 жилд. - 413 б.
8. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз.- Т.: Ўзбекистон, 2000. 8 жилд. - 525 б.
9. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз маъсулмиз.- Т.: Ўзбекистон, 2001. 9 жилд. - 439 б.
10. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. - Т.: Ўзбекистон, 2002. 10 жилд. - 432 б.
11. Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т. Ўзбекистон, 2011. 19 жилд.
12. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008. - 173 б.

13. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. - Т. Ўзбекистон, 2011.

### **Манба ва адабиётлар:**

1. Абдуллоҳ Хўжа Абдий. Тазкират-уш-шуарои мутаахирини Бухоро. // Қўлэзма. Абу Райҳон Беруний номидаги Ўзбекистон ФАШИ, № 64. Айни С. Бухара. Воспоминания. Кн. 1, 2. – М.,1961.
2. Айни С. Тарихи амирони манғитийаи Бухоро. – Тошкент, 1926.
3. Айни С. Тарихи инқилоби Бухоро. – Душанбе, 1987 (ўзбек тилидаги 1926 й. нашр асосида тожик тилида чоп этилган).
4. Беҳбудий Маҳмудхўжа Муфтий. Бухоро хонлигига саёҳат // Ҳаёт ва иқтисод, 1990. – № 1.
5. Даниш Аҳмад. Путешествие из Бухары в Петербург. Избранное. – Душанбе: Таджикгосиздат, 1960.
6. Дониш Аҳмад Маҳдум. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони манғития. – Душанбе: Сарват, 1992.
7. Мирза Бадиъ Диван. Мажмаъ ул-аркам. /Факсимиле рукописи. Введение, перевод и примечание А. – Б. Вильдановой. – М.: Наука 1981.
8. Мирзо Олим Маҳдум ҳожи. Тарихи Туркистон. / Масъул муҳаррир З. Чориев. Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ш. Воҳидов. Араб ёзувидан табдил Ш. Воҳидов ва Р. Холиқова. Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – 242 б.
9. Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий. Таворихи муттақадимин ва муттаахирин. Форс – тожик тилидан Н. Йўлдошев таржимаси. – Бухоро, 2003.
10. Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофеии.(Тожик тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ш.Воҳидов, З.Чориев). – Тошкент: Академия, 2001,-94б.



11. Садри Зиё Мухаммад-Шарифжон. Силсилаи салотини мангитийа. Мажмуа./ Қўлёзма, ЎзП ФА ШИ, № 2193. 188<sup>б</sup> вар.

12. Сами Мирза Абдулазим. Тарихи салатини мангитийа. (История мангитских государей). Перевод и примечания Л. М. Епифановой. – М., 1962.

### **Адабиётлар:**

1. Абдурахмон Толъе. История Абулфайзхон. –Т.: «Фан», 1959.
2. Аҳмад Дониш. Рисолаи ё мухтасари аз тарихи салтанати хонадони мангития. Душанбе, 1960.
3. Аҳмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии. XVI-XVIII вв. (Писменные памятники).-Ташкент: Фан, 1985. С.56.
4. Амир Сайид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи . Тошкент: Фан, 1991.
5. Аҳмеджанов Г. А. Российская империя в Центральной Азии. (История и историография колониальной политики царизма в Туркестане). – Ташкент, 1995.
6. Абдурахмонов А., Зоҳидий А. Закий Валидий Туғоннинг Туркистонга илмий сафари. Тошкент: Фан, 1997.
7. Аъзамхужаев С. Туркистон мухторияти. Тошкент: Маънавият, 2000.
8. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент, 2000.
9. Аҳмедов Б. А. Ўзбекистон тарихи манбалари. - Тошкент: Ўқитувчи. 2001. - Б. 45
10. Абдурахимова Н.А., эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. –Т.:«Академия», 2002. 240-6.
11. Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана. – Л., 1927.
12. Бартольд В. В. Бухара // Сочинения. Т. III. – М., 1965.
13. Бартольд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. Т.5. Москва, 1968.
14. Бадриддинов С. Бухоро моддий ва маънавий маданияти саҳифалари. –Бухоро, 2013.Б.209.

15. Вильданова А. – Б. Подлинник бухарского трактата о чинах и званиях. / Письменные памятники Востока. Ежегодник, 1968. – М., 1970.
16. Воҳидов Ш. "Тарих-и нофеи" Бухоро амирлиги тарихига оид муҳим манба. //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1997. №№ 9-10-11
17. Воҳидов Ш., Чориев З. Тарихи Нофеи (тожик тилидан таржима, сузбоши ва изоҳлар муаллифи). Тошкент : Академия, 2001.
18. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.Б.71.
19. Воҳидов Ш., Чориев З. Садри Зия и его библиотека. Из истории книги и книжной культуры в Бухаре начала XX века. / Книги, библиотеки, каталоги. Книга 1. Ташкент: Янги аср авлоди, 2007. – 352 с.
20. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент: Янги аср авлоди, 2012.Б.555.
21. Зиёев Ҳ. З. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI-XIX асрлар). – Тошкент, 1962.
22. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент, 1989.
23. Зияев Х. Завоевание Бухарского и Хивинского ханства царизмом // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1990. – № 8.
24. Зиёев Ҳ. З. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. (XVII- XX аср бошлари). – Тошкент: Шарқ, 1998.
25. Зиёев Ҳ.З. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи. (милоддан олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). – Тошкент: Шарқ, 2001.
26. Зияева.Х. Узбекистонда харбий иш тарихидан.-Тошкент: Шарқ, 2012.Б.254.
27. Қосимов Ф. Ўзбек давлатчилиги тарихида Бухоро ҳукмдорларининг ўрни // Тарих, мустақиллик, миллий ғоя. – Тошкент, 2001. – Б.192-193.
28. Муҳаммад Амин-и Бухари. Убайдуллонаме. Тошкент: Фан, 1957.
29. Муҳаммаджонов А. Р., Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. – Тошкент, 1957.

30. Мирза Абдалазим Салимий. Тарихм салатини Мангитийа (история Мангитских государств.). М. 1962.
31. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.:Наука, 1975.
32. Мирза Бади Диван. Мажмаъ ул – арком (Факсимиле рукописис. Введение, перевод и примечание). А.Б. Вильдановой. Москва: Наука, 1981.
33. Масалиева О. Бухоро амирлигида давлат бошқаруви (хорижлик муаллифлар асарлари асосида) // Ҳаёт ва қонун, 1991. – № 2.
34. Муҳаммад Али ибн Муҳаммад Сайид Балжувони. Тарих - и нофеи. Душанбе, 1992.
35. Мулла Махдум Хожи. Тарихи Туркистон. – Қарши, 1992.
36. Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. Тошкент, 1994.
37. Муҳаммаджонов А. Бухоро шаҳри 2500 ёшда. Тошкент:Фан, 1998.
38. «Мустабид тузумнинг Узбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари». Д.Алимова / Тошкент: Шарқ, 2000.
39. Мингноров А. Туркистонда 1917-1918 йиллардаги миллий сиёсий ташкилотлар. Тошкент: Маънавият, 2002.
40. Масалиева О. Амир Музаффарнинг тарихнавис ўғиллари. // Мозийдан садо, 2004. – № 2 (22). – С. 32.
41. Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Тошкент. 2008.- Б. 125
42. Наимова Н. Амирнинг хазинаси. – Бухоро, 1995.
43. Наимов Н. Сўнгги ҳукмдор». – Бухоро, 2008.
44. Озодаев Ф. Тошкент тарихидан очерклар. Тошкент, 1960.
45. Одилов А. Бухоро амирлигида XIX асрнинг 60-йилларида озодлик ҳаракати тарихи // Илмий тўплам. Т., 1995. – Б. 96-98.
46. Одилов А. Муҳаммад Раҳимхон-мангитлар сулоласи асосчиси // Бухоро мавжлари, 2005. – №. 3. – Б. 36-37.
47. Ражабов З. Маорифпарвар Аҳмади Дониш. Душанбе: Ирфон, 1964. Адабиётлар 397-307 бб.

48. Рукописная книга в культурах народов Востока. Книга первая.- Москва: Наука, 1987.-С. 330-406.
49. Ражабов К. Бухоро ва Хоразм Халқ Республикалари: давлатчиликнинг демократик шакли. Тошкент: Шарқ, 2000.
50. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. – Тошкент: Маънавият, 2002.
51. Рашидов У. Бухоро Халқ Республикаси. – Бухоро, 2003.
52. Ражабов Қ. Муҳаммад Дониёлбий оталиқ: бийлик мансабидан амирлик рутбасигача // Бухоро мавжлари, 2005, – №4. – Б. 26–27.
53. Ражабов Қ. Амир Ҳайдар ёхуд амири Саййид // Бухоро мавжлари, 2006. – №.2 – Б. 40- 42.
54. Семёнов А. А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях их носителей в средневековой Бухаре // Советское востоковедение, Т. В. 1948. – С. 137-153.
55. Саид Хомид Тура Комёб. Таворих ул - хавонин. Тошкент: Академия, 2002.
56. Сагдуллаев А., Мавлонов У. Ўзбекистонда давлат ва бошқарув тарихи. Тошкент, 2006. Б.140
57. Содиков Ш., Нарзулла Ж. Ўзбекистон тарихи. Тошкент. Шарқ, 2011. Б.550.
58. Тухтаметов Т. Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX-начале XX в. – Ташкент, 1966.
59. Троицкая А.Л. Каталог архива кокандских ханов XIX века. М.:Наука, 1968.
60. Тухтаметов Т.Г. Россия и Бухарский эмират в начале XX в. – Душанбе, 1977.
61. Троицкая А.Л. Военное дело в Бухаре в первой половине XIX в. М.:Наука, 1986.
62. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида (Ўзбекистоннинг янги тарихи). 1 китоб. Т., 2000.

63. Д. Ш. Зиёева. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. Тошкент: Шарк, 2012.
64. Халфин Н. А. Политика России в Средней Азии (1857-1868 гг.). – М., 1960.
65. XIX аср Хива давлат хужжатлари II том. – Тошкент, 1960.
66. Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии: (Первая половина XIX в.) – М., 1974.
67. Хафиз- и Таныш ибн Мир Мухаммад Бухари. Шараф- наме-йи шахи (книга шахской славы). М.:Наука, 1989.
68. Хотираҳои Амир Олимхон. (Амир Олимхон хотиралари). - Душанбе: Адиб. 1992, 3-бет.
69. Хужаев Ф. Бухоро инқилоби тарихига материаллари. Тошкент: Фан, 1997.
70. Холиқова Р. XIX асрда Бухоро амирлиги // Жамият ва бошқарув, 2000. – № 3.
71. Холиқова Р. Амирликдаги амаллар ва унвонлар // Фан ва турмуш. 2000. – № 4.
72. Холиқова Р. Вассал Бухоро амирлигининг маъмурий-сиёсий тузилиши // Тарих, мустақиллик, миллий ғоя. – Тошкент, 2001. – Б. 206-208.
73. Холиқова Р. Вассал Бухоро амирлигида маҳаллий бошқарув // Тарих, мустақиллик, миллий ғоя. Тошкент, 2001. – Б. 209-210
74. Холиқова Р. XIX аср охири ва XX аср бошларида Бухоро амирлиги // Жайхун, ТерДУ хабарлари, 2005. – № 1. – Б. 32-37.
75. Холиқова Р. Бухоро ҳукмдорлари. Автобиографик очерк (XIX-XX аср бошлари) // Жамият ва бошқарув, 2004. – № 2.
76. Холиқова Р. Марказий давлат бошқаруви тарихига бир назар // Мулоқот. 2004. – № 1.
77. Холиқова Р. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 236 б.

78. Холбоев С. Бухоро амирлигининг олтин хазинаси. Тошкент: Фан, 2008.Б.178.

79.Шодмон Воҳид. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. – Тошкент, 1996. Б.315.

80.Ғуломов Х.Ғ. Россиянинг Бухоро хонлиги билан XVII асрда элчилик муносабатларига доир. – Т.: «Фан», 1992.

### **Хорижий тиллардаги адабиёт:**

1. Еркинов А., Ваҳидов Ш. Уне соурсе мёсоннуе поур льётуде де ла продустион де ливрес à ла соур де Муҳаммад Раҳим Кҳан II (Кҳива,фин.XIX с.) // Саҳиерс Асие Сентрале, 1999. н°7. П. 175–194.

2. Ваҳидов Ш., эркинов А. Ле фихрист (саталоқуе) де ла библиотекуе де Садри Зия:уне имаге де ла вие интеллектуелле данс ле Мавараннаҳр (фин XIX<sup>е</sup>-деб.XX<sup>е</sup> с.) // Саҳиерс дъАсие Сентрале, 1999. н°7. П. 141–174.

3. Верзеичниссе дер арабишен Ҳандсchrifтен вон W. Аҳлварт. Б-де И-Х. Берлин. 1887-1899 (Дие Ҳандсchrifтен – Верзеичниссед. Кгл. Библиотек зу Берлин. ВИИ– ИХ, ХВИ– ХХИИ).

### **Интернет сайтлари**

[www.yandex.ru](http://www.yandex.ru)

[www.lex.uz](http://www.lex.uz)

[www.tarix.uz](http://www.tarix.uz)

[www.edu.uz](http://www.edu.uz)

[www.mtrk.uz](http://www.mtrk.uz)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.freenet.ru](http://www.freenet.ru)

[www.google.uz](http://www.google.uz)